

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI**

Qo'lyozma huquqida
UDK:811.512.133:81.367.623

TOSHQULOVA ZEBINISO BAXRIDDIN QIZI

SIFAT SO'Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

70230101-Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi bo'yicha magistr akademik
darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:



Shukurov Ahad Axmatovich
Filalogiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)

Termiz – 2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil 2-yanvardagi №2 T/M sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:



Magistr dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (74 raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: Termiz shahar Barkamol avlod ko'chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar:



f.f.f.d. (PhD) A. Shukurov

Kafedra mudiri:



f.f.f.d. (PhD) N. Amonturdiyev

Magistratura bo'limi boshlig'i:



p.f.f.d. (PhD) A. Narbayev



**Termiz davlat universiteti 70230101-lingviistika: o‘zbek tili
mutaxassisligi magistranti Toshqulova Zebiniso Baxriddin qizining “Sifat
so‘z turkumining uslubiy xususiyatlari” mavzusidagi magistrlik
dissertatsiyasiga**

ANNOTATSIYA

Tadqiqotning obyektlari: Tadqiqotning obyekti sifatida jahon va o‘zbek adabiyotida shu kungacha yaratilgan badiiy asarlardan ayrim namunalari, o‘zbek tilshunosligidagi ilmiy izlanish natijasi asosida yaratilgan ilmiy asarlar hamda lingvomadiyatdagi qarashlar asos bo‘lib xizmat qildi.

Ishning maqsadi: Ilmiy ishda sifat so‘z turkumi ustida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish, sifatning uslubiy xususiyatlari chuqurroq o‘rganish sifatning modal shakllaridagi bo‘yoqdorlik, uning ma’no ottenkalarini tahlil qilib, rang tus sifatlarining badiiy matndagi emotsional-ekspressiv tomonlarini yoritib berish, ular berayotgan ma’nolarning asar mohiyatini, ta’sirchanligini ochib berish yoki asarni yoritishdagi o‘rnini aniqlash, sifat asosida shakllangan stilistik vositalar(epitet, oksyumaron, antiteza)da sifatning ma’no qirralarini o‘rganib chiqish tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqotda qo‘llanilgan asosiy metod tahlil va qiyoslash metodi hisoblanadi. O‘rganilayotgan mavzuni yoritishda badiiy asarlarning tarkibida qo‘llangan sifatlarni tahlil qilish va bu asar matnlari tarkibida kelgan sifatlarning ma’no tomonlarini qiyoslash metodlari orqali yoritildi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi:

- sifat so‘z turkumi ustida bajarilgan ishlar aniqlandi;
- uning uslubiy o‘rganilishi kuzatildi;
- sifatlardagi modal formalarning uslubiy ma’nolari tahlil qilindi;
- sifat sosida shakllangan stilistik vositalarning(antiteza, oksyumaron va epitete misol sifatida olingan) uslubiy bo‘yoqdorligini oshirishda sifat so‘z turkumining o‘rni kuztilib, o‘rganildi;

- badiiy matn tarkibidagi (nasriy va she'riy) sifatlarning emotsional-ekspressivlikni taminlashi va uning uslubiy vazifaviy tomonlari yoritildi;

- sifat so'z turkumining lingvomadiyatlarda qanday ma'no ifodalashi, ularning qadimiy urf-odat, an'analar bilan bog'liqligi aniqlandi va tavsiflandi.

Amaliy ahamiyati: Tadqiqotdagi materiallardan o'rta maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji va oliy o'quv yurtlarining o'zbek filalogiyasi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining uslubiyat mavzusini ochib berishda hamda morfologiya bo'limining sifat so'z turkumini uslubiy tomonlarini o'rgatish uchun xizmat qiladi.

Tatbiq etish darajasi: Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalaridan " Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining morfologiya va uslubshunoslik bo'limlarini o'qitishda keng foydalanish mumkin.

Qo'llanish sohasi: Oliy ta'lim, kasb-hunar kollejlari, akademik litsey va o'rta ta'lim maktablarida tilshunoslikning uslubiyat hamda morfologiya bo'limini o'qitish jarayonida.

Termiz State University 70230101-linguistics Uzbek language specialty to the master's thesis of Tashkulova Zebiniso Bakhridin's daughter on the topic "Methodological features of the adjective word group"

ANNOTATION

Objects of the research: As an object of the research, some examples of artistic works created in the world and Uzbek literature, scientific works created on the basis of the results of scientific research in Uzbek linguistics, and views on linguistics served as the basis.

The purpose of the work: to study the scientific research carried out on the quality vocabulary in scientific work, to study in depth the methodological features of quality the coloring in the material forms of the quality, the analysis of its shades of meaning and the emotional-expressive aspects of the qualities of color in the artistic text to reveal, to reveal the essence of the work, the effectiveness of the meanings they give, or to determine the meaning of the illumination of the work, stylistics formed on the basis of quality means, epithet, oxymoron, antithesis) by organizing the meaning aspects of quality in means (epithet, oxymoron, antithesis) output is the main objective of the study.

Research methods: The main method used in the research is the method of analysis and comparison. In the study of the topic, it was covered by analyzing the adjectives used in the composition of the works of art and comparing the meanings of the adjectives in the text of works of this work.

The results obtained and their novelty:

- work done on quality vocabulary was identified;
- his methodical study was observed;
- the stylistic meanings of modal forms in adjectives were analyzed, stylistic tools formed in quality (antithesis, oxymoron, epithet) taken as an

example) quality in increasing stylistic color the role of the word group was observed and studied;

- Emotional ensuring expressiveness and its methodological and functional aspects lit up;

- It was determined that the meaning of adjectives in linguistic materials is related to ancient customs and traditions, and described.

Practical significance: From the materials of the research, students studying Uzbek philology in secondary, academic lyceums, vocational colleges and higher educational institutions will be able to reveal the methodological topic of the modern Uzbek literary language and the quality of the morphology department. Word serves to teach the methodological aspects of the series.

Application level: The practical importance of research is that research the results can be widely used in the teaching of morphology and methodology departments of the modern Uzbek literary language.

Field of application: Vocational colleges of higher education, academic lyceum and methodology and morphology department of linguistics in secondary schools in the process of teaching.

MUNDARIJA

| | |
|---|--------------|
| KIRISH | 3-7 |
| I BOB. O‘ZBEK TILIDA SIFAT SO‘Z TURKUMINING USLUBIY VA EMOTSIONAL-EKSPRESSIV TADQIQI | |
| 1.1. O‘zbek tilshunosligida sifat turkumiga oid umumiy tadqiqotlar..... | 8-14 |
| 1.2. Sifat so‘z turkumining uslubiyati va unung o‘rganilishi..... | 14-21 |
| 1.3. Sifat so‘z turkumining modal formalari (modal shakllar)..... | 21-26 |
| Bob yuzasidan xulosalar..... | 26-27 |
| II BOB. SIFAT ASOSIDA SHAKLLANGAN STILISTIK VOSITALAR | |
| 2.1. Oksyumoronning emotsional-ekspressiv xususiyatlari..... | 28-34 |
| 2.2. Badiiy asarlarda sifat asosli antitezalar..... | 34-36 |
| 2.3. Sifatlash badiiy nutqning muhim tasviriy vositalaridan biri. | 37-43 |
| Bob yuzasidan xulosalar..... | 43 |
| III BOB. RANG-TUS SIFATLARINING BADIY MATN VA LINGVOMA-DANIYATDAGI USLUBIY XUSUSIYATLARI | |
| 3.1. Badiiy matnda rang-tus sifatlarining uslubiy xususiyatlari..... | 44-71 |
| 3.2. Rang-tus sifatlarining lingvomadaniy xususiyatlari..... | 71-77 |
| Bob yuzasidan xulosalar..... | 78 |
| UMUMIY XULOSALAR | 79-80 |
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI | 81-86 |

KIRISH

Magistirlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Til-millat ko'zgusi, madaniyat beshigi, aloqa-munosabat vositasi. O'z tili va millatini asray olmagan xalq eng g'arib, eng qashshoq xalqqa aylanadi. Tilga muhabbat ham insonga ona suti orqali qon-qoniga singuvchi tilsim tuyg'udir. Ulug' qirg'iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov o'zining "Cho'qqida qolgan ovchining oh-u zori" kitobida e'tirof etganidek, "Har birimiz bizni voyaga yetkazgan, bizga eng bebaho boyligini–tilini hadya etgan onalar oldida qarzdormiz. Tilimizning sofligi uchun, boyishi uchun jon kuydirsak, farzandlik burchimizni ado etgan bo'lamiz", deb bekorga aytib o'tmagan.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o'zbek tiliga nisbatan bergan baholarini ham eslab o'tsak, xato qilmagan bo'lamiz. "Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasini va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutsin".

Ma'lumki keyingi yillarda yurtimizda, va jahon miqyosida ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, "O'zbek Respublikasining Davlat tili haqida"gi qonunning qabul qilinishi o'zbek tili va adabiyotiga munosabatini va uning mavqeini tubdan o'zgartirib yubordi. O'zbek tilining rivojlanishini kelajak avlodga o'qitish uchun ko'plab darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar yaratildi. Shular jumlasiga, G'aybulla Boboyorov "O'zbek tili tarixi", Nasimxon Raxmonov, Qosimjon Sodiqov "O'zbek tili tarixi" (2009), G'.Abdurahmonov, D.Xo'jayeva "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (2003), R. Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova "Hozirgi o'zbek adabiy tili", F.Bobojonov "Hozirgi o'zbek tili", H.Nematov, Nazarov "Hozirgi o'zbek adabiy tili", B.Mengliyev "Hozirgi o'zbek tili", A.Anorbekova, Sh.Mirzayeva

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (2012), F.Bobojonov, K.Rajapova, D.Yusufova “Hozirgi o‘zbek tili”, H.Jamolxonov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (2005), uch qisiimdan iborat Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining I, II, III bosqich talabalari uchun darslik “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” 1-kitob - A.Nurmonov, A.Sobirov, N.Qosimova; 2-kitob A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova; 3-kitob A.N.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov (2013), N.Xusanboyev, N.A.Dilmurodova, R.Sh.Xo‘jaqulova “O‘zbek tili (2020), B.Mengliyev “Hozirgi o‘zbek tili” (2020), R.R. Sayfullayeva, B.R. Mengliyev, M.M. Qurbonova, L.R. Raupova, M.Q.Abuzalova, D.N.Yo‘ldosheva “Hozirgi o‘zbek tili” (2021), A.B.Pardayev, S.A.Qurbonov “Hozirgi o‘zbek tili” (2021) kabi dasrliklarda o‘zbek tilining mavqei uning tarixi, fonetik, leksik, gramatik, sintaktik tomonlari ochib berilgan.

O‘zbek tiliga yurtboshimiz tomonidan ham alohida e’tibor berilib, bu tilni rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlar ko‘rilib, farmon va qarorlar ta’sis etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-584-son qarori, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni, O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan ta’lim va fanning barcha sohalarida axborot texnologiyalarini joriy etish haqidagi takliflari, hamda mazkur faoliyatga tegishli bo‘lgan boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Uslubshunoslik o‘zbek tilshunosligi tarixida o‘zining keng qamrovliligi, tematik rang-barangligi bilan boshqa til bo‘limlaridan ajralib turadi. Xususan, o‘zbek tilida sifat uslubi va unga doir tadqiqotlarning kamyobliligi, bu turkum

soʻzlarning badiiy matn lingvopoetik xususiyatlariga daxldorligi ishning dolzarbligini belgilab beradi.

Soʻz turkumlarini ham nazariy, ham amaliy asosda oʻrganish necha yillardan buyon davom etib kelayotgan ilmiy ish hisoblanadi. Har bir soʻz turkumi kabi sifat soʻz turkumi ham mustaqil soʻz turkumi sifatida maʼza-tam, rang-tus, belgi, hajm, xususiyat kabi oʻziga xos xususiyatlarni bildirishi bilan boshqa soʻz turkumlaridan ajralib turadi.

Predmetlarning belgisi, hidi, rangi, tusi, shakli, hajm-oʻlchovi, holati, taʼmi, mazasini bildiruvchi mustaqil soʻzlar sifat deyiladi. Bu shuni anglatadiki, sifatlar predmetning belgi-xususiyatlarini turli nuqtai nazardan ifodalashi (anglatishi, koʻrsatishi) mumkin. Hozirgi tilshunoslikda sifatlarning maʼnolari va maʼnoviy (leksik va koʻchma maʼnolari) xususiyatlarini talqin etish bahslidir. Bunga sabab soʻz maʼnolarining oʻzgarishi, yangi maʼnolari hosil boʻlishi hamda undagi maʼnolardan bir yoki bir qanchasi soʻzning kam qoʻllanilishi tufayli arxaiklashishi (eskirishi) hisoblanadi.

Boshqa soʻz turkumlari kabi sifatlarning ham soʻz turkumi sifatidagi xususiyatlari tilshunos olimlar tomonidan bir necha bor oʻrganilgan, tadqiq etilgan va maʼlum bir xulosalarga kelingan. O.Madrahimov, N.Abdurahmonov, Z.Maʼrufov, Gʻ.Abdurahmonov, M.Sodiqova, Sh.Rahmatullayev kabi olimlar sifat soʻz turkumi ustida ilmiy izlanishlar olib borishgan va oʻz qarashlarini kitoblarda yoritib borishgan. Biz oʻz ishimizni yoritishda bu olimlarning qarashlariga murojaat qilamiz.

Bizgacha maʼlum boʻlgan maʼnbalardan shu maʼlum boʻladiki, sifat soʻz turkumiga eʼtibor ancha oldin boshlangan. XX asrning 60-yillaridan boshlab ilmiy-nazariy asoslarda oʻrganila boshlangan. Bu soʻz turkumi boʻyicha bir qancha olimlar ilmiy kuzatishlar olib borishgan. Sifat soʻz turkumi ustida ishlab, oʻzlarining hissalarini qoʻshgan olimlarning ishlariga bir nazar tashlaydigan boʻlsak, N.R.Abdurahmonov oʻz maqolalarida baʼzi juft va jufyt-takror sifatlarning komponentlari hamda juft soʻzlarning fonetik xususiyatlarini bayon

etganlar. N.Abdurahmonov o'zbek tilshunsligida sifatga doir ko'plab ilmiy ma'lumotlar kiritib, bu so'z turkumining morfologik tomonlarini ochib bergan.

Tadqiqot obyekti sifatida sifat-leksemalar, ularning semantik ma'nolari, uslubiy ma'no tovlanishlari, o'zbek va rus tilshunosligida yaratilgan manbalar, o'zbek va rus tilidagi sifat so'z turkumiga oid maqolalar, etimologik lug'atlar, o'zbek badiiy adabiyoti, qisman publistik uslubdagi materiallar, o'zbek folklor manba va materiallari, qisman so'zlashuv nutqiga oid jarayonlar, shu uslubga xos matnlar .

Tadqiqotning predmeti hozirgi o'zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari, sifatlarning emotsional-ekspressivlikni taminlashi.

Tadqiqotning maqsadi rang-tus sifatlarining uslubiy xusiyatlarini ochib berish, sifat leksemalarining ma'no ko'chish (metonomiya, metafora) sabablarini va ularning leksik-semantik, uslubiy, emotsional-ekspressiv vazifalarini o'rganish, uslubiy vazifa bajargan leksemalarning matndagi imkoniyatlarini o'rganish, sifat asosida shakllangan stilistik vositalarni badiiy matnning bo'yoqdorligini oshirishdagi o'rinlarini o'rganish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- sifatning modal formalarining semantikikasini o'rganish;
- sifatlarining semantik-uslubiy xususiyatlari va ularning emotsional-ekspresivlikni ta'minlashdagini o'rnini o'rganish;
- sifatning oksyumoron tarkibida qo'llanilishi va badiiy bo'yoqdorlikni oshirishdagi rolini o'rganish;
- she'riyatdagi antitezaning emotsionalligini ta'minlovchi sifat so'zlarning semasini o'rganish;
- badiiy matnda rang-tus sifatlarining okkazional ma'nolari xususida ma'lumotlar berish;
- rang-tus bildiruvchi sifatlarning tarixiy-tadrijiy talqini, uning xalq hayotida, urf-odatlarida qay darajada ishlatilishi va qanday ma'no ifodalashi, ularning leksik-stilistik xususiyati, majoziy ma'nolari, ekspressiv ma'nolarini tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- sifat soʻz turkumining modal formalarining semantikasi va emotsional-ekspressiv vazifalari;
- sifat maʼno turlarining emotsional-ekspressivlikni taʼminlashi;
- sifatning okkazional maʼnolari va uslubiy xususiyatlari haqida yangi fikrlar, sifat leksemalarining uslubiy jihatlari badiiy matn orqali tahlil qilinishi.

Tadqiqotning asosiy masalalari sifat soʻz turkumining maʼno boyligini koʻrsatish, uning badiiy matnni va inson nutqini naqadar boyitishini koʻrsatish, rang-tus sifatlarining til birliklarida ekspressiv maʼno tashishi va uning xalq hayotida, udumlarida qanday semantik vazifalarni bajarishi oʻrganish hisoblanadi.

Tadqiqotda qoʻllanilgan metodikaning tavsifi:

Dissertatsiyani yozishda ilmiy bilishning zamonaviy usullari, statistik va sintez, qiyoslash usullaridan foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Sifat soʻz turkumining soʻz turkumlari aro ahamiyatini oshirish, bu soʻz turkumidan oʻz nutqiy layoqatini oshirishda foydalanishni oʻrganish, sifatlarining oʻziga xos jihatlari oʻrganish va oʻziga xos jihatlari xususida yangi xulosalar chiqarish, shuningdek, adabiy tilimizni yanada boyishiga, ravnaq topishiga oʻz hissasini qoʻshishga xizmat qiladi. Sifat maʼno turlarini oʻz oʻrnida qoʻllay bilish, uning frazemalar, xalq maqollari, iboralar, tasviriy iboralarda yangidan yangi maʼno ifodalashi, tasviriy vositalardan sifatlarini qoʻllash bilan leksik lisonimizni boyishiga xizmat qilishi natijasida oʻzbek tilida koʻplab imkoniyatlarning mavjudligi va ularning ilmiy xulosalanganligi ilmiy qiymatini oshiradi. Ishda erishilgan ilmiy va amaliy xulosa va natijalardan akademik litsey, kasb-hunar kollejlari hamda oliy oʻquv yurtlarida oʻrganish, maʼruza va muloqot-suhbat darslarini tashkil qilishda qoʻshimcha material sifatida foydalanish mumkin.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Tadqiqot ishining tuzulishi quyidagicha tavsiflanadi: kirish, uch asosiy bob, har bir bobning fasllari, har bir bobning xulosasi, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. O'ZBEK TILIDA SIFAT SO'Z TURKUMINING USLUBIY VA EMOTSIONAL-EKSPRESSIV TADQIQI

1.1. O'zbek tilshunosligida sifat turkumiga oid umumiy tadqiqotlar

Tilshunoslikda sifat so'z turkumiga oid leksemlarning o'rganilishi jihatdan juda qadim davrlarga borib tarqaladi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devon- u lug'atit turk", Mahmud Zamaxshariyrning "Asos-ul balog'a", "Muqaddimat-ul adab", Alisher Navoiyning "Muhokamat-ul lug'atayn" kabi asarlaridayoq sifatning belgi ifodalash xususiyatlari, ularning uslubiy vazifalari, sifat turlarining yuzga keltiradigan tur xil tashbehlar va badiiy san'atlarni yuzaga keltirish xususiyatlari xususida fikr-mulohazalar yuritilgan edi.

XX asrning 20-yillarida o'zbek tili masalalariga bag'ishlangan M.M.Faxriddinovning "Turkcha qoida" (1930), Elbekning "Bitik yo'llari" (1919), Shorasul Zunnunning "O'zbekcha qoida" (1925), Qayum Ramazon, Munavvar Qori, Shorasul Zunnunning "O'zbekcha til saboqligi" (1925) kabi qator darslik va o'quv qo'llanmalar yaratilgan bo'lib, ushbu asarlarda boshqa so'z turkumlari qatori sifat so'z turkumiga oid leksemalar grammatik belgilari haqida salmoqli fikr bildirilgan.

Birinchi o'zbek professori, tilshunosh, adabiyotshunos, davlat arbobi, yozuvchi, shoir, dramaturg kabi yuzlab talant sohibi –Abdurauf Fitratning o'zbek tilshunosligiga, xususan, morfologiyaga oid qarashlari katta ahamiyatga ega. Birinchilardan bo'lib Fitrat o'zbek tili grammatikasini yaratishga kirishgan olim edi. Uning "Sarf" (1925-1930) asarida o'zbek tili morfologiyasi, xususan, sifat so'z turkumi haqida fikr yuritiladi. Bu asarda dastlab sifatlarning tub va yasamaligiga ko'ra ikki guruhga ajratilganligini tushununtirib o'tadi. Fitrat o'zining bu asarida so'z yasovchi qo'shimcha va lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar o'rtasidagi tafovutni keltirib o'tgan.

Fitrat sifat va son turkumlarini ajratmasdan, yaxlit holda o'rganish tarafdori edi. Olimning son turkumiga bergan quyidagi ta'rifi ham dalil bo'loladi: "Sonlar bir narsaning, bir kishining(qandayligini emas), nechanchiligini, qanchaligini ko'rsatsalar ham, so'zlar aro turishi sifatdan ayirmasizdir. Shuning uchun bularni ham sifatlardan sanamoq mumkindir¹.

Fitratning sifatlarning "so'zlar aro turishlari" deganda ularning ikkalasi ham gapda aniqlovchi bo'lib egadan oldin kelishlarini nazarda tutgan bo'lishi mumkin. Lekin o'sha 20-yillardayoq sifat va sonlarni yaxlit tarzda o'rganish, ulardan umumiy belgilar qidirish keskin tanqidga uchragan edi. Masalan, Nazir Hakim "O'zbek tili sarfi to'g'risida" (1925) nomli maqolasida quyidagi fikrlarni ta'kidlagan edi: "Son bilan sifatni taqqoslash xato, chunki sondagi turlar (miqdor, chama, oshirma, bo'lim, sara) va sifatlardagi darajalar (tenglashtirish, ozaytirish, oshirish) son tarkibida uchramaydi².

O'zbek tilshunosligida sifat turkumiga oid ilmiy tadqiqotlar XX asrning 40-yillarining ikkinchi yarmidan vujudga kelgan. Z.Ma'rufov 1947-yilda Sankt-Peterburgda "O'zbek tili sifat darajalari", 1950-yilga kelib G'.Abdurahmonov Samarqandda "Hozirgi o'zbek tilida sifatlarning substantivatsiyasi (otlashishi)", 1955-yilda O.Madrahimovning "O'zbek tilida sifat va yangi yasalgan sifatlar" mavzusidagi nomzodlik ishlari himoya qilingan. 1957-yilda O.Madrahimovning "O'zbek tilida sifat va yangi yasalgan sifatlar masalasiga doir" nomli maqolasi e'lon qilingan edi³.

"Hozirgi zamon o'zbek tili" (1957) nomli tadqiqotda "Sifat" mavzusi yirik tilshunos olim Z.Ma'rufov qalamiga mansub.

Sifat so'z turkumini grammatik va uslubiy jihatdan o'rganishga XX asrning 60-yillarida tilshunos olim M. Sodiqova o'zining "Hozirgi o'zbek tilida sifat" nomli monografiyasi bilan katta hissa qo'shgan. Olima 1963-yilda

¹ Ko'rsatilgan asar. 8-12-bet.

² Фитрат А. Ўзбек тили қоидалари тўғрисида бир тажриба, Сарф, 1-китоб. Тошкент.-Самарқанд: 1930.-56-бет

³ Мадрахимов О. Ўзбек тилида сифат ва янги ясалган сифатлар масаласига доир//ЎзФА ахбороти, ижтимоий фанларсерияси, Тошкент, 1957, 41-47-бетлар.

“O‘zbek tilida rang–tus bildiruvchi sifatlar” mavzusida nomzodlik ishini himoya qilgan. Ikki tomlik “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (1966) va “O‘zbek tili grammatikasi” nomli tadqiqotlarning “Sifat“ mavzularini ochib berdi. Olimaning “Hozirgi o‘zbek tilida sifat” nomli monografiyasi 1974-yilda e‘lon qilingan. Masalan, M.Sodiqova 1966-yilda e‘lon qilingan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” asarida sifatning ma‘no turlarini oltita alohida-alohida guruhlarga bo‘lib chiqadi.

- a) Rang-rus bildiruvchi sifatlar: qizil, yashil, oq, ko‘k;
- b) Shakl bildiruvchi sifatlar: katta, kichik, tor;
- c) Maza-ta‘m bildiruvchi sifatlar; shirin, sho‘r, achchiq;
- d) Shakl bildiruvchi sifatlar: dumaloq, aylana;
- e) Xarakter va xususiyat bildiruvchi sifatlar: yaxshi, a‘lo, ablah, urushqoq;
- f) Holat bildiruvchi sifatlar: kasal, kambag‘al, boy⁴.

Olima o‘zining keyingi izlanishlarida sifatning ma‘no turlarini yanada kengaytirib, ularning miqdorini 8-9 tagacha yetkazgan. Agar M.Sodiqovanning 1974-yilgi monografiyasida sifatlarning ma‘no turlarini 9 taga yetkazgan bo‘lsa, “O‘zbek tili grammatikasi”da (1-tom,1975) bu haqidagi fikrlari yanada aniqlashtirilib berilgan.

O‘tgan asrning 70-90 yillarida o‘zbek tilshunosligida sifat so‘z turkumini o‘rganish yanada chuqurlashdi va ilmiy tus oldi. Endilikda sifat so‘z turkumining ma‘no turlari va uning uslubiy xususiyatlari olimlar tomonidan chuqurlashtirilib o‘rganila boshlandi. Misol uchun, keying o‘ttiz besh yil davomida o‘zbek tilshunosligida tilning grammatik qurulishini, tilimizning lug‘aviy tarkibini o‘rganish sohasida katta yutuqlarni qo‘lga kiritdik desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

M. Xoliyorov ham ilmiy izlanishlar qilib shunday ma‘lumot berib o‘tgan: “shaxs oti yasovchi“ deb yuritilgan affikslar yordamida yasalgan so‘zlar otlarga (shaxs otlariga) emas, sifatlarga xos ma‘no va grammatik xususiyatlarga ega,

⁴Содиқова М. Сифат// Ўзбек тили грамматикаси, икки томлик, 1-том. Тошкент: Фан, 1976, 301

chunki bu tipdagi affikslar, asosan, otlarga (otlashgan boshqa soʻzlarga ham) qoʻshiladi va otdan ot emas, otdan sifat yasaydi. Shuning uchun, bizningcha, ot negizlariga qoʻshilib, yangi maʼnoli soʻz yasovchi –*chi*, –*kor*, –*kash*, –*dor* tipidagi affikslarni sifat yasovchilar, ular yordamida yasalgan soʻzlarni esa yasama sifatlar deb atash lozim boʻladi. *Ishchi*, *kolxozchi*, *paxtakor* kabi yasama sifatning kontekstdan tashqarida ham ot kabi tushunulishini esa substantivatsiya hodisasi deb qarash kerak”⁵.

J.Muxtorov va U.Tursunov tomonidan yaratilgan “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” asarida sifatning leksik va grammatik maʼnosi talqiniga katta etibor berildi. Bu ishda sifatning otlashuvi (substantivatsiyalashuvi) hodisasini oldingi nashr bilan bir biridan farqlashga kirishildi (birinchi nashri-1965; ikkinchi nashri 1975-yilda; uchinchi nashri 1992-yilda). Sifatlarning otlashuvi va otga koʻchishi boshqa-boshqa hodisadir. Bir turkumdagi soʻzning boshqa soʻz turkumiga koʻchishi deganda til taraqqiyoti natijasida bir turkumdan boshqa turkumga oʻtishi tushuniladi. Bunda koʻchayotgan soʻzning grammatik mohiyati, qisman maʼnosi ham oʻzgarishga uchraydi. Sifatlarning otlashuvi ham xuddi shunday hodisa sanaladi. *Qiz*, *oʻgʻil*, *erkak*, *ayol*, *chol*, *kampir*, *kasal* kabi soʻzlar aslida sifat boʻlib, keyinchalik otga koʻchgandir. Bunday soʻzlarning otga koʻchganini yoki koʻchayotganini koʻrsatuvchi belgi ularning sifat soʻz turkumi bilan ifodalangan aniqlovchi olishida koʻrinadi. Masalan: *qari kampir*, *kelishgan yigit*, *chiroyli ayol* kabi. Sifatning otlashuvi esa uning gapda ot bajaradigan sintaktik vazifada kelishidir...”⁶.

S.Usmonovning M.Mirzayev va I.Rasulovlar bilan hamkorlikda yozgan “Oʻzbek tili” nomli asari(1978)da ham sifatlar tahlili ancha ixcham va yorqin tasvirlanib berilgan.

“Hozirgi oʻzbek adabiy tili” (1-qism, 1980) nomli darslik oʻzbek tilshunosligida salmoqli oʻrin egallagan. Ana shu asardagi “sifat” mavzusi yirik

⁵Холийоров М. От негизларидан сўз ясовчи қўшимчалар// ўзбек тили ва адабийоти, 1973, 1-сон, Б-82.

⁶ Турсунов У. Мухторов Ж. Сифат// Турсунов У, Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. ҳозирги ўзбек адабий тили. Қайта ишланган, тўлдирилган учинчи нашри. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. 280-287-бет.

tilshunos olim Azim Hojiyev qalamiga mansub⁷. Bu asarda sifatlarning grammatik xususiyatlarini tahlil etishda oldingi ishlarga nisbatan ancha farqli tomonlari mavjuddir. Eng asosiysi, bu asarda sifatlarning asliy va nisbiy kabi turlarga bo‘linmagan va bunday yo‘l tutilishining sabablari ham ko‘rsatilmagan. Sifatlarda oddiy daraja, ortirma daraja va ozaytirma daraja mavjudligi ta’kidlangan. Ortirma daraja fonetik usul bilan (*dum-dumaloq, yum-yumaloq, ko‘m-ko‘k*), leksik usul bilan (*nihoyatda baland, behad xursand, juda go‘zal*), ozaytirma daraja esa leksik usul bilan (*kattaroq, kichikroq, sarg‘ishroq kabi*) hosil bo‘lishi izohlab berilgan.

Tilshunos olim A. Hamitova 70-80-yillarda turkiy tillarda so‘z ma’nosining kuchaytiruv vositalarini o‘rganish sohasida qator yangi ilmiy ishlarni amalga oshirdi. Olimaning nomzodlik dissertatsiyasi, bir qancha shu mavzudagi ilmiy maqolalar va “Turkiy tillarda so‘z ma’nosining analitik yo‘l bilan kuchaytirilishi” nomli monografiyasi (1984) xuddi shu muammolarni hal etishga bag‘ishlangan edi. Olimaning kuzatishlaridan shu ma’lum bo‘ldiki, o‘zbek tilida *juda, eng, g‘oyat, beqiyos, cheksiz, benihoya, behad, zap, naq, tim, biram, nihoyatda* kabi leksemalar sifat darajalari, singari belgini kuchli, emotsional bo‘yoqdor shaklda ifodalashga xizmat qiladi⁸.

80-yillarda S.G‘iyosov o‘zbek tilidagi subyektiv baho sifatlarning semik tahlilini amalga oshirdi, shu mavzuga oid bir necha ilmiy maqolalar yaratdi⁹. Nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Masalan: S.G‘iyosov “O‘zbek tilida asliy sifatlarning ko‘chma baholash ma’nosi haqida” nomli maqolasida dastlab asliy sifatlarni ikki guruhga ajratdi.

S.G‘iyosov asliy sifatlarni ma’no jihatidan tabiiy (fizik) xususiyatlarni ifodalovchi (*katta tosh, kichik tosh* kabi) va subyektiv baho semalarini beruvchi (*yaxshi, go‘zal, chiroyli, shirin* kabi) ikki katta guruhga ajratadi.

⁷ Hojiyev A. Sifat // III, Asqarov M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi ўzbek adabiy tili, 1-qism. –Toshkent: Ўқтувчи, 1980, 251-258-Бет.

⁸ Хамитов А. Туркий тилларда сўз маъносининг аналитик йўл билан кучайтирилиши. –Тошкент: Фан, 1984, -104 б.

⁹ Гийосов С. Ўзбек тилида аслий сифатларнинг кўчма баҳолаш маъноси ҳақида// Ўзбек тили ва адабийоти, 1982, 4-сон, 51-54-бетлар

O‘zbek tilshunosligida sifat so‘z turkumini o‘rganish bilan bog‘liq har bir ilmiy tadqiqotning o‘ziga xosligi, izlanish usullarining (metod) xilma-xilligi ko‘zga tashlanadi. Yana bir o‘zining ilmiy tadqiqotini sifat mavzusiga bag‘ishlagan tadqiqotchii olim M.G‘anixo‘jayeva o‘zining nomzodlik dissertatsiyasida o‘zbek tilida rang bildiruvchi sifatlarni qiyosiy-tarixiy yo‘nalishda tadqiq etib, ularning rivojlanish dinamikasini, sof turkiy va o‘zlashgan rang bildiruvchi so‘zlar qatlamini aniqlagan. Olimaning tadqiqot ishidagi natijalar shuni ko‘rsatganki, eski o‘zbek tili yozma yodgorliklarida *qizil*, *ko‘k*, *yashil* singari rang bildiruvchi sifatlarni ko‘chma ma‘noda qo‘llanmaydi, substantivatsiyaga uchragan *qora* so‘zi esa eng ko‘p-sakkiz ma‘noda qo‘llanilishi ma‘lum bo‘lgan; rang bildiruvchi leksemalarning tarixiy yodgorliklar tilida qo‘llanish chastotasi(foiz) quyidagicha hisoblangan: *qora*-18,8%, *oq*-15,8%, *qizil*-6,89%, *ko‘k*-3,5%, *yashil*-2,5%, *sariq*-2,5% kabilar.

R.R.Lutfillayeva nomzodlik dissertatsiyasida rus va o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan baynalmilal asosga ega bo‘lgan *aktiv*, *passiv*, *intensive*, *progressive*, *agressiv*, *agrotexnik*, *antonimik*, *sinonimik*, *omonimik*, *internatsional*, *ekspressiv*, *emotsional*, *ratsional*, *funksional* kabi sifatlarning qo‘llanish xususiyatlarini, ularning bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish yo‘llarini va muqobil variantlarini o‘rganar edi.

O‘zbek tilshunosligidagi 90-yillarda nashr etilgan “O‘zbek tilining amaliy grammatikasi” (1992), “O‘zbek tili jadvallarda” (1993) kabi qo‘llanma va darsliklarda sifat turkumiga oid leksemalarning tahlil etishda an‘anadan chekinish hollari deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Misol uchun, “O‘zbek tilining amaliy grammatikasi” nomli asarda sifatlarning qo‘llanish xususiyatlariga alohida e‘tibor berilgan. Ozaytirma va kuchaytirma sifatlarni (*oqish*, *kattagina*, *juda nafis*), bosh qismi takrorlangan sifatlarni (*ko‘m-ko‘k*, *qop-qora*, *yam-yashil*, *kap-katta*) ko‘chma ma‘noli sifatlarni (*tulki odam*, *anor yuz*, *tosh yurak*), asosan, turli uslubiy maqsadlarda qo‘llanilishi ta‘kidlab ko‘rsatilgan¹⁰. “O‘zbek tili”

¹⁰ Abdurahmonov H., Shodmonqulova D., Rafiyev A. O‘zbek tilining amaliy grammatikasi. –Toshkent: O‘qtuvchi, 1992. 142-bet

(1993) nomli darslikda esa sifat haqidagi quyidagi ixcham ma'lumotlar keltiriladi: "Sifat predmetning belgisini bildirib, asliy, nisbiy, ozaytirma va kuchaytirma darajalari bilan xarakterlanadi, gapda esa aniqlovchi vazifasini bajaradi"¹¹.

"Hozirgi o'zbek adabiy tili" nomli darslik qo'llanmasida sifatlarning belgi-xususiyatlari va ularning semantik tasnifiga oid kerakli ma'lumotlar berilgan. Darslikda sifatning umumiy grammatik ma'nosi(UGM) xususida shunday ma'lumotlarni uchratishingiz mumkin.: "Asosan predmetning va shaxsning, qisman harakatning belgisini bildirib darajalanib keluvchi so'zlarga sifat deyiladi": *qizil ko'ylak, jonli efir, ko'k qalam, moviy osmon*.

Boshqa so'z turkumi ham belgi ifodalaydi. Masalan, ravish ham belgi ifodalash xususiyatiga ega, farqi esa ravish harakat va holatning belgisini ifodalaydi. Sifatning belgisining boshqa belgi ifoda etuvchi so'z turkumlaridan farqi uning turg'un va turg'un belgi ifodalashidir. Masalan, *gul- qizil* deganda turg'un(sitatik) belgi, *Gul qizardi* deganda esa o'zgaruvchan(dinamik) belgini ifoda etadi.

Shunday qilib XX asrning 70-90-yillarida o'zbek tilshunosligida sifat so'z turkumiga oid so'zlarning grammatik-semantik xususiyatlarini tadqiq etishda qator ishlar amalga oshirildi.

1.2. Sifat so'z turkumining uslubiyati va uning o'rganilishi

Sifat so'z turkumi ustida olib borilgan tadqiqotlar orasida sifatning uslubiy o'rganilishida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Dissertatsiyamizda sifatning badiiy uslubda ishlatilishiga katta ahamiyat berib o'tganmiz. Shundan ekan, bu dissertatsiyadan foydalanuvchi o'quvchiga uslub aslida nima? Va uning necha xil turi bor ekanligini qisqacha aytib o'tmoqchimiz.

Uslubiyat tilshunoslik fanining bir bo'limi bo'lib, nutq jarayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish

¹¹ Nazarov K., Sayfullayeva R., Ubaydullayeva M. O'zbek tili (ixtisoslik grammatikasi). –Toshkent: O'qituvchi, 1993. -30-bet

qonuniyatlari bilan tanishtiradi. Uslubiyatda uslublar, til vositalarining nutqda qo'llanish yo'llari, fonetik, frazeologik va Grammatik birliklarning qo'llanish xususiyatlari o'rganiladi. Uslubiyat (stilistika)- grekcha “**stylos**” so'zidan olingan bo'lib, suyakdan yasalgan uchli tayoqcha degan ma'noni anglatadi. Stil –uslub so'zining izohli lug'atlarda bir necha ma'nolar berilgan. O'tgan asrning 40-yillarida D.A.Ukashovning tahriri ostida chiqqan “Толковый словарь русского языка” asarlarida stil so'zining 4 xil ma'nosi berilgan (bu 2 tomlik (1981) va 5 tomlik(2006-2008) “O'zbek tilining izohli lug'ati”da ham izohlangan)¹².

Uslubshunoslik fanining o'rganish obyekti haqida turli qarashlar mavjud. Akademik V.V.Vinogradov stilistika bahsida bir-biri bilan uzviy aloqador, lekin vazifalari turlicha bo'lgan uchta tekshirish aspektini farqlash zarur, deb uqtiradi. Shunga ko'ra olim uslubiyatni uchga ajratadi.

1. Tilning vazifaviy uslublarini o'rganuvchi uslubiyat;
2. Turli janrlarning ma'noviy va ekspressiv-uslubiy xarakterlarini hamda og'zaki va yozma nutq orasidagi farqni tekshiruvchi nutq uslubiyati;
3. Adabiy yo'nalishlar, badiiy asar hamda yozuvchi uslubini tadqiq etuvchi badiiy adabiyot uslubiyati¹³.

O'zbek tilshunosligida beshta uslub bor bo'lib, bular: so'zlashuv, badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy uslublardir.

So'zlashuv uslubi. Keng qo'llanadigan uslublardan biri so'zlashuv uslubidir. Bu uslubda ko'pincha turli uslubiy bo'yoqli so'zlar, Grammatik vositalar, tovushlarning tushib qolishi, orttirilishi mumkin: *Obbo, hamma ishni do'nddirasiz-da. Mazza qildik. Ketaqo-o-ol!*

So'zlashuv uslubida gapdagi so'zlar tartibi ancha erkin bo'ladi. Ko'proq sodda gaplar, to'liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi. Oilada, ko'chada, kishilarning fikr almashishida qo'llanuvchi nutq uslubi so'zlashuv uslubi deyiladi.

¹² A.J.Omonturdiyev, Sh.I.Abduraimova., O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati.-Toshkent. 2016. -34-35-betlar

¹³ Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. –М.: 1963. –С.593

Ilmiy uslub. Fan-texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy uslub aniq ma'lumotlar asosda chiqarilgan ilmiy xulosalarga boy bo'lishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi. Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos ilmiy atamalaridan foydalaniladi, bu uslubda so'zlar o'z ma'nosida qo'llaniladi. Qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo'laklar, kirish so'zlar, kirish birikmalar, shuningdek, qo'shma gaplardan ko'proq foydalaniladi. *Yomg'ir – suyuq tomchi holidayda atmosfera yog'ini. Tomchining diametrik 0,5-0,6 mm bo'ladi.*

Rasmiy uslub. Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Bu uslubda ham so'zlar o'z ma'nosida qo'llaniladi, ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ayrim qisqartma so'zlar ishlatiladi, har bir sohaning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi. Rasmiy-idoraviy uslubda ko'pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko'rsatma kabilar esa buyruq gaplardan foydalaniladi. Bu uslubda gap bo'laklarining odatdagi tartibda bo'lishiga rioya qilinadi: *O'z lavozimini suiiste'mol qilgani uchun M. Ahmedovga hayfsan e'lon qilinsin.*

Publitsistik uslub. Tashviqot – targ'ibot ishlarini olib borishda qo'llaniladigan uslub, ya'ni matbuot uslubi ommabop uslub hisoblanadi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so'zlar ko'p qo'llanadi. Nutq ta'sirchan bo'lishi uchun ta'sirchan so'z va birikmalaridan, maqol va hikmatli so'zlardan ham foydalaniladi. Bunday uslubda gap bo'laklari odatdagi tartibda bo'ladi. Kesimlar buyruq va xabar maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi, darak, his-hayajon va ritorik so'roq gaplardan, yoyiq undalmalardan, takroriy so'z va birikmalardan unumli foydalaniladi: *Azamat paxtakorlarimiz mo'l hosil yetishtirish uchun fidokorona mehnat qilishyapti.*

Badiiy uslub (nazm, nasr va dramatik asarlar) badiiy uslubda bo'ladi. Badiiy asar kishiga ma'lumot berish bilan birga, timsollar (obrazlar) vositasida estetik ta'sir ham ko'rsatadi: *O'lkamizda fasllar kelinchagi bo'lmish bahor o'z sepini yoymoqda.* Badiiy asarlar uslubi aralash uslub hisoblanadi. Unda so'zlashuv uslubiga, kitobiy uslublarga xos o'rinlar ham uchraydi.

Ushbu faslda katta e'tibor sifat so'z turkumining uslubiy xususiyatlariga qaratiladi. Sifatning badiiy matn tarkibida uslubiy bo'yoqdorlikni ta'minlash darajasi o'rganiladi. Taniqli tilshunos olim prof. A.G'ulomov o'zbek tilshunosligida morfologik uslubiyat muammolarining ilk tadqiqotsichi sanaladi. A.G'ulomov maktab o'quvchilarining 9-sinflari uchun mo'ljallangan "O'zbek tili darsligi" (1977) va "Stilistika" qismining muallifidir¹⁴. Darslikning bu qismida morfologik uslubiyat, jumladan, sifatlarning uslubiy jihatdan qo'llash usullarini yoritishga ahamiyat qaratgan.

Prof. A. G'ulomov sifatlarning nutq jarayonida qo'llanishida quyidagi ikki holatni alohida qayd etadi.:

- a) Otning aniqlovchi bo'lish holati: *quvnoq qiz, tiniq osmon*;
- b) Kesim bo'lib kelishi: *osmon ko'm-ko'k, osmon tiniq* kabi

Sifatlar bu ikki qo'llanish holatida ham predmetning belgisini bildiradi, lekin bu belgining tasvirlanish xususiyati bir xil emas. Kesim vazifasida kelgan sifat predmetning belgisini yo tasdiqlaydi, yo inkor qiladi. Aniqlovchi vazifasida kelgan sifat esa otdan anglashilgan ma'noni ba'zan toraytiradi: *oq lenta* (lentaning bir turi), bazan ma'no hajmiga ta'sir qilmaydi: *oq sut* (sutning rangiga ko'ra turi yo'q), ba'zan ko'chma ma'nodagi sifatlovchi aniqlovchi uslubiy vazifa bajaradi.: *oppoqqina chaqaloq* kabi. Olim o'zining sifatlarning uslubiy xususiyatlari, sifat darajalari va boshqa forma yasalish imkoniyatlari haqida ilmiy-nazariy qarashlarini "Sifat haqida mulohazalar" nomli maqolasi bilan yanada aniqlashtirdi va to'ldirdi¹⁵.

Prof.R.Qo'ng'irov (1933-1994) o'zbek tilshunosligi tarixida morfologik uslubiyat muammolarining dastlabki yirik tadqiqotchisi hisoblanadi. R.Qo'ng'irov dastlab ilmiy to'plamlardan birida "Sifat stilistikasi" nomli ko'lamdor maqolasi bilan ishtirok etdi¹⁶. Bu maqola sifatning asosiy grammatik va semantik xususiyatini ta'kidlovchi quyidagicha ta'rif bilan boshlanadi: "Sifat

¹⁴ Гуломов А. Стилистика//Гуломов А., Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. Ўзбек тили дарслиги, 9-синф учун. –Тошкент: Ўқувчи, 1977, 28-79-бетлар.

¹⁵ Ko'rsatilgan asar. 39-bet.

¹⁶ Қўнғиров Р. Сифат ситилистикаси// Ўзбек тили стилстикаси ва нутқ маъданияти масалалари(илмий мақолалар тўплами), Самарқанд: СамДУ нашри, 1982, 3-10-бетлар.

ma'lum bir belgini ko'rsatuvchi so'zlar gruppasi tarzida mustaqil, ammo funksiyasi jihatidan boshqa so'z turkum(9 ot va otlashgan so'z)larning ma'lum xususiyatlarini aniqlashtiruvchi, uning ma'nosiga aniqlik kiritishga yordam beruvchi so'zlar hisoblanadi"¹⁷. Shundan keyin olim *magazindan olma sotib oldim* va *magazindan qizil olma sotib oldim* gaplarini o'zaro tafovvt qilib, keyingi gapdagi *qizil* leksemasi harid qilinayotgan narsaning rangini oydinlashtirishga va aniqlashtirishga xizmat qilishini o'qtirgan.

Sifat turkumiiga oid so'zlar publitsistik va badiiy uslubda epitet(sifatlash) sifatida faol qo'llanish xususiyatiga egaligini, sifatlarda sinonimlik (ma'nodoshlik) hodisasini keng tarqalganini ham olim chetda qoldirmagan. Ana shundan kelib chiqib, maqolada sifatning stilistik(uslubiy) kategoriya sifatida talqin qilish mumkin, degan xulosaga kelgan.

Prof. R.Qo'ngirov sifat so'z turkumida biri ikkinchisini qo'llash imkoniyatini tadqiq etish uchun bir necha sinonim(ma'nodosh) sifat leksemalar guruhini tahlil qilish uchun olgan:

a) *Katta, ulug', buyuk, zo'r, ulkan, bahaybat, haybatli, yirik, gigant;*
b) *Oriq, ozg'in, qiltiriq, dirdov, ipiltiriq, romaqijon, log'ar;*
c) *Chiroyli, go'zal, husndor, xusnli, xushro'y, ko'hlik, ko'rkam, barno, suluv, zebo, latofatli, sohibjamol* kabi. Shunisi muhimki, keltirilgan bunday sinonimik so'zlar qatorining har biriga xos sifat leksemalarining vazifaviy uslublarda qo'llanish doirasi, ijobiy yoki salbiy ma'no bo'yog'iga ega ekanligi, qaysi o'rinlarda ularning birining o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin emasligi tadqiqotchi olim tomonidan aniq ko'rsatilib berilgan.

Yuqorida sanab o'tilgan sifatlarning ma'nodoshlik xususiyati faqat leksikologiyada emas grammatikada ham, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, morfologiyada ham o'rganilishi lozimligi aytib o'tilgan. Bundan tashqari R.Qo'ng'irov morfologik uslubiyatga doir ishlarida predmetning belgisini ortiqligini ko'rsatishga xizmat qiluvchi *eng* so'zining *g'oyat, nihoyat, nihoyatda,*

¹⁷ Ko'rsatilgan asar 8-bet.

behad, cheksiz, juda kabi leksemalar bilan vazifadoshlik(ma'nodoshlik) hosil qilish imkoniyatiga ega ekanligini ham ochib berishga harakat qilgan¹⁸.

Maqolaning oxirida olim sifat yasovchi affikslar sinonimiyasi masalasini asosli tarzda tahlil ham qilib bergan. Olimning bunday ilmiy kuzatishlari, o'z-o'zidan morfologik uslubiyat, shu bilan bir qatorda, sifat so'z turkumi uslubiyati masalalarini tadqiq etishga keng yo'l ochganini ham ta'kidlash lozim. Professor R.Qo'ng'irov keyinchalik o'zining sifat so'z turkumi uslubiyatiga doir izlanishlarini kengroq tarzda davom ettirib, o'z mulohazalarini hamkorlikda yaratilgan "O'zbek tili stilistikasi" nomli asariga kiritgan¹⁹. Shu tariqa professor R.Qo'ng'irovni biz sifat so'z turkumi uslubiyati ustida maxsus o'rganishni boshlab bergan olim deyishga haqlimiz.

Prof. B.Yo'ldoshev statistik metod asosida ish olib borib Said Ahmadning birgina "Ufq" trilogiyasi tilida rang-tus sifatlari ishtrok etgan yuzdan ortiq so'z bog'lanmasi mavjudligini aniqlagan, bunday sifatlarga ko'pincha epitet, o'xshatish, metafora tarkibida keladi. *Qizil, yashil, sariq* sifatlari uchragan so'z bog'lamalari eng ko'pchilikni(52,4% ni) tashkil etishini aniqlaganligini qayd etadi²⁰.

A.Abdurahmonov *qizil, oq, qora* sifat so'zlarining Oybek she'riyatida ko'chma ma'noda qo'llanish xususiyatlarini, ya'ni ramziylik ma'nolarini aniqlashga harakat qiladi. Maqolada ta'kidlanishicha, Oybek she'rlarida *qizil bayroq, qizil qon, qizil nur, qizil qo'shin, qizil askar, oppoq dastor, qora quyun, qora yer, qora bo'yoq, qora dud* kabi birikmalar ijtimoiy-siyosiy hayotning turli qirralarini obrazli poetikalashtirishga vosita bo'lgan²¹.

Tilshunos olim S. Karimov esa shoira Zulfiya poetikasida *aziz, oq, ko'k, go'zal* kabi sifatning epitet vazifasini bajarishi, bunda shoiraning poetik

¹⁸Қўнғиров Р. Сифат ситилистикаси// Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маъданияти масалалари. Самарқанд: СамДУ нашри, 1982, 3-10-бетлар

¹⁹ Ко'rsatilgan asar. 6-bet

²⁰ Йўлдошев Б. Саид Аҳмад асарларида ранг билдирувчи сифатлар ва уларнинг функциялари ҳақида// Ўзбек тили грамматикаси, диалектологияси ва лексикологияси масалалари, (илмий мақолалар тўплами), Самарқанд: СамДУ асарлари, янги серия, 319-чиқиши, Самарқанд: СамДУ нашри, 1977. 76-81-бетлар.

²¹ Абдурахмонов А. Қизил, оқ ва қора сўзларининг лексик-семантик хусусиятлари// Ўзбек тили стилистикаси нутқ маъданияти масалалари. (илмий мақолалар тўплами), Самарқанд: СамДУ асарлари, янги серия, 346-чиқиши, Самарқанд: 1978. 27-31-бетлар.

mahorati, individual uslubi haqida o'zining muhim fikrlarini bildiradi. Olimning fikricha, shoira ijod jarayonida so'zga bo'lgan talabni kuchaytiradi. She'rida ishtirok etayotgan sifat leksemalarining yangi ma'nolarini kashf etishga intiladi. Shoiraning keying yillarda yaratilgan she'rlaridag "dilparast she'r" ("Harorat"), "ishqparast qalb" ("O'rik gullaganda"), "sulhparvar ellar", "tinchlik qo'rg'oni" ("Salom sizga, erkparvar ellar"), "jasur qalam" ("Mushoira") kabi qator orginal epitetli birikmalar shoira ijodining va tafakkur kamolotining mevasidir. Olim o'zining bunday epitetli kuzatishlarini keyingi izlanishlarida ham davom ettirgan²².

Tilshunoslikda ko'plab ilmiy ishlar qilgan yana bir olim B.Yoriyev *oppoq, qoqa, qizil, qip-qizil* kabi sifatlarning turli xildagi uslubiy ma'nolarni ifodalashga xizmat qilishini, ular she'rning ta'sirchanligini oshirishda xizmat qiluvchi vosita ekanligini Maqsud Shayxzoda she'riyati misolida yoritib bergan. Eng muhimi sifatlarning okkazional ko'rinishlari (*aqlli qo'lmiz, aqlli qo'limiz, otuvchi qalam, yozuvchi miltiq*) bilan bog'liq uslubiy xususiyatlar tahliliga alohida e'tibor qaratilgan²³.

Professor B.O'rinboyev o'zbek tilida so'zlashuv nutqi uslubi, uning o'ziga xos fonetik, grammatik va uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish sohasida qator ishlarni amalga oshirdi²⁴. Jumladan, olim o'zining navbatdagi ishida sifat so'zlarining so'zlashuv nutqi uslubida epitetlar hosil qilishda keng qo'llanilishini ta'kidlaydi. O'rinboyev o'zining bu ishida sifatlarning ozaytirma, orttirma darajalarini hosil qiluvchi *dum-dumaloq, bus-butun, bo'm-bo'sh, pak-pakana, to'g'ridan-to'g'ri, tim qora, yanada chiroyli, undan ham yashiroq, qoramtir* kabi shakllarning uslubiy imkoniyatlarini yorutuvchi dalillar keltiradi.

O'zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari borasida qilingan eng yaxshi tadqiqotlardan biri tilshunos olim Zafar Pardayevning

²²Каримов С. Зулфия поэзияси тилида епитетлар //Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маъданияти масалалари. (илмий мақолалар тўплами), Самарқанд: СамДУ асарлари, янги серия, 346-чиқиши, Самарқанд: 1978, 58-66-бетлар

²³ Ёрийев Б. Сифатларнинг стилистик хусусиятлари (Мақсуд Шайхзода шеърияти мисолида) // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маъданияти масалалари. (илмий мақолалар тўплами), -Самарқанд: СамДУ нашри, 1980. -56-59-бет.

²⁴ Ўрибоев Б., Ўринбоева Д. Ҳозирги ўзбек тилининг сўзлашув услуби. –Тошкент: Фан, 1991, -160-бет.

“O‘zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari” nomli ilmiy morografiyasidir. Mazkur monografiyada o‘zbek tilshunosligida sifat leksemalarining semantik strukturasi va ularning funksional-uslubiy xususiyatlari keng yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotda tilimizdagi rang-tus, ruhiy holat, ko‘lam me‘yori, xarakter-xususiyat, maza-ta‘m, hid, vazn-og‘irlik, o‘rin va paytga munosabat bildiruvchi sifat leksemalarida ma‘no ko‘chish sabablari aniqlangan, sifat leksemalarida ma‘nodoshlik va ko‘p ma‘nolilik xususiyatlari badiiy matnlardan olingan misollar asosida yoritilgan²⁵.

Akademik litsey talabalari uchun yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida “Sifat va uning uslubiyati”, “Sifat darajalarining uslubiy xususiyatlari”, “Sifat yasovchi qo‘shimchalarning uslubiy xususiyatlari” kabi mavzularni o‘rganishda alohida o‘rin berilgan²⁶.

Umuman olganda, sifat so‘zlarining o‘zaro sinonimiyasi, ularning turli nutq uslublarida farqlanishi, sifat darajalarini hosil qiluvchi shakllarning ma‘no farqlari, nihoyat, badiiy adabiyotdagi epitetlarning sifatlardan ifodalanishi bu turkum so‘zlarning boy uslubiy imkoniyatlarini ochib beradi. Shu bilan birga, sifat leksemalarining uslubiy-semantik xususiyatlari ular birikib kelgan ot va otlashagn so‘zlarning ma‘no nozikliklarini hisobga olgandagina to‘la anglashiladi.

1.3. Sifat so‘z turkumining modal formalarini

O‘zbek tili morfologiyasida boshqa so‘z turkumlari kabi sifat alohida bir o‘rinni egallaydi. Sifat so‘z turkumi o‘zining leksik-gramatik va semantik xususiyatlariga ko‘ra mustaqil so‘z turkumi sifatida ajralgan. Bu (sifat) turkum ustida ko‘plab maqolalar, ilmiy dissertatsiyalar va monografiyalar ham yaratilgan. Bu ishlar ichida, ayniqsa, M.Sodiqovanning monografiyasida sifat so‘z turkumining leksik, gramatik xususiyatlari, uslubiy vazifalari juda yaxshi, ilmiy misollar shaklida ochib berilgan. Keying yillarda sifat semantikasi va

²⁵ Ko‘rsatilgan asar. 128-bet.

²⁶ Ko‘rsatilgan asar. 128-bet

uning stilistikasini o'rganishga katta e'tibor qaratildi. XX asrning 40-50 yillarida bir qator olimlar tomonidan leksik ma'noning komponent srtukturasi haqidagi fikrlar ilgari surildi. G.Heller va J.Markis rang-tus ifoda etuvchi leksemalarning o'rganish chog'ida, ular o'z tadqiqotlarida ma'noning semantik komponentini darajalaydi. O'zbek tilshunosligida esa leksik ma'noni komponentlardan iborat ekanligini dastlab Sh.Rahmatullayev, R.Yunusov, I.Qo'chqortoyevlarning ishlarida ilgari surildi. Uni tadqiq etishga bag'ishlangan yirik hajmdagi adabiyotlar, asarlar maydonga kela boshladi.

Bundan tashqari sifatning ma'no turlari, xususiyatlari, darajalari va uning morfologik xususiyatlari xususida ko'plab ilmiy adabiyotlar yaratilgan. Z.Ma'rufov sifatning qiyosiy darajasi, sifat tarkibi to'g'risida, Sh.Rahmatullayev, I.Abdurahmonovlar va M.Sodiqova sifat turkumiga oid so'zlarning xususiyatlarini misollar bilan ko'rsatishgan, bu ayniqsa, M.Sodiqovaning monografiyasida to'liqroq bayon qilingan.

Yuqorida aytilgan olimlarning fikrlari umumlashtirilgan holda 1975-yilda nashr etilgan "O'zbek tili grammatikasi"ning 1-tomida sifat to'g'risida o'sha davr uchun mukammal bo'lgan ma'lumotlar berilgan. Shu o'rinda U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" nomli darsligida bu so'z turkumiga ham maxsus to'xtalganligini ta'kidlash kerak. Sifat so'z turkumi ustida ko'plab olimlar ilmiy izlanish olib borgan.

M.Xoliyorov "Yasama sifatning otlashishi", F.Ibrohimova sifat boshqaruvi to'g'risida fikr bildirishgan.

Sifatning uslubiy-semantik xususiyatlari A.G'ulomov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, R.Qo'ng'irov, M.Sodiqova, B.O'rinboyev, S.Karimov, B.Yo'doshev, B.Yoriyev, Z.Pardayev kabi olimlarning tadqiqotlarida o'rganilganligi kuzatiladi.

Bu magistrlik dissertatsiyasining birinchi bobining uchinchi rejasi esa sifat so'z turkumining modal shakllari haqida bo'lib, bunda biz sifatlarda modal shakllarning uslubiy semalarini va ularning matndagi ahamiyatini o'rganamiz.

Sifatlarda modal shakllarning erkalash shakli, kichraytirish shakli va boshqa turlari mavjud.

Erkalash shakli, asosan, sifat asosiga *-gina* (*-kina*, *-qina*) affiksini qo‘shish orqali yasaladi. Masalan: *enligina*, *yengilgina*, *oddiygina*, *yaxshigina*, *shiringina*, *kattagina*, *nozikkina*, *yumshoqqina* kabi. Sifatning bu modal shaklini *-gina* yuklamasidan farqlash lozim. Buning farqi esa *-gina* modal shaklining faqat sifat so‘z turkumiga qo‘shilishi va agarda *-gina* yuklama vasifasidagi qo‘shimcha bo‘lsa uning o‘rniga *faqat* yuklamsining bemalol o‘rin almasha olishi bilan ajratib olish mumkin²⁷.

Erkalash shaklida kelgan sifatlar so‘zlovchining belgi orqali narsaga yoki shaxsga ijobiy munosabatda bo‘lishni, erkalash, suyish ma‘nolarini anglatadi. Masalan: *Istarasi issiqqina bo‘lgan bu odamning o‘zbekchalab salomlashganini ko‘rgach, Onaxon hayron qoldi.*(A. Muxtor). *Mirhaydar enkayib qizchasini ko‘tardi, uning oppoqqina, do‘mboqqina, yumshoqqina, lo‘ppigina yuzidan o‘pdi.* (Oybek)²⁸.

Shaxsga va narsaga ijobiy munosabat sifatlarga *-toy* affiksini qo‘shish bilan ham ifodalanadi: *erkatoy*, *shirintoy*, *yoqimtoy* kabi. Masalan: *Shundan keyin Qalandarov... birinchi navbatda Qodirovning erkatoy arzandasi bo‘lib qoldi.* (A.Qahhor). *Mansur suratni qo‘liga olib, unga mehr bilan qarab qoldi: bir- biridan yoqimtoy uch bola beg‘ubor kulib turardi.*(Y. Shukurov).

Yuqorida keltirilib o‘tilgan ma‘lumotlar Qalandar Sapayevning “Hozirgi o‘zbek tili” o‘quv qo‘llanmasidan asoslangan fikirlardir²⁹.

S.Rahimov va B.Umurqulovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘quv qo‘llanmasida esa sifatlarning modal shakllariga boshqacharoq nuqtayi nazar bilan qaralgan. Bu xususda shu jummalarni keltirib o‘tishimiz mumkin: “Sifatlarda darajalardan tashqari belgining ortiq yoki kamlik ma‘nolari ham ifodalanadi. Bu xilda belgi ifodalanishida muayyan belgi boshqa predmet

²⁷ Qalandar Sapayev. Hozirgi o‘zbek tili.//o‘quv qo‘llanma. –Toshkent-2009. -135-bet

²⁸ Ko‘rsatilgan asar. -134-135-bet.

²⁹ Мақсуда Содикова. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти. –Тошкент-1974. - 47-48-бет.

belgisini qiyoslamaydi. Bunday shakllar sifatlarning modal shakllari deb nomlandi”³⁰.

Sifatlarning modal shakllariga quyidagilarni kiritishgan:

- a) Belgining kuchaytiruv shakli
- b) Belgining kamlik shakli
- c) Belgining noaniqlik shakli
- d) Belgining ko‘plik shakli

1. Belgining kuchaytiruv shakli belgining meyordan ortiq ekanligini ifodalovchi shakldir. Belgining ortiqdigi esa quyidagi usulda hosil bo‘ladi:

a) Oddiy darajadagi sifatlarning birinchi bo‘g‘ini olinib, sifatlarning to‘liq shaklining oldidan qo‘yilishi bilan; *dum-dumaloq, yum-yumaloq*. Ikki bo‘g‘inli va undan ko‘p bo‘ginli bo‘lgan(rang sifatlari) sifatlarning birinchi bo‘g‘inining oxirida esa *-m* yoki *-k* harfining qo‘shilishi bilan hosil bo‘lishi kuzatiladi. Masalan: *qip-qizil, -yam-yashil, sap-sariq, qop-qora* kabi.

b) Oddiy darajadagi sifatlardan oldin belgini kuchaytiruvchi so‘zlarning qo‘yilishi bilan hosil bo‘lishi. Masalan: *o‘ta, g‘irt, tim, liq, jiqqa* so‘zlari. *Tim qora, liq to‘la, g‘irt mast, o‘ta pastkash*.

c) oddiy darajadagi sifatlarni takror qo‘llash bilan hosil bo‘ladigan usul: *uzundan-uzun, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ochiqdan–ochiq*. Bunday hollarda esa birinchi kelayotgan sifat asosiga *-dan* qo‘shiladi.

2) belgining kamlik shakli asosan rang bildiruvchi sifatlarda mavjud bo‘lib, bunda belgining odatdagidan miqdori kamligi ko‘rsatiladi. Belgining kamligi morfologik usul bilan hosil bo‘ladi. Belgining kamligi rang bildiruvchi sifatlardga *-sh, ish, -mtir, -imtir, -g‘imtir* qo‘shimchalarini qo‘shish bilan hosil qilinadi: *ko‘kimtir, sarg‘imtir, ko‘kimtir, qizg‘imtir*. Bunday sifatlar emotsional-ekspressivlikni oshirishda (ayniqsa, ortirma darajadagi) xizmat qiladi.

Badiiy adabiyotlarda oshiq mashuqasining chiroyini tavsiflashda uning sochi, yanoqlari, lablarini tasvirlashda ko‘proq ortirma darajadi sifatlardan foydalanadi. Bundan tashqari o‘z mahoratini namoyon etishda ijodkor shu

³⁰ S. Rahimov., B. Umurqulov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. // -Toshkent. -O‘qtuvchi. 2003. 112-bet

ranglar bilan bemalol o‘rin almashina oladigan rang sifatlarini, yoki qimmatbaho duru-javohirlar ma’nosini anglatuvchi so‘zlarni ishlatadi.

Ko‘zing ne balo qaro bo‘libdur

Kim, jong‘a qaro balo bo‘lubdir.

Bu g‘azalda Navoiy oddiy qora so‘zini ishlatmasdan *qaro* leksemasini ishlatadi va bu qoraning juda o‘tkir ekanligi semasini beradi. Oddiygina ko‘z tasviriga bag‘ishlangan bu misrada so‘zlarning jilvasini ko‘rishingiz mumkin bo‘ladi.

3) **belgining noaniqlik shakli** sifatlarning juftlashishi asosida yuzaga keladi: *g‘adir-budir, chala-chula*.

4) **belgining ko‘pligi** sifatlarni takrorlash orqali ham hosil bo‘ladi: *uzun-uzun, katta-katta, o‘g‘ir-og‘ir*.

Belgining ko‘pligini yuzaga keltiruvchi sifat bilan belgining kuchaytiruv shaklini hosil qiluvchi sifatning uslubiy xususiyati ikki xil bo‘ladi. Ikkisi ham kuchaytiruv ma’nosi kabi ko‘rinsa ham, ikkalasi ikki xil uslubiy vazifa bajaradi.

Belgining kuchaytiruv shaklidagi *kap-katta* rostan ham belgining haddan tashqari kattaligi kuzatilsa, belgining ko‘pligini ifoda etuvchi shaklidagi sifatning takrorlanishidan hosil bo‘lgan *katta-katta* sifati esa gapda ifodalanayotgan predmetlarning hajmi katta, lekin hammasi bir xil o‘lchamda emasligini yoki turini ifodalashda uslubiy vazifa bajaradi. Masalan:

1. *Kap-katta yoshdagi odam shunday deb o‘tirsaya?*

2 *Bugungi bo‘lib o‘tadigan bazmimizda ko‘plab katta-katta lavozimdagi odamlar keladi.*

Berilgan ikki gapdagi katta leksemasi ikki xil uslubiy ma’no anglatayapdi. Birinchi gapdagi katta leksemasining kuchaytiruv shakli, haqiqatdan ham yosh darajasining katta ekanligiga ishora bo‘lib kelmoqda. Ikkinchi gapdagi katta leksemasining semasi esa aniqlab kelayotgan predmetining turli xil ko‘rinishlari borligiga ishora shaklida kelmoqda.

Qalandar Sapayevning “Hozirgi o‘zbek tili” o‘quv qo‘llanmasi va S.Rahimov va B.Umurqulov sherikligida yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”

o‘quv qo‘llanmasining sifat so‘z turkumiga bag‘ishlangan mavzusida sifat so‘z turkumining modal formalari ikki xil tarzda ochib berilganini yuqorida keltirib o‘tilgan ma‘lumotlar asosida ko‘rib o‘tdik. Ikki qo‘llanma o‘rtasida farq Qalandar Sapayev o‘z qo‘llanmasida sifat modal formalariga kichraytirish, erkalash, suyish kabi ma‘nolarni beruvchi qo‘shimchalarni misollar asosida isbotlab bergan bo‘lsa, tilshunos S.Rahimov va B.Umurqulovlar yaratgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” qo‘llanmasida sifatning modal formalariga erkalash, kichraytirish ma‘nolarini beruvchi qo‘shimchalar bilan bir qatorda sifat so‘z turkumining daraja ma‘nolarini ham qo‘shib o‘tishgan.

Sifatning modal formalari haqida tilshunos olim Maqsuda Sodiqova o‘z monografiyasida (“Hozirgi o‘zbek tilida sifat”(1974)) shunday ma‘lumotlarni berib o‘tgan: Sifatlardagi modal ma‘nolarini ifoda etishda quyidagilardan foydalaniladi: a) ayrim affikslar b) ko‘makchi so‘zlar³¹.

Modal ma‘no beruvchi affikslar. Bunday affikslar o‘zining ba‘zi bir xususiyati bilan sifat yasovchilardan birmuncha farqlanadi. Modal forma yasovchi affikslar so‘z ma‘nosini tubdan o‘zgartirmaydi, balki unga qo‘shimcha ma‘no ottenkasini beradi. Bunday affikslarning ma‘nolari subektning modal munosabatiga qarab turlicha o‘zgarishi mumkin³².

Modal ma‘nolarni ifoda etishda daraja formalari, kichraytirish-erkalash ma‘nosini beruvchi *-gina, -kina, -qina* affikslari qo‘llanadi. Bu affikslar turli so‘z turkumlari, shu jumladan, sifat so‘z turkumkiga ham qo‘shiladi va o‘zi qo‘shilayotgan so‘zga turli ma‘no ottenkalarini beradi. Masalan: *Ota-onasi faqirgina odamlar...* (Oybek). *Usta qarigina, burni cho‘tirroq, ammo juda so‘zamol, mahmadona kishi* (Oybek).

Bob bo‘yicha xulosa

³¹ Maqsuda Sodiqova. Hozirgi ўzbek tiliida sifat. Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти. –Тошкент-1974. - 47-49-бет.

³² Maqsuda Sodiqova. Hozirgi ўzbek tiliida sifat. Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти. –Тошкент-1974. - 46-бет.

1. Tilshunosligimiz tarixida sifat soʻz turkumi haqidagi ilk tadqiqotlar juda qadim davrlarga borib tarqaladi. Chunonchi, Koshgʻariydan boshlangan bu zanjir halqalari Navoiy davri va undan keyin XX asrning birinchi choragiga kelib, oʻz takomilining yuqori choʻqqisiga koʻtarildi. Bunda Abdurauf Fitratning ,keyinchalik rus sharqshunos olimlarining xizmatlari katta boʻldi.

2. Oʻzbek tilshunosligida sifat soʻz turkumiga oid ilk ilmiy tadqiqot 40-yillarning ikkinchi yarmida vujudga kelgan edi. Z.Maʼrufov 1947-yilda Sankt-Peterburgda “Oʻzbek tilida sifat darajalari”, 1950-yilga kelib Gʻ. Abdurahmonov Samarqandda “Hozirgi oʻzbek tilida sifatlarning substantivatsiyasi (otlashishi)”, 1955-yilda O. Madrahimov “Hozirgi oʻzbek tilida yangi yasalgan sifatlar” mavzusida nomzodlik ishlarini himoya qilgan edi. 1957-yilda O.Madrahimovning “Oʻzbek tilida sifat va yangi yasalgan sifatlar masalasiga doir” nomli maqolasida eʼlon qilingan edi³³.

3. Sifat soʻz turkumi doirasidagi ishlar orasida sifat soʻzlarining semantik-uslubiy xususiyatlarini tadqiq etuvchi ishlar alohida ahamiyat kasb etadi. A.Gʻulomov, R.Qoʻngʻirov kabi olimlar oʻzbek tilida morfologik uslubiyat masalasiga oid ilk dolzarb ishlarni amalga oshirdilar. Bunda olimlarning sifat soʻzlarning uslubiy xususiyatlari borasidagi qarashlari keyinchalik bu mavzuning oʻzbek tilshunoslik ilmida chuqur tomir otib rivojlanishiga turtki boʻldi. B.Yoʻldoshev, A.Abdurahmonov, S.Karimov, B.Yoriyev, M.Mamatov, K.Yusupov, B.Oʻrinboyev, Z.Pardayev kabi tilshunoslarning aynan shu mavzudagi tadqiqotlari yuqoridagi fikrimizning yaqqol dalilidir. Shu oʻrinda U.Tursunov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayevlarning “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” nomli darsligida ushbu soʻz turkumining morfologik, sintaktik va uslubiy tomonlariga alohida eʼtibor berilgan³⁴.

³³ Yandashova Tursunoy. Badiiy matnda sifatlarning uslubiy qoʻllanilishi. dissertatsiya–Toshkent. 2014. 28-bet.

³⁴ Koʻrsatilgan asar. 151-153-bet

4. Magistirlik dissertatsiyasining birinchi bobining oxirgi faslida sifat soʻz turkumining modal formalari va modal shakllari haqida maʼlumotlar berilib, ularning konteksdagi uslubiy vazifalari haqida ham toʻxtalib oʻtiladi.

II BOB. SIFAT ASOSIDA SHAKLLANGAN STILISTIK VOSITALAR

2.1. Oksyumoronning emotsional-ekspressiv xususiyatlari

Tildagi barcha birliklar–fonetik, leksik, frazeologik va grammatik elementlar matnlarda tilning tasviriy vositalari degan umumiy nom ostida qo‘llaniladi. Bulardan tashqari, tilda stilistikaning o‘rganish obyekti hisoblanadigan va qo‘llanishi badiiy matnlarga xos bo‘lgan maxsus ifoda tasvir vositalari ham mavjud.

Badiiy adabiyot tilida stilistik figuralar deb ataluvchi tasviriy vositalarning paydo bo‘lishi badiiy ijod namunalarini bir qadar go‘zal, jarangdor, ta’sirli qilib bayon etish zaruratidan kelib chiqqan . Bobimizning ushbu faslida shunday figuralar tarkibiga kiruvchi oksyumoron va uning yuzaga keltirishda sifat so‘z turkumining roli naqadar o‘rni ekanligini o‘rganib chiqamiz. Darhaqiqat, oksyumoron faqatgina sifat so‘z turkumida emas, boshqa mustaqil so‘z turkumlari o‘rtasida ham yuzga keladi.

She’riyatdagi eng kam uchrovchi, lekin o‘quvchini o‘yga toldirivchi, uni fikrlashga majbur qiluvchi, asarning badiiy qiymatiga husn bag‘ishlovchi oksyumorondir. Oksyumoron antitezaning ko‘rinishiga o‘xshaydi. Bularni farqlash lozim. Antitezaning o‘ziga xos shunday bir ko‘rinishi borki, unda “ikkita so‘z birikma holda bo‘ladi va zid ma’noli so‘zlardan ularning har birining ma’nosi saqlab qolingan yangi bir kontekstual ma’no kelib chiqadi”³⁵. Turli so‘z turkumlaridan yuzaga keluvchi bu stilistik figura tilshunoslikda oksyumoron deb nomlanadi.

Oksyumoronlardan foydalanib o‘z badiiy ijodini boyitgan yozuvchi, shoirlar ishiga nazar soladigan bo‘lsak, oksyumaronlarni yuzga keltirishda ular asosan sifat so‘z turkumidan foydalanishadi. Aynan shu so‘z turkumida bir biriga zid bo‘lgan so‘zlar ko‘pligi, bu misolimizning namunasi bo‘la oladi.

³⁵ Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari . –Samarqand. 1994.47-bet.

J.Lapasovning ta'rifiga ko'ra: "Oksyumaron grekcha o'tkir ma'noli bema'nilik so'zidan olingan bo'lib, u antitezaning bir ko'rinishi hisoblanadi va bir-biriga tamoman zid bo'lgan so'zlar birlashtirilib, yangi bir ma'no keltirib chiqaradi³⁶. Bundan ko'rinib turibdiki, oksyumaron xuddi antitezadek zid ma'noli so'zlarning bir matnda birga kelishi, faqat oksyumaronning antitezadan farqi, oksyumarondagi ikki qarama qarshi so'z birga kelsa, antitezadagi so'zlar bog'langan yoki bog'lovchisiz qo'shma gaplar tarkibida alohida bo'lib qiyos vazifasini ham o'tab keladi.

Bundan tashqari oksyumaron badiiy adabiyot yoki jurnalistikada kutilmagan va yorqin effekt yaratishga imkon beradi. Ko'pincha oksyumoon komik yoki satirik muhit yaratish uchun ishlatiladi. Badiiy adabiyotdan olingan misollar bu uslubiy qurilmaning naqadar buyuk ekanligini ifodalaydi.

Oksyumaron jahon adabiyotida ham o'z o'rnini topgan va ularga biz ko'p duch kelishimiz mumkin. Bularni asosan asarlaning sarlavhasidayoq ko'rishingiz mumkin bo'ladi.

"Issiq qor" (Yu Bondarev)

"Tirik murda" (A. Yashil)

"O'lik jonlar" (N. Gogol)

"Ertaga urush bo'ladi" (B. Vasilevs)

"Abadiyatning oxiri" (A. Azimov)

J.Oruellning mashhur "1984" romanidan iqtibos keltirib, oksyumaronning namunasini keltirib o'tamiz: "Urush-tinchlik. Ozodlik qullikdir" bu yerda disoptik holat shoirning bir-biriga qarama-qarshi so'zlarni birgalikga qo'llashi bilan, yozuvchining g'oyasi to'g'ri va esda qolarli tarzda ochish imkonini bergan. Shuningdek, bunday badiiy texnikaning namunasi mashhur lotin maqolida xizmat qilishi mumkin: "Tinchlikni xohlasangiz, urushga tayyorgarlik ko'ring".

³⁶ Ж. Лапасов. Бадий матн ва лисоний таҳлил. –Тошкент: Ўқувчи, 1995. 42-б

Bundan tashqari oksyumaronlardan kino nomlari, reklamalar, kundalik hayotdagi birliklar, sarlavha nomlari kuchli bir qiyqiriq vazifasini o‘tab beradi.

Oksyumaron uslubiy vosita sifatida adabiyot mumtozlaridan ham foydalanilgan, zamonaviy yozuvchilar ham undan foydalanadilar. Oksyumaron badiiy nutqning emotsionalligini oshirishga, qarama-qarshilikning birligini ochishga imkon beradi. Ko‘pincha adabiy asarlar va filmlar mualliflari sarlavhalarda oksyumaronidan foydalandilar. Bu oksyumaronlarning ko‘pchiligining tarkibida aynan sifat so‘z turkumi borligiga e‘tibor beradigan bo‘lsak. Bu so‘z turkumi oksyumaronning yuzga keltirishidagi asosiy vositadir.

“O‘lik ruhlar” N.V. Gogol, “Tirik yiodgorliklar” I.S.Turgenev, “Tirik jasad” L.N.Tolstoy, “Halol o‘g‘ri” F.M.Dostoevskiy, “ Boy tilanchi” L.N.Martynov, ”Oddiy mo‘jiza” Yevgeniy Shvartskiy o‘zining oksyumaron shaklidagi asar nomlariga nom berishda sifat so‘z turkumidan foydalangan.

Jahaon adabiyoti she‘riyatiga ham nazar tashlaydigan bo‘lsak, oksyumaronning ifoda etishda sifat so‘z turkuning xizmati katta ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Va kun keldi. To‘shakdan turadi

Mazepa, bu zaif kasal,

Bu o‘lik jasad kechagina

Qabr ustida zaif nola.

A.S. Pushkin

O‘zbek she‘riyatida ham oksyumaronga murojatlar anchagina oshib bormoqda, chunki bu stilistik figura she‘rga, badiiy matnga o‘zining go‘zal jozibasini ta‘sir qildirmasdan qo‘ymaydi. Fikrimizning isbotlash maqsadida o‘zbek shoirlari yozuvchilari ijodlariga murojaat qilsak.

Taniqli shoir Erkin Vohidovning sevgi she‘ridagi quyidagi misralarga e‘tibor qaratib, sifatning oksyumaronni yuzga keltirishiga yana bir bor guvoh bo‘lamiz. Bu she‘rda yozuvchi g‘amning shirin so‘zi bilan bog‘lab uning yangi otenkasini o‘quvchiga yetkazib bergan. Demak sevgining har bir g‘ami,

qiyinchiliklari, tashvishlari, hijronlari oshiq uchun uchun shirin bir tuyg‘u ekanligini ushbu oksyumaron orqali ifodalab bergan.

Yuragimda his ettim qanot,
Tilsim kabi ochilur hayot,
Visoldagi damlarim shirin,
Hijrondagi g‘amlarim shirin,
Kulib boqar menga koinot.

Bundan tashqari shoira Mahrabo Karimova o‘zining “eng g‘ozal qarg‘ish” nomli she‘rning sarlavhasidayoq oksyumaronga duch kelamiz. Buni o‘qigan o‘quvchi sarlavdan, qarg‘ishning ham go‘zali bo‘lishi mumkinmi deya hayratga tushadi va she‘rni o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi yanada oshadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, sifat ishtirokida tuzilgan bu birikmali oksyumaron she‘rxonni o‘ziga jalb qilish vazifasini bajarib kelgan. Endi she‘rning matn qismiga to‘xtalsak va go‘zal qarg‘ishning nima ekanligini bilib olsak.

Bir sahroyi ayolning
O‘g‘ilchasi sho‘x ekan.
Undan zarar ko‘rmagan,
Biron kuni yo‘q ekan.
Qozondagi taomin,
Tepib qochib ketarkan,
Meshidagi suvini sochib,
Qochib ketarkan.
Qarg‘ar ekan bolasin,
Qilolmasdan epini.
Qirqib qochganida kir
Yoyadigan ipini:
“hoy, ipimni qirqmagin,
Qalbingga ilm to‘lgur,
Hoy, meshimni teshmagin,
Ka’bada imom bo‘lgur!

Keltirilgan she'riy parchadan ko'rib turibsizki, go'zal qarg'ish birikmasidagi, qarg'ishning aniqlab kelishga xizmat qilgan oksyumaronning she'rxonda ijobiy ta'sir etadi. Go'zal sifati esa qarg'ishning aslida qarg'ish emas duo ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiyaning "Balki" deb nomlanmish she'riga ham e'tibor qaratsak, shoiraning ham oksyumaronga murojaatini va bu oksyumaronni shakllantirishda sifat so'z turkumining ahamiyati katta ekanligini ko'ramiz.

Ko'zingdan chiqmoqqa o'xshash *o'tli nam*,

Ranging siniqishi, lab titrashi sir.

Balki, hisni bo'g'ib, irodangga jim,

Yolvorasan, kuch ber, bo'lmay deb asir?

Shoiraning ko'z yoshlarida ham alam borligini uning *o'tli* so'zini ishlatishidan ham bilsak bo'ladi, shoira turmush o'rtog'idan erta ajralgan va hayot zahmatlarini yolg'iz yenggan, uning ko'z yoshlari oddiygina nam emas, Zulfiya xijron azobida yonganini ham shu so'z orqali bergan bo'lishi mumkin.

Yana bir taniqli shoir Rauf Parfining "Uyg'on , ey malagim" nomli she'rida ham sifatning oksyumaronni yuzaga keltirishidagi xizmatini qayd etib o'tmoqchimiz:

Uyg'on, ey malagim, tur o'ringdan tur.

Otashin muzlarda isinaylik, yur.

Yog'inli daryoda quloch ochaylik,

Bu yerdan ketaylik, faqat ketaylik.

Bu she'rda uchrovchi *otashin muz* oksyumaroni va uni shakllantirgan sifat so'zi bir qarashda nazarga tashlanmaydi, o'quvchi uni sezmay o'qib ketadi. Ammo yana bir bor she'rni tahlil qilganda muzning otashin bo'lmasligini, bu o'rinda shoir mahorat ishlatganini payqashi mumkin. Shu o'rinda Usmon Azimning bir she'rini ham tahlil qilib, o'zbek she'riyatidagi oksyumaronlarni boshqa so'z turkumlari bilan ham yuzaga keltirish mumkinligi eslatib o'tsak.

Kuz bog'lar boshiga ne ish solmadi,

Ana, daraxtlarning so‘ngaklari-cho‘p

Senga aytadigan so‘zim qolmadi.

Senga aytadigan jimliklarim-ko‘p...

Bu she‘riy parchada “*senga aytadigan jimliklarim*” misrasining o‘zida oksyumaronni ko‘rish mumkin. Oksyumaron vazifasidagi bu birikmaning ottenkasi shundan iboratki, jimliklarni aytibku bo‘lmaydi, ammo shoirning jimliklarida ham ma‘no ko‘p, dard ko‘p, ya‘niki u yorga bo‘lgan tuyg‘ularini shu jimlik ostida birlashtirib unga yetkazmoqchi. Oksyumaronning vazifasi she‘rxonni o‘yga toldirib, bir xillik ortidan turli xil ma‘no ottenkalarini o‘ylashga chorlashdir. Har bir she‘rxon esa bu uslubiy figuralar evaziga o‘zi uchun o‘z dunyoqarashiga mos ma‘no tasavvurlarni kashf etadi.

Oksyumaronlarning tashkil topishidagi ikki so‘zlarning ham sifat so‘z turkumidan tashkil topganini ko‘rishingiz mumkin. Masalan: *Halol o‘gri, yovuz mehribon, tanish begona, yaqin begona, oqil buzg‘unchi, aqlli axmoq, aqlli nodon, ikkinchi bilimdon, rost yolg‘on*. Bu misollarni keltirishdan maqsad, sanab o‘tilgan oksyumonlarning ba‘zilarini hozirda Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida ham kuzatamiz.

U yorug‘ dunyoda Tengi yo‘q inson,
qaddrdon yagona , yovuz mehribon...

O‘sha mushtipardan so‘rash lozim bu-
buyuk inson, **buyuk jallod** haqida. ..

uning butun umri jumboqdan iborat,

U ayni adolat, u ayni g‘orat,

U **oqil buzg‘unchi**, u mohir me‘mor-

Inson suyagidan solgan imorat...

Menga juda aziz uning siymosi,

Bir qarasam, yo‘qdek sira qiyosi,

U bir bag‘ri daryo, bir bag‘ritoshdir,

U bir quyosh, Ammo-

Qora quyoshdir!

Asarda o'tgan asrda sho'rolar tuzumi tarixida iz qoldirgan stalinning ziddiyatli shaxs sifatida tutgan o'rni, uning xulq-atvoridagi qusurlarini tasvirlashda oksyumoronlar muhim vosita sifatida ishtirok etgan. Bu oksyumoronlar tarkibidagi sifat so'z turkumining semalari esa, bu vositani yanada ta'sirchanligini, emotsionalligini boyitishga xizmat qilgan.

Sekin shoshish , shoshgan astalik,

nozik kelish, nafis ketish , or,

xasta sog'lik, sog'lom xastalik ,

Men va sendan boshqa kimda bor? (Salim Ashur)

Keltirilgan misolimizda oksyumoronlarning to'rttasida ham sifat so'zi bor. Bu she'rning bandidan ko'rinib turibdiki, oksyumoronlarning stilistik, leksik xususiyatini ochishda, emotsional-ekspressivligini oshirishda, bundan tashqari lisoniy olam manzarasini badiiy matnda aks ettirishda ziddiyat voqelikning muhim o'rinlariga kitobxon e'tiborini qaratish bilan badiiy-estetik ta'sirchanlikni ta'minlaydi va asosan, bunday vositani strukturaviy-sintaktik jihatdan sifat va ot so'z turkumlarining o'zaro aniqlovchi aniqlanmish modeli asosida kelishi adabiyotimiz juda ko'p uchraydi.

2.2.Badiiy asarlarda sifat asosli antitezalar

Grekcha – antithesis so'zidan olingan antiteza, qarama-qarshi qo'yish degan ma'noni bildiradi. Antiteza poetik sintaksisning bir ko'rinishi hisoblanadi. U nutqda ifodalilikni kuchaytirish uchun logik jihatdan qarama-qarshi tushunchalarni, fikr, obraz, predmetlarni va shaxslar xarakterlarini qiyoslash yoki birgina predmet, hodisalarning daraja jihatidan qarama-qarshi holatini tasvirlashdir. Umuman olganda, antiteza mohiyatan qarama-qarshi bo'lgan, lekin bir-biriga umumiy ichki mexanizm yoki ma'no bilan bog'langan tasvirlar yoki hukmlarning kaskin qarama-qarshiligini anglatadi. Badiiy asarlarda antiteza - bu o'qilgan narsaning taassurotini kuchaytiradigan, matnni yorqinroq, esda qolarliloq, jonliroq qiladigan tasvirlar yoki tushunchalarning qarama-qarshi yoki mutlaqo qarama-qarshi xususiyatlarining uyg'unlashuvidir. Bu ikki qarama-

qarshi tushuncha badiiy matnda faqatgina qiyoslashga asoslangandagina antitezani yuzga keltiradi. Tilimizda deyarli bir-biriga zid bo'lgan so'zlar sifatlarda uchraydi. Lekin antitezadagi qiyoslashni yuzga keltiradigan so'zlarning barchasini sifatlardan iborat deb tushunish notog'ri.

Gulim, yaqinroq kel,

Qara, ne savdo,

Bu ajib ishlarni

Dil lavhiga yoz:

Kinga qasr yetmas,

Kinga mol-dunyo,

Menga esa havo

Yetmaydi, xolos.

Tiriklar mudroqda,

O'liklar uyg'oq,

Lola, lolajonim,

Lolaqizg'aldoq!

Buyuk shoir Muhammad Yusufning ushbu she'ridagi qiyoslash antitezaning ajoyib namunasini va uni yana bo'yoqdorligini oshirib berishda xizmat qilagan sifatni sezib turibsiz, faqatki bu yerda sifatlar ot kesim vazifasida kelgan. Ikki misraning har bir qatoridagi so'zlar bir-biriga qarama-qarshi holda turibdi. Buni o'quvchi bir qarashda oksyumronga o'xshatishi mumkin. Ammo shoir shunday mahorat bilan so'z ishlatganki, buning antiteza ekanligi she'rning butun vujudi bilan o'qigan she'rxongina tushunadi. Tiriklarning mudroqliguyi, o'liklarning uyg'oqligidagi ot va sifatlar antitezaning go'zal namunasini yaratib bergan.

O'zbekistin xalq shoiri Erkin Vohidovning "Hadya" she'rining ushbu bandiga ham e'tibor qarating.

Senga bo'lsin *nurli Kunduz,*

Menga bo'lsin *qora tun.*

Barcha gulshan senga bo'lsin,

Bor tikonzorlik menga..

She'ning *nurli kunduz* va *qora tun* birliklarining antitezani yaratishda rang-tus sifati va xususiyat sifati ishtirok etgan. Bu bandda antitezaning sifat ko'rinishidan tashqari otli ko'rinishini ham ko'rishingiz mumkin, aslida. Banddagi gulshan va tikonzorlik so'zlari ham bir-biriga qarama-qarshi so'zlardir faqat bular ot so'z turkumi doirasida.

Antiteza stilistik qurilma, bu tog'ridan to'g'ri qarshi turishdan iborat qarama-qarshi tasvirlar, xususiyatlar yoki harakatlardir. Nutning ifodaliligini oshirish va fikr, his-tuyg'ularni yanada aniqroq yetkazish uchun xizmat qiladigan badiiy vosita. Antitezaning eng oddiy misolarini xalq maqollarida uchratish mumkin.

O'rganish yorug'lik, jaholat esa zulmatdir.

Aqlli o'rgatadi, ahmoq zerikadi.

Do'st yaxsi kunda, dushman yomon kunda bilinadi.

Siz ham yuribsiz-da goh sog', goh mayib,

kambag'al duch kelsa mag'rur, kekkayib.

Boyvachcha oldida eshilib ipday,

Amaldor yo'talsa, darrov enkayib (Iqbol Mirzo)

Zamonaviy o'zbek adabiyotiga ham bu- antiteza, epitet, oksyumaron, allegoriya, polisenditon kabi stilistik figuralar, troplarni uchratish mumkin va ularning ijodida o'xshatish, qiyoslash kabi tasviriy vositalarning eng go'zal namunalariga duch kelishimiz mumkin desak ham mubolag'a bo'lmaydi.

Jahon adabiyoti durdonasi sanalmish "Otello" romanida han antitezaning va boshqa stilistik figuralarning ko'plab go'zal namunalarini o'qishingiz mumkin. Rashk o'tida yongan Otelloning Dezdemoni o'limiga sabab bo'lishini ko'rgan Emiliyaning g'azabdan Otelloga aytgan so'zlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Otello: U yolg'onchi jahannamning qariga ketdi,

Men o'ldirdim!

Emiliya: Shunday esa, u bir malak, siz qora shayton.

Bu yerda antitezani ot soʻz turkumi vujudga keltirgan ammo, bir oʻrinda qora sifat soʻz turkumi aniqlab kelayotgan predmetning sifatini ifodalagan. Yaʼni shaytonning ishi hamisha yomonlikdan iborat boʻlgani uchun unga eng koʻp qora leksemasini ishlatish toʻgʻri boʻladi. Yozuvchu ijod mobaynida bunday oʻxshatishlar va tasvirlashlardan unumli foydalangan.

2.3.Sifatlash badiiy nutqning muhim tasviriy vositalaridan biri

Aslida badiiy asarda qoʻllangan barcha soʻzlar tasviriy vositalardir. Ekspressiv qimmatga ega boʻlmagan soʻzlar ham maxsus ohang yordamida nutqqa emotsionallik bagʻishlashi mumkin: *Otding ,afsus-otding!, afsus!* Kabi.

Oʻzbek tili va uning badiiy uslubi nutqiy ekspresssiyaning juda katta xazinasiga –anʼanaviy troplar sistemasiga ega. Masalan, klassik adabiyotdagi yorni madh etish bilan bogʻliq boʻlgan juda koʻplab oʻxshatishlarni olaylik. Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivligini kuchaytirish uchun soʻzlarning koʻchma maʼnoda ishlatishiga troplar deyiladi. Bu faslimizda bu troplar turkumiga kiruvchi epitet stilistik vositasi va uni yuzaga keltirishda, uning boʻyoqdorligini oshirishda yordam bergan sifat soʻz turkumlarini aniqlaymiz.

Badiiy nutqda qoʻllaniladigan barcha soʻzlar u yoki bu darajada tasviriylikni oshirish vazifasini bajaradi. Chunki har qanday soʻz matnda birikib oʻziga xos maʼno ifodalaydi, voqea-hodisaning taʼsvirini yaratadi. Shuningdek, tilda tasviriylikni vujudga keltiruvchi maxsus vositalar ham mavjud boʻlib, ular fikrni obrazli ifodalash asosida badiiy taʼsirchanlikni kuchaytiradi. Shunday vositalardan sifatlash(epitet)dir. Sifatlash tropning bir turi boʻlib, unga badiiy obrazlikni taʼminlovchi tasviriy vosita sifatida qaralgan³⁷.

Sifatlashlar mohiyatan aniqlovchilarga yaqin boʻlib, aniqlovchilardan emotsional taʼsirchanligi, badiiy nutqqa xosligi jihatidan farqlanadi. M.Mukarramov sifatlash va aniqlovchilarning maʼno va grammatik jihatdan

³⁷ Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. –М., 1961; Стилистика русского языка –МЮБ 1969.Кожина М. И. Стилистика русского языка. –С. 97.

farqlovchi beshta xususiyatini ajratib ko'rsatgan³⁸. A.T.Rubalyo sifatlash tropning metafora va metonomiyaga yaqin bo'lgan turi ekanligini ta'kidlab uni badiiy aniqlovchi deb ataydi³⁹. R.Qo'ng'urov sifatlashning doimiy aniqlovchilardan farqli ravishda ekspressivligi, ko'chma ma'noda ishlatilishi kabi xususiyatlarini ta'kidlab, uni poetik aniqlovchi deb ataydi⁴⁰. Darhaqiqat, sifatlashlar, obrazlilik darajasining kuchliligi, emotsional-ekspressivligi va nihoyat badiiy nutqqa xosligi jihatidan aniqlovchilardan keskin farq qiladi. M.Kojina sifatlashni narsa-hodisani obrazli ifodalovchi, xarakterli xususiyatlarini ta'kidlovchi, ko'proq badiiy nutqda qo'llanib, estetik vazifa bajaruvchi so'z sifatida talqin qiladi⁴¹. Shu nuqtai nazardan badiiy matnlarda uchraydigan sifatlashlarni xarakteriga ko'ra ikki turga ajratish mumkin:

Umumnutq sifatlashlari;

Badiiy sifatlashlar .

Umumnutq sifatlashlarida obrazlilik, ekspressivlik kuchli bo'lmaydi, umumnutq sifatlashlarida narsa, hodisalarning biror tomoni, hammaga ma'lum bo'lgan belgi asosida ko'rsatiladi.

Sifatlashlarning bu turi ham ifodadorlik ko'lami bilan ajralib turadi. Bunday sifatlashlar inson holatini ta'riflash vazifasini bajaradi va badiiy asarlarda bu tipdagi sifatlashlar orqali inson o'y-kechinmalari, narsa hodisaga munosabati kabilar ifodalanadi. Masalan, *xayolidan zo'r-bazo'r haydagan mudhish o'ylar qayta yopirilib kelar, o'rnidan sapchib turib ketardi*. (O. Yoqubov. "Oq qushlar, oppoq qushlar..."). Bu matnda asar personajining holatini ifodalanishi mudhish o'ylar sifatlashi orqali aniq ta'riflangan. Ushbu sifatlash personaj kayfiyatini ko'rsatuvchi, unga bir paytlar sodir bo'lgan allaqanday noxushlikni eslatib turuvchi vosita vazifasini bajargan⁴². Asardagi

³⁸ Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatish. 15-16-b

³⁹ Рубайло А. Т. Художественные средства языка. –М.Б., 1961. С. 46.

⁴⁰ Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. 27-b.

⁴¹ Арнолид И.В. стилистика современного английского языка. –Л., 1973; Долинин К. А. Стилистика французского языка. –Л., 1978 Арнолид И.В. стилистика. С. 78-79

⁴² Botirova M. Badiiy sifatlashlar (epitet)larning lingvistik xususiyatlari. –FTAI. Jild:03. Nashr:08. Oct 2022

ushbu sifatlashni(epitet)ni yuzaga keltirishda va uning ta'sirchanligini oshirishda sifat so'z turkumidan foydalanilgan. Bu birikma tarkibidagi mudhish sifati aniqlab kelayotgan predmetning aytilgan inson hayotida yomon iz qoldirgan o'ylar ekanligini aniqlab kelgan.

Badiiy sifatlashlar ko'pincha individual so'z qo'llanilishining namunasi bo'lib, ifodadagi favquloddalik, yangilik, emotsional-ekspressivlikning kuchayishi uchun imkon yaratadi. Bunday sifatlashlar orqali narsa-hodisa kishi hayolida obrazli gavdalanadi. Badiiy sifatlashlarda ko'pincha ma'no metaforik asosda, yoki o'xshatish-sifatlash asosida vujudga keladi. Badiiy matnlardagi sifatlashlarni sinchiklab kuzatish shunday xulosaga olib keldiki, sifatlashlarning metaforik sifatlash turi ko'proq poetik asarlarga xos bo'lib, nasriy asarlarda bu tur u darajada faol emas. Shu boisdan nasriy matnlarda sifatlashlarning badiiy so'zlar vujudga kelgan ko'rinishlari ma'no xususiyatlari bilan alohida jaralib turadi. Masalan, *Shovvozning so'zlari Shoqosimga bamisoli zaharli qamchi kabi bo'lib tegdi-yu, shartta o'rnidan turib ketdi.*(O.Yoqubov. "Oqqushlar, oppoq qushlar")⁴³. Bu matnda asar personajining holatini ifodalanishi zaharli qamchi sifatlashi orqali aniq ta'riflangan. Ushbu sifatlash personajning kayfiyatini ko'rsatuvchi, unga ayni paytda aytilgan so'z qahramonga naqadar kuchli ta'sir etganini ifodalashga sifat so'z turkumining zaharli so'zidan foydalanilgan. Bu so'z esa qamchi so'zi bilan birikkan holda yangi uslubiy ma'no keltirib chiqargan, o'quvchiga estetik ta'sir ko'rsatgan qamchi so'zi uning qalbiga juda og'ir botgan ma'nosida kelib, uning ekspressivligini ta'minlashga xizmat qilgan zaharli so'zi esa o'sha ta'sir etgan so'zlarning badiiy qahramon ruhiyati, uning qalbiga tasavvur qilib bo'lmas darajada iz qoldirganini anglatgan.

Darhaqiqat, epitetlar obrazlilik darajasining kuchliligi, emotsionalligi va nihoyat, badiiy nutqqa xosligi jihatidan aniqlovchilardan keskin farq qiladi. Shu

⁴³ Botirova M. Badiiy sifatlash(epitet)larning lingvistik xususiyatlari. –FTAI. Jild:03. Nashr:08. Oct 2022

nuqrai nazardan badiiy asarlarda uchraydigan epitetlarni xususiyatiga ko'ra uchga ajratish mumkin.⁴⁴.

1. Odiy epitetlar
2. Tasviriy epitetlar
3. Qiyosiy-epitetlar.

Oddiy epitetlar predmetlarga xos bo'lgan doimiy belgini ifodalaydi, ularning asosiy vazifasi predmetlarga xos, ko'rsatilishi muhim hisoblangan belgini ifodalash, shunga ko'ra ularda obrazlilik kuchli emas. Epitetlarning bu turida narsa-hodisalarning biror tomoni hammaga ma'lum bo'lgan belgi asosida ko'rsatiladi. Shuning uchun bunday epitetlar aniqlovchiga yaqin turadi⁴⁵. Masaalan: *pokiza ayol, serbaraka bog', befayz odam, saxiy amaki* kabi birikmalaridagi epitetlar predmetlardagi hammaga ma'lum belgisini ta'riflab ko'rsatish vazifasini bajaragan. Ko'rinib turibdiki, epitetlarni yuzag keltirishda sifat so'z turkumining roli juda katta. Sifat o'zi aniqlab kelayotgan predmetning belgisini aniqlashda asosiy vazifa bajarib keladi⁴⁶. Epitet keng tasviriy vosita bo'lsa-da, uning asosiy vazifasi, narsa, predmetni, hodisani baholash, asosiy xususiyatini ta'riflashdir. Bu belgi oddiy epitetlar uchun xos bo'lib, ko'pincha atash vazifasini bajarishga qaratilgan bo'ladi.

Epitet oddiy belgi bildirib qolmasdan ta'rif va tavsifni ifodalash uchun ham qo'llaniladiki, odatda bunday epitetlar kuchli emotsiyani qo'zg'atadi, inson kayfiyatiga ta'sir etib, ayni chog'da ekspressiv-emotsionnallikni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Quyidagi matndagi *tizginsiz, parishon* epitelari kuchli emotsiyaga ega bo'lib fikrni badiiy bo'yoqdorligini oshirish uchun imkon yaratgan: *olis safarlarga ketayotganingda Farxod Ramazonovning samaliyotida mizg'ish odati bor edi. Bir gal sira ko'zi ilinmayabdi, dam-badam hayol olib qochadi, tizginsiz, parishon xayollar.* (E.Azam. "Shovqin") Ushbu matnda

⁴⁴ Умуркулов Б. Бадий матнда қийос ва унинг лингвопоетик қиммати . –филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш таййорлаган диссертатсия. –Қарши-2020. -115 б.

⁴⁵ Умуркулов Б. Бадий матнда қийос ва унинг лингвопоетик қиммати . –филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш таййорлаган диссертатсия. –Қарши-2020. -115 б.

⁴⁶ Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари. Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертатсия.-Тошкент-2022. -117-б

qo‘llanilgan epitet oddiy belgi asosida vujudga kelmaganligiga ko‘ra badiiy-bo‘yoqdor va ta’sirchan kuchga ega.

Tasviriy epitetlar nutqqa “pardozi berish”, predmetning harakterli tomonlarini badiiy bo‘yoqdor holda ko‘rsatishi bilan xarakterlanadi. Epitetning bu turi emotsional-obrazlilikning kuchlilik bilan farqlanadi. Jumladan badiiy qahramonlarning ruhiy holatini, ichki kechinmalarini ifodalashda badiiy matnlarda tasviriy epitetlardan ko‘p foydalaniladi. Masalan: *Bir lahza shu manzaraga ma’lum boqib turgan Bolta Mardon otining sag‘irisiga achchiq qamchi soldi.* (E. Azam. “Yozuvchi”).

Keltirilgan matnda achchiq qamchi birikmasi tarkibida achchiq so‘zi epitet bo‘lib, aslida sifatlanmishning belgisi emas, achchiq so‘zi nominativ ma’noda predmetning ta’mi-mazasini bildirish uchun qo‘llaniladi. Bu matnda esa achchiq sifati predmetning ta’mi yoki mazasi haqida emas, o‘ziga xos ifodaga ega ekanligi bilan xarakterlanadi.

Epitetning ham boshqa tasviriy vositalar kabi badiiy-bo‘yoqdorligi, emotsion-ekspressivlikni kuchaytirishi qanday vujudga kelishi bilan bog‘liq. V.P.Grigoriev epitetlarning ko‘pchiligi hosil bo‘lishiga ko‘ra yangiligini, yangi epitetlar esa borliqni idrok etishni chuqurlashtirishini alohida qayd etadi⁴⁷.

Qiyos epitetlar epitetning narsa, hodisalarni, obrazli idrok etilishi natijasida vujudga keladigan ko‘rinishidir. M.Mirtojiyev epitetning nutqiy hodisa ekanligini e’tirof etib, so‘zlar mavjud leksik ma’nosining bir semasi bilan voqealanganda, biror belgi o‘xshashligiga ko‘ra xosila ma’no yuzaga kelganda, epitet xosil bo‘lishini ta’kidlaydi⁴⁸.

Qiyos epitetlar tarkibidagi epitet vazifasidagi so‘z boshqa narsa-hodisalarga qiyoslanishi natijasida epitet hosil qilingan holatlar matnlarda ko‘p uchraydi va bu jarayonda, asosan, epitet vazifasidagi so‘zning ma’nosi ko‘chganligi kuzatiladi. Masalan, *Bir chaqirimcha yursa, o‘ng tomondagi kumush yaproqli jiydalarga ko‘zim tushdi-yu, dilim yayrab ketdi.* (O‘.Hoshimov.

⁴⁷ Григорьев В. П. Поэтика слова. –М.,1979. –С. 162.

⁴⁸ Mirtojiyev M. Ko‘rsatilgan asar. 77-b.

“Tushda kechgan umrlar”). Badiiy matnlarda *oltin*, *kumush*, *marmar* soʻzlarining rang belgisini ifodalashiga koʻra epitet sifatida qoʻllanilishi juda faol boʻlib, kumush yaproq birikmasida ham epitet uchun asos yaproqning rangiga koʻra kumushga qiyoslanishidir⁴⁹.

Epitetning eng yorqin namunasi Maqsud Shayxzodaning ijodida ham uchratish mumkin.

Qoʻllar bor – muloyim, gʻoyat, shafqatli,

Qoʻllar bor - ayovsiz, yovuz, shiddatli.

Qoʻllar bor – ishyoqmas, lapashang, tanbal,

Qoʻllar bor – tezligi bilinar dangal.

Xurshid Davronning ham “Baxtsizlil” nomli sheʼrida ham epitetning namunasini koʻrish mumkin:

Uyga qaytdi yarim kechada,

Yonar edi daxlizda chiroq.

Uxlar edi xotini...Biroq,

Erkak alam tuydi ichida.

Keyin borib qozonga boqdi,

Boʻm-boʻsh edi *sovuq qozon* ham.

Katta uyda chiroqni yoqdi,

Ammo tuydi ichida alam.

Sheʼrning davomini oʻqib shuni tushundikki, yigitning rafiqasining unga mehrsizligi va eʼtiborsizligidan qiynalganini, ammo yigit bundan koʻra oʻz farzandlariga boʻlgan muhabbati kuchli ekanligi his qiladi. Ayol kishining erkakga nisbatan bunday harakatda boʻlishini *sovuq munosabat* tipida beramiz. Shoir oʻxshatishning bu usulini qozon leksemasiga ham qoʻshgan. Ayolda ham erkakga nisbatan hech qanday his-tuygʻularga ega emasligi *sovuq* leksemasi bilan berilgan boʻlsa, ovqati yoʻq qozon ham *sovuq* leksemasi orqali shunday maʼno ottenkasini bergan.

⁴⁹ Умуркулов Б. Бадий матнда қийос ва унинг лингвопоестикқиммати. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация .- Қарши-2020. 119-б.

Ko‘rib turganingizdek epitetning nazmda ham, nasrda ham parallel tarzda ishlatilishiga guvoh bo‘ldik. O‘zbek adabiyotining eng yorqin namunalaridan to dostonlari, ertaklarigacha epitetlarga murojat qilinadi.

Bob bo‘yicha xulosa

O‘zbek tili va uning badiiy uslubi nutqiy ekspressiyaning juda katta xazinasiga - an’anaviy troplar sistemasiga ega. Masalan, klassik adabiyotdagi yorni madh qilish bilan bog‘liq ko‘plab o‘xshatishlarni ko‘rib o‘tdik. Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivligini kuchaytirish uchun so‘zlarni ko‘chma ma’noda ishlatishga troplar deyiladi. Ishimizning ushbu faslida biz troplarning epitet sanalmish qismiga to‘xtaib, uni oydinlatishga harakat qildik.

Badiiy adabiyot tilida stilistik figura deb ataluvchi tasviriy vositalarning badiiy ijod namunalarini bir qadar go‘zal, jarangdor ta’sirli qilib bayon etish zaruratidan kelib chiqqan. Uslubiy figuralar, asosan, poetik asarlar uchun xarakterli sanaladi. Yuqoridagi sanalganlardan antiteza va oksyumaronning semantik tamonlari va ularni she’r yoki asardagi ma’no tomonlarni yanada yoritish va o‘quvchiga yetkazishdagi o‘rinlari haqida to‘xtaldik.

Sifat so‘z turkumi badiiy adabiyotda ko‘chimlar, tasviriy ifodalar, uslubiy bo‘yoqdorligini oshirishda xizmat qiladigan muhim so‘z turkumi sanaladi. O‘zbek badiiy nasrining lingvo-uslubiy shakllanishini o‘rganish, lingvistik va badiiy tasvir vositalarining nasriy nutqdagi badiiy estetik mohiyatini tahlil qilishda sifat so‘z turkumining o‘rni katta ekanligini ko‘rib o‘tishimiz mumkin.

Bu so‘z turkumidan tasviriy vositalar va troplarni yuzaga keltirishda, yoki yuzaga keltirilgan bu stilistik vositalarni yanada ta’sirchanligini oshirishda sifat so‘z turkumiga nisbatan murojaatlarning ko‘pligini yozuvchi va shoirlarimizning ijod namunalaridan ham ko‘rib o‘tdik.

III BOB. O‘ZBEK TILIDA RANG BILDIRUVCHI SIFAT LEKSEMALARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI

3.1 Badiiy matnda rang-tus sifatlarining uslubiy voqelanishi

Sifat so‘z turkumi va ulardagi rang-tus bildiruvchi so‘zlarning turli ko‘rinishlari, ma‘no tovlanishlari, badiiy va ilmiy asarlar tilidagi muqobillari xususida bir qator ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Rang ifodalovchi sifatlar badiiy matnda, asosan, qahramonlar holati, ruhiy kechinmalari va his-tuyg‘ularini ifoda etish uchun qo‘llaniladi.

O‘zbek tilida sifat leksemalarining, xususan, rang-tus bildiruvchi sifat leksemalarining uslubiy vosita sifatida poetik nutqda qo‘llanish imkoniyatlari, turli ma‘no nozikliklarini ifodalash uchun xizmat qilishi, qo‘llanish darajasi, semantik strukturasi hozirga qadar tilshunoslikda maxsus o‘rganilgan emas. Uslubiyat bo‘yicha yaratilgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarda ham bu haqda ham aniq ma‘lumotlarni uchratmaymiz⁵⁰.

Badiiy matnda rang leksemalari turli xil uslubiy vazifani bajarib keladi. Har bir inson undan o‘ziga xos ma‘no chiqarib oladi. Bu esa insonning dunyoqarashidan kelib chiqqan bo‘ladi. Ishimizning mazkur faslida aynan rang-tus sifatlarining (leksemalarining) uslubiy ma‘no qirralari haqida so‘z boradi. Bunda bir qancha o‘zbek va jahon adabiyoti ijodkorlari asarlaridan (ko‘proq she‘riy asarlardan) misollar keltirib, fikrlarimizni isbotlashga harakat qilmiz.

Bundan tashqari ranglarning shunday uslubiy xususiyatlari mavjudki, she‘riyatda rang bilan bo‘liq ramziy obrazlar yaratish, ularda hayotimizning barcha talotumlarini, zamondoshlar qalbida, ongida charx urib yurgan nozik hamda ziddiyatli kechinmalarni, o‘ylarini aniq, obrazlar sifatida shakllantirib, she‘rxonga taqdim etish, deyarli, barcha shoirlarimizga xos xususiyatdir.

She‘riyatni ramzsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, bu ayni haqiqat. Chunki she‘r ramz, majoz va badiiy ko‘chimlar bilan jozibali, ular bilan tirik hamda navqirondir. Shu ma‘noda o‘zbek she‘riyatiga nazar tashlasak, har bir ijodkor

⁵⁰ Qo‘ng‘urov R. Sifat stilistikasi // Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. –Toshkent: O‘qtuvchi, 1983, 109-113-betlar; Qilichbekov E. O‘zbek tilining amaliy stilistikasi (grammatika). –Toshkent: O‘qtuvchi, 1992. -160-bet

poeziya maydoniga yangi ramzlar, ko‘hlik majozlar va betakror ko‘chimlar bilan kirib kelganini ko‘rishimiz mumkin.

Nafaqat she‘rlarda va badiiy matnda balki tasvirdagi ranglarni ham ramziy ma‘nolari his qilishimiz mumkin. Bunga bir misol tariqasida bayroqlarda tasvirlanadigan ranglarga e‘tibor qaratishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasidagi bayroq tasviridagi ranglar ham azal-azaldan biz uchun muqaddas sanalgan ranglardan foydalanilgan holda tasvirlangan. Oq rangning muqaddasligi, millatimizning beg‘ubor orzulari, pokligi, ezgu amallari namoyon etgan rangdir. Qizil rang xalqimizning tarixi, jo‘shqinligi va qon rangi sanalgani sababli tiriklik ramzi sifatida ham kelgan. Yashil tabiat manzarasi, yurtimizning boyligi ramzi sifatida qaraladi. Ko‘k rang moviy osmon, tinch hayot tarzi, bu tinchlik ortida jasur xalqimizning mardona kurashgani sababli erishgan yutuqlari ham tasavvur etish mumkin.

E‘tibor berilsa, ranglar jilosi juda qadim zamonlardanoq ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, xalqlarning o‘ziga xos turmush tarzi, urf –odat va madaniyatini mukammal darajada aks ettirgan. Eng qadimgi bitiktoshlardan tortib to bugungi kungacha ranglar tasviridagi ajib sirlilikning inson ruhiyatiga ta‘siri ijodkorlar tomonidan badiiy tadqiq qilib kelingan mumtoz adabiyotimizning ranglar tasviriga munosabatini bevosita tasavvuf ta‘limotiga bog‘lab o‘rganish joiz. Shayx Najmiddin Kubroning yetti xil rangni yetti kun xislati bilan talqin etganligi bizga shunday deyishga to‘la asos beradi. Badiiy adabiyotda ranglarning kitobxonga ta‘sir xususiyatidan A.Navoiyga qadar ham bir qancha ijodkorlarning ga‘zal, ruboiy, tuyuqlarida kuzatamiz. Har bir rang mutaffakir asarlarida ma‘lum bir tuyg‘u, kechinma, fikr ifodalashda goh ochiq, goh ramziy mazmun kasb etgan. Ishimizning ushbu bobida ranglar haqida ular bildirgan ma‘no va ularning adabiyotda, hayotimizda tutgan o‘rni haqida ma‘lumot berib o‘tamiz.

Ma‘lumki, o‘zbek adabiyotida yozuvchi va shoirlar o‘z ijod namunalarini ranglar orqali bo‘yoqdor holatga keltirishadi. O‘zbek tilida *oq, qora, qizil, ko‘k, sariq, zangori* kabi bir qator sifat leksemalari predmetning rang-tusini

ifodalaydi. Rang-tus bildiruvchi sifatlarning har biri o'ziga xos semantik strukturasi va o'ziga xos uslubiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularning uslubiy imkoniyatlari, okkazonal semalarni ifodalash xususiyati nutq jarayonida yuzaga keladi.

Ushbu fikrimizni isbotlash maqsadida Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasida qisqacha parchani keltirib o'tmoqchimiz: "Ufq qorayib-qorayib keldi, qop-qora bulutlar ko'pirib-ko'pirib toshdi, bulutlar yoyilib-yoyilib keldi" bir qarashda oddiygina tabiat manzarasi berilganday tuyuladi, aslida parchada Qimmat momoning, Oymomoga farzandsizligini butun qishloq ayollari oldida, yuziga solib aytgan gapidan so'ng, uyiga yugurib ketayotgan qahramonning ruhiy holati bilan butun detalini yonma-yon qo'yadi, bu yerda bulut detali qahramonning ruhiy kechinmalarini to'la qonli ochib berishga xizmat qilgan.

O'z fikrimizni yanada isbotlash maqsadida o'zbek durdona asarlaridan biri sanalgan Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi ushbu parchaga e'tiborimizni qaratsak. Roman nihoyasida (epilogda) bosh qahramonlardan biri Otabekning keyingi taqdiri haqida xabar bergan yozuvchi Yusufbek Xojining Qanoatshohdan xat olganini, xatda Otabekning rus bosqinchilari bilan bo'lgan muxorabada shahid bo'lganini qayd etar ekan, romanni bunday yakunlaydi. "Shundan keyin Yusufbek Xoji buni elga oshkor qilib, elga osh berdi. O'zbekoyim qora kiyib, aza ochdi." Bu o'rindagi rang-tus sifati bo'lgan "qora" so'zi otga ko'chib, muayyan bir musibatni- xalq o'rtasida biror yaqin kishisi vafot etganidan, a'zani ma'lum etib, qora kiyim kiyishga ishora etyapdi. Bu udum bugungi kunda bir qator hududlarda ham saqlanib qolgan.

Birgina Shekispirning "Otello" drammasida Otelloning Dezdemonaga bilan bo'lgan suhbatidagi Otelloning "Men qoramanni?" jumlasining Dezdemonaga qarata aytilishi va bu jumladagi ishlatilgan rang komponentining ma'no vazifasini har kim o'z dunyoqarashicha tushunishi mumkin. Bu rang leksemasining oddiy inson tashqi ko'rinishi sifatida qabul qilish bu badiiy mahoratning torligidir. Bu jumladagi rang leksemasi inson taqdiri, inson xatti-

harakatlari yoki inson ichki tuyg'ularini ifodlab kelayotgan bo'lishi mumkin. O'z fikrimizni ham aytib o'tishni joiz topdik. Otelloning bu gapidagi qora leksemasining semasi Otelloning Dezdemonday go'zal, nozikkina, tarbiyali va ichki dunyosi beg'ubor bo'lgan qizga nisbatan o'zini teng ko'rolmay aytgan jumlasidir. Bu rang "o'zining yomon shaxs, unga o'zini loyiq ko'rmayotganlik" ma'nosida kelgandir.

Endilikda rang-tus sifatleri orasida badiiy ijodda eng faol leksemalardan bo'lmish oq va qora sifat leksemalari xususida to'xtamoqchimiz. *Qora* sifat leksemasi nutqda faqat predmetning rangini ko'rsatish maqsadida qo'llanganda, emotsional-ekspressivlikdan xoli bo'ladi, uning vazifasi rang to'g'risida xabar, ma'lumot berish bilangina cheklanadi. Nafaqat qora sifat leksemasi, balki barcha rang-tus sifatlariga ham xuddi shunday fikrni aytishimiz mumkin. Masalan qora osmon, oq sut, shirin qovun kabi birikmalar tarkibida qo'llaniluvchi sifat leksemalarida biz hech qanday uslubiy ma'no xususiyatlarini ko'rolmaymiz. Chunki bunday birliklardagi sifat leksemalari uslubiy bo'yoqdorlikdan holi hisoblanadi. Biroq bunday birikmalar tarkibidagi sifat leksemalaridan keyin keladigan hokim bo'lakdagi so'z o'zgarishga yuz tutsa, uslubiy ma'no kasb etishi mumkin. Masalan: *qora taqdir, shirin farzand, oq ko'ngil*.

Qora leksemasi so'zlovchi yoki yozuvchi nutqi qaratilgan shaxsga bo'lgan munosabati nuqtai nazaridan matnga bog'liq holda ijobiy yoki salbiy ekspressivlikni ifodalashi mumkin. Bu leksema inson organizmining yuqori qismida joylashgan a'zolar (soch, qosh, ko'z)ni tasvirlash maqsadida qo'llanganda ishlatilayotgan rang semasiga ijobiylik semasini ko'proq kiritgan bo'ladi.

Qaro qoshing, qalam qoshing. Qiyiq qarilma qoshing qiz //Qilib qatlima qasd qayrab, qilich qotil qaroshing qiz (E.Vohidov). Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin// Ko'ngluma har birining dard-u balosinmu deyin. (A.Navoiy). keltirilgan misollarda mualliflarning o'zlari tasvirlayotgan kishilarga bo'lgan ijobiy munosabati ularga tegishli bo'lgan a'zolarining belgilarini

sifatlashlar orqali yuqori baholarda baholashmoqdalar. Mumtoz adabiyotimizda bunday tasvirlash usullari aynan oshiqning ma'shuqasiga nisbatan ishlatiladi. Demak, yuqoriadagi tasvirlarda qora leksemasi sifatlashdan tashqari muallifning mehr-muhabbatini, kayfiyatini ham ma'lum darajada ifodalab kelmoqda. Umuman olganda, *qosh*, *ko'z*, *soch* a'zolariga nisbatan *qora* leksemasining ishlatilishi epitet sifatida qo'llanganda ijobiy munosabat semasi ma'lum darajada aks etadi. Quyidagi keltirilgan misolda esa bu leksemaga nisbatan boshqacha ma'no munosabati aks etganini ko'rishimiz mumkin. *O'tmishsiz, kechmishsiz, manglayi qaro, Yoqavayron bo'lgan odamlar aro* (Sh. Rahmon). *Ishon yurak oqdir, qarodir taqdir* (U. Azim).

Yuqorida keltirib o'tgan misollarimizda qora leksemasi o'zining uslubiy xususiyatlarini namoyon etgan. Taqdirning qoraligi bu hayotning beshafqat imtihonlari uni ayovsiz sinovlardan o'tkazib kelayotganligini ifodalagan.

Z.Pardayev e'tirof etganidek, *qora* sifat leksemalarining uslubiy ma'no qirralari benihoya ko'pdir. Shuningdek, tilimizda bu so'z ifodalagan simvolik ma'noni boshqa sifat leksemalari ham ifodalashi mumkin. Masalan, o'zbek tilida faqat qora sifat leksemasigina emas, balki ko'k leksemasi ham ramziy motam ma'nosini anglatgan. Bunga misol qilib, Usmon Azimning quyidagi misralarini keltirishimiz mumkin: *Sevgimiz o'ldimi? libosingiz ko'k, //Ko'nglingiz begulxan, ko'zingiz –becho'g'.*

Shunindek, *qora* sifat leksemasi she'riyatda *oq* sifat leksemasi bilan qarshilantirilgani holda, keng uslubiy ma'nolarda qo'llaniladi. Bu fikrimizni dallilash maqsadida Azim Suyunning "Oq va Qora" she'rini misol tariqasida keltirib o'tmoqchimiz.

Ko'zing qaro sening, qoshlaring qaro,
Yuzlaring oq sening, kulishlaring oq,
Qo'lingdagi ta'na toshlaring qaro,
Menga g'amgin boqib turishlaring oq.
Unutishing-qaro, hijroning-qaro,
Sog'inching oppoqdir, xatlaring-oppoq.

*Qarodir yurganing o'ch –mehr aro,
Menga tashlab ketgan dardlaring oppoq.
Shommi, yo saharmi – vaqtimdir qaro,
Sen deb to'kayotgan yoshlarim oppoq.
Sening ham, mening ham baxtimdir qaro,
O'ttiz to'rt yoshingda sochlaring oppoq.
Ishon yurak oqdir, qarodir taqdir,
Oq-qora bo'yoqlar bizning bog'larda.
Men million bo'yoqni bilardim, axir,
Ikkimiz baxtiyor bo'lgan chog'larda.*

She'rda ko'rinib turibdiki, ikki leksema (qora va oq) leksemasi bir biriga qarama qarshi tarzda qo'llangan.

Zafar Pardayev o'zining ilmiy tadqiqotlarida shuni ham kiritib o'tadiki, muallifning o'zi tasvirlayotgan kishi harakteridagi odob-axloq normalariga mos kelmaydigan jihatlar–munofiqlik, g'alamislik, g'iybatchilik, ochko'zlik, berahmlik singari sifatlarni ko'rsatishda aynan qora qanga murojat qilinadi. Bunday vaziyatlarda qora sifat leksemasi salbiy ma'no kasb etgan bo'ladi. *Qora* leksemasi bu o'rinda yuqorida qayd etilgan salbiy belgilarni o'zida mujjassamlashtirgan va matnga bog'liq holda ma'no anglatish doirasini kengaytirgan. Umuman, *qora* leksemasi ana shu xususiyatiga ko'ra ich so'zi bilan birikib, tilimizda “yomon niyatli, boshqalarga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan” ma'nosini ifodalovchi *ichi qora* frazemasi sifatida qat'iylashib qolgan⁵¹. Zafar Pardayevning “O'zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari” nomli ilmiy monografiyasida *qora* leksemasining yana tilimizda quyidagi okkazzional semalarni ifodalashi mumkinligi e'tirof etilgan: motam, qayg'u, kun, kunning ma'lum vaqti, yorug'lik-qorong'ilik darajasi kabi.

⁵¹ Pardayev Z. O'zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari.-Samarqand: SamDU nashri, 2007. 26-44 betlar

Tadqiqotlarda olim *qora* leksemasining yigirmaga yaqin semasi xususida fikr bildirib o'tilgan⁵².

Bu rang bir qator salbiy ma'nosi bilan birga ijobiy ma'no ifodalash xususiyatiga ham egadir. A.N.Kononov *qora* sifat leksemasining ma'nolarini tatqiq etib, bu leksema bilan "katta", "yirik", "muhtasham", "ulug'", "qudratli", "kuchli", "pokiza", "musaffo", "quruqlik", "yer", "zulmat ko'ki", "shimol" kabi semalar ifodalanganligi ko'plab misollar yordamida izohlab bergan edi. Ilmiy tadqiqotlarning guvohlik berishicha, turkiy xalqlarda bir zamonlar qora rangli bayroqlar bo'lgan. Jumladan, adabiyotshunos olim I. Haqqul Ergash Jumanbubul kuylagan "Dalli" dostonidagi bir baytga shunga ishora borligiga asoslanib, "qora bosh tug'" (qora rangli bayroq)-boshini o'limga tikkan mard jasur o'g'lonlar, jangchilar bayrog'ini bildirib, bu o'rinda eroniylar bayrog'iga tiklangan turkiy tug'dir" degan xulosani bayon etgan⁵³. Umuman Ibrohim Haqqulning qora rang talqiniga doir kuzatishlari shundan dalolat beradiki, "turkiy qavmlar islomgacha va islomdan keyin ham qora rangdan salbiy ma'no holat va hodisalarni xarakterlashda nechog'lik keng foydalanishgan bo'lmasin haq ahli, ma'no va ishq sohiblaridan hech bir kishi mohiyati ilohiyotda qora rangning muqaddasligiga sira shubha qilmagan.

Ibrohim Haqqul o'zining "Yana qora rang xususida" nomli maqolasida ham ranglar xususida shunday fikrlarni aytib o'tadi: "Tasavvuf jarayoni keng taraqqiy topgan o'lkalarda qora xirqali toliblar, yani siyahpo'shlarning soni ancha ko'pchilikni tashkil etgan. Buni Navoiyning quyidagi qit'asidan ham anglash mumkin:

Ne deb Jurjonga bordi ul siyahbayt,
Qora to'n birla solib ko'ngliga jo'sh.
Ki bor ul pasha ahlidin aningdek,
Qayonkim ko'z solurlar, yuz siyahpo'sh.

⁵²Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. –Toshkent: O'qtuvchi, 1978. 408 b

⁵³ Ibrohim Haqqul. Qora rang- muborak rang.// Ibrohim Haqqul. Zanjirband sher qoshida (Navoiy saboqlari). –Toshkent: Yulduzcha, 1989, 36-45-betlar

Bu qit'aga " siyohpo'sh azizning jurjonga borg'aniga taajjub qilurkim, anda siyohpo'sh ko'ptur", deb sarlavha qo'yilgan. "Siyahpo'sh aziz" iborasiga qaraganda, Jurjonga borgan kishi biz o'ylaydigan ma'noda siyohbaxt –baxti qaro emas, chunki tasavvufda ahli "siyohkor", "siyohro" deganda sayr sulukda yo'lda qolgan va yo'ldan chalg'iganlarni nazarda tutushgan. Jurjonga ravona bo'lgan "siyohbaxt"ga qaytsak, u tariqatga kirishda qandaydir zohiriy mamnuniyat sezgan va o'ziga bino qo'yganligini yashira olmagan. Jurjonga borgach, yuzlab Haq oshiqclarini ko'rib, o'z ahvolidan xijolat chekkan kishidir. Ajabmaski, Navoiy "Sabbai sayyor" dostonidagi birinchi musoffir tomonidan naql etilgan hikoyat qahramonlari Farrux va Axiy shunday kimsalarga ibrat qilib ko'rsatilgan.

Ma'lumki, Alisher Navoiy faqr masalasiga zo'r ishonch bilan qaragan. Ulug' shoir faqr hollarni ishtiyoq bilan tasvirlaydi, komillik maqomlarini faqr e'tiqodi va tajribasi ila aloqadorlikda ko'rsatishga ahamiyat beradi. Bu bejiz emas, albatta, ulug' shayxlardan biri shunday degan ekan: "Solikni haqqa vosil aylaydiga yo'llar ko'kdagi yulduzlarning sonidan ham ko'p edi. Zotan, yo'llarning eng to'g'risi ham shudir"

Farrux va Axiy faqr yo'lidan chekinmaganliklari "faqrning shom rang libosi" Talablariga to'la rioya qila olganliklari uchun ham maqsad manziliga yetishganlar. Ular hurmat, muruvvat, futuvvatda go'ya bir birlari bilan o'zaro musobaqaga kirishganday ko'rinsalarda, oliy matlabga erishish hollari bitta-faqr. Navoiy buni butun hikoyat davomida goh ochiq, goh ramz va ishoratlar orqali ta'kidlab boradi.

Navoiy o'zining bu dostonida juda ko'p marotaba qora rangga murojat qiladi va bu rang orqali insonning yomon illatlarini ifodalashda foydalanadi. Hind hukumdori Jasoratxonning o'g'li Farrux "lutf ila xulqi haddi g'oyatsiz, fahmu idroki xud nihoyatsiy" shahzoda edi. Shunga qaramay, u qari otasining istagiga yon bermasdan toju taxtni qabul qilmaydi. Zero:

Faqr etib erdi ko'nglini mashg'ul,
Aylamas erdi saltanatni qabul.

Farrux tushida ko‘rgn parivashni axtarib ko‘pchilik bilan yo‘lga chiqqach, g‘urbat mashaqatlarini torta-torta bir manzilda yetdilar. Shunda u uyquga cho‘mgan hamrohlariga maktub qoldirib, ulardan ajraladi va yolg‘iz o‘zi ishq safarini davom ettiradi. Shu tunda u:

Egnidin soldi shohvor libos,
Kiydi o‘rniga shom rang palos.

Bu rang qora rangli xirqa edi. E‘tiborlisi shundaki, xuddi shu libos sharofatidan Farruxga murod eshiklari ochiladi. Farruxning ishq va poklikda sobitligiga tan bergan Axiy aql bovar etmas ishni amalga oshiradi: o‘z suyukli xotinini taloq qilib, unga nikohlab beradi. Biroq o‘zga diyorga ularni kuzatayotganda, yodgorlik uchun Farruxdan o‘sha “qora libos”ni tilab oladi:

Yodgor istadi palosing aning,
Tilab oldi qora libosing aning.

Navoiy o‘zining bu asarida qahramonlar ruhiy holati, ularning ichki kechinmalarini o‘quvchiga yetkazib berishda bu rangning ijobiy tomonlarini yetkazib berishga harakat qilgan. Qora rang shu o‘rinda ham ijobiy ma’no ottenkasini bergan.

Uyga kirgach qaro palosi erdi,
Ki safarg‘a aning libosi erdi
Tengri shukridankim, tili edi lol,
Toat aylar edi kiyib qaro shol.

Naql etilishicha, Ibrohim Halilluloh olovga tashlangani zamon Oллоh hukmi bilan Jabroil jannatdan bir ko‘ylak keltirib, unga kiydirgan va shu ko‘ylak tufayli u olovda yonishdan xalos bo‘lar ekan. Bu ko‘ylak dastlab Hazrati Is‘hoqqa, so‘ngra Yoqub alayhissalomga meros o‘tgan. Yusuf payg‘ambar uni kiygani uchun quduqdan omon chiqqan. Ahli tasavvuf xirqada ana shu ko‘ylak sirlarini ilg‘ab, unga ma’naviy ma’nolar berganlar.

Hujraviyning ta’kidlashicha, xirqaning beli sabrni, ikki yoni –xavf va rajoni, ikki oldi –qabz va bastni, belbog‘i-nafsga qarshi kurashni, yoqasi-yaqinni (shubhasiz ilmni), astari- ixlosni tamsil etgan. U yana yozadi: “xirqa

safvat (porloqlik), faqr va tariqat maqomlarining barini o'zida mujassamlashtirgan bir libosdir. Bu libosdan kechish va uzoqlashish demakdir. Zero, xirqa kiyish Ollohni tanish shartalaridan biri hisoblanganki, "qora hirqa yopingan so'fiy o'z qalbi va vujudini to'la to'kis Ollohda tasavvur etmog'i lozim bo'lgan". Bunday taxayyul va yaqinlik inson axloqini nechog'lik poklasa, ko'ngli va ruhini o'shancha go'zallashtiradi. Nafsi ammora mag'lub etilgan muhitda berahimlik, nodonlik, riyokorlik, kibr, qahr kabi yuzlab hayvoniy va shaytoniy sifatlar o'z -o'zidan barham topadi. Mana shuning uchun Farrux va Axiydan o'rnak olib, "qora ko'ylak kiymak" odatga aylantirilgan:

Chunki shah xilvati qaro bo'ldi,

Qora kiymak ulus aro bo'ldi.

Mana shuning uchun Alisher Navoiy poklik, sadoqat, muruvvat va kamolotdan dalolat beruvchi farq libosini yoqlab:

Qora rang elga toju torakdur,

Kim bu rang ichradur muborakdir,-

degan va buni tariqat adobi, naqshbandiylikdagi faqru fano shartlaridan ajratib talqin qilish shoir ko'zlagan haqiqatga aslo muvofiq kelmaydi.

Darvoqe, ba'zi tariqatlarda nafsdagi poklanish va o'zgarishlar rang vositasida aniqlangan. Bu ranglar: moviy, sariq, qizil, qora, yashil, oq va rangsizlik. Qora rang-nafsi mutmaina (tingan, yaxshilikka bosh eggan nafs)ning rangi bo'lib, u Ollohning izni va ruhning nuri ila nurlangan, yomon narsalarni tark aylab, go'zal axloqqa tobe nafsdir.

Yurtimiz tarix zarvaraqlarida o'zining qahramonona nom qoldirgan Najmiddin Kubro ham o'z tariqatida ranglarga alohida e'tibor bergan. Najmiddin Kubrodagi ranglar va ularning ma'nolari ba'zi mutassavufklar ta'riflagan ranglarning sharhidan farq qiladi. Kubro yetti rang xislatini yetti tushunchaga moslab tushuntirgan. Uningcha, oq rang- islomni, sariq rang- imonni, zangori rang ehsonni, yashil rang-itmimon (ishonch)ni, ko'k rang- iqon(to'liq ishonch)ni, qizil rang-irfonni, qora rang- hayajon (hayrat)ni anglatadi. Solik ruhi holatidan, qaysi rang ko'z oldida namoyon bo'layotganini

piriga aytib turishi kerak. Pir shunga qarab, muridning qaysi bosqichda turganini bilib, unga yangi vazifalar yuklaydi. Keying sufiylar ham Kubro singari qora rangni hayrat belgisi hisoblab, uni ruhning fanoga g‘arq holati ramzi sifatida ta’kidlashgan.

Bundan tashqari mumtoz adabiyotda ranglarda keng miqyosda foydalanishadi. Buni mumtoz adabiyotimiz vakillarining asarlarida yaqqol tarzda ko‘rishimiz mumkin. Bu fikrimizni dalillash maqsadida Komil Avazning “Ishqning turfa ranglari” maqolasida ham Alisher Navoiyning ranglar ishtirokida “Qizil, sorig‘, yashil” g‘azalini keltirib o‘tmoqchimiz. Komil Avaz bu g‘azalni shunday ta’riflaydi:⁵⁴ .

Xil’atin to aylamish jonon qizil, sorig‘, yashil,

Shu’lai ohim chiqar har yon qizil, sorig‘, yashil.

Misralari bilan boshlanadigan g‘azalni uzoq muddat mutolla qildim. 7 bayt, 96 so‘zdan iborat ushbu g‘azalda 5 tagina so‘z izoh talabdir: **xil’at** – hashamli kiyim, sarpo, **samum**- halokatli issiq shamol, garmsel, **tobadon**- uyga yorug‘ tushushi uchun eshik tepasiga qo‘yiladigan tuynuk; **xirqa**- shayx va darveshlarning ust kiyimi, janda; **shingarf**- qizil bo‘yoq, qizil rang. Biroq g‘azalni tub mohiyatini anglashga so‘zlarning lug‘aviy ma’nolarini bilish kamlik qilgan ekan. G‘azalni ilk o‘qiganimda ko‘z oldimga vaqti-vaqti bilan osmonda paydo bo‘ladigan “Hasan-Xusan o‘q yoyi” kelgan edi. Hozirda bolalar bu holatga uncha hayratlanmaydilar. Lekin biz urush davri bolalari “Hasan-Husan o‘q-yoyi” paydo bo‘lganida undan ko‘zimizni uzolmasdik. Qalbimizga qariyalarning bu boradagi so‘zlari qattiq o‘rnashib qolgan edi.: “Shu rangdan o‘tsang xudoga yetasan”. Ranglarni sanaymiz, yettita-qizil, sariq, yashil, ko‘k, zangori, oq, qora. Hammasidan ham qariyalarimizning 7 raqamiga ixloslaridan hayratlanganmiz –namozda 7 a’zong yerga tayanadi: ikki oyoq uchi, ikki tizza, ikki panja va bir peshona. Bularning barisi zohiriy alomatlar.

Filalogiya fanlari doktori H. Boltaboyev talqinidagi “Sharq mumtoz poetikasi” kitobida keltirilgan “Javharuz-z zot” asarida Fariddin Attor: “Jonon-

⁵⁴ Ko‘rsatilgan asar.- 3-4-bet

tavhidida birlikdamiz. Kull–ummumiyat javhari, yagonaligimiz shaksiz. Tavhidda yagonalik–birlikdan o‘zga narsani ko‘rmadim. Vahdat-yagonalikni yagonalikdan yagona deb tanladim”, deya raqam etgan⁵⁵. Mazkur asar izohida “jonon-ilohiy mahbub, ya’ni Olloh”, deb ko‘rsatilgan.

Demak, g‘azal matla’sidagi jonon –ilohiy mahbub xil’atidan taraladigan qizil, sorig‘, yashil ranglarga javoban lirik qahramon ohidan qizil, sorig‘, yashil ranglar chiqadi. Xo‘sh, nega endi- qizil, sorig‘, yashil? Bunga biz shunday javob berishni holis topdikki, oshiqning yor dardida yonishida natijasidan oh tortishi bu uning yor dardida yonishidan oh chiqarishi, vaholanki, biz bilamizki, olov yonganida ham unda uch xil rang jamlangan bo‘ladi (e’tibor qaratgan bo‘lsangiz, olov yonayotganda uning uch xil rangda yonishiga ko‘zimiz tushadi, ya’niki olovning eng tub qismi yashil tusli va o‘rtarog‘ida qizil rangda, alanganing eng yuqori cho‘qqisida esa sariq rang tovlanadi) shoir ham o‘z ohlarini yonish natijasidan ekanligini ifoda etish maqsadida ushbu ranglardan foydalangan.

Gulshan ettim ishq sahrosin samumi ohdin,

Kim esar ul dash taro har yon qizil, sorig‘, yashil

Bu baytda esa shoir ishq sahrosini halokatli issiq shamol, qattiq garmisel ohi ila gulshan – turfa rangli gulzorga aylantirganini aytib o‘tmoqda. Bilamizki, kunlar issib, bahor kelganda, gullar va daraxtlar gullay boshlaydi. Shoir ham ushbu bayt orqali bu hodisaga ishora qilmoqda.

Shishadek ko‘nglumdadur gulzori husning yodidin,

Tobadoning aksidek alvon qizil, sorig‘, yashil.

Har qanday oshiq oshiq bo‘lgach hayollar og‘ushida qoladi. Bir nuqtaga qarar va hayol surishdan charchamaydi. Oshiq tobadonga qarab turadi (tobadon-xalq me’morchiligida qo‘llaniladigan, eshik, deraza tepasidagi kichik darcha, panjarali tuynuk. Maqbara, madrasa hujralari va boshqa binolar eshigi tegtasiga to‘rtburchakli, ravoqchali va boshqa shakllarda ishlanib, ganch yoki yog‘och

⁵⁵ Boltaboyev H. Sharq mumtoz poetikasi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. - Toshkent. -2008. 167-168-betlar.

o‘ymakorlagidan tayyorlangan panjaralar o‘rnatilgan. Xona ichkarisini shamollatib, yoritish uchun xizmat qiladi). Oshiq o‘sha tobondan tushadigan shulalarga qarab hayol surmoqdan to‘ymaydi. Shula ham tushar chog‘i qizil, sariq ranglarda bo‘ladi. Navoiy shunga ishora qilgan.

Orazu xoling bila xitting xayolidin erur,

Ko‘zlarimning oldida davron qizil, sorig‘, yashil.

Asliyatda yor go‘zalligi va oshiq behalovatligi vasfi shu bayt bilan nihoyasiga yetadi. Tarjima ma‘no va ruhiyat jihatidan aniq adekvatik kasb etgan. Baytda tilga olingan Sharq go‘zali vasfining asosiy komponentlaridan biri – “xat”, ya‘ni yor labi ustidagi “chiziq”, nozik qaro mo‘yni soyaga qiyoslab tarjimon o‘z tilida munosib badiiy muqobil topa olgan. Bu baytda ishlatilgan rang semalari yorning go‘zal liboslariga ishora qilingan.

La‘lgun may tutqil oltin jom birla sabzada,

Kim bulardin yaxshi yo‘q imkon qizil, sorig‘, yashil.

Navoiy ushbu bayt bilan va bu baytdagi ranglar orqali shuni ifodalaydiki, bu ranglar qizil-mayni, sorig‘-jomni, yashil –bahorni ifoda etadi. Bu baytda shunday ma‘no kelib chiqadiki, oshiq uchun bahor faslida tabiat qo‘ynida yorning oltin qadahda gulgun sharob quyib berishidan afzalroq narsa yo‘q.

Faqr aro birranglik dushvor erur behad, valek,

Xirqada tikmak erur oson qizil, sorig‘, yashil.

Bu baytning so‘zma-so‘z tarjimasiga keladigan bo‘lsak, shunday tarjimada bo‘ladi: “Kambag‘allar yolg‘iz o‘zlarinigina kiyim bilan zo‘rg‘a ta‘minlaydilar, shuning uchun ular xirqa, yani chakmonlariga qizil, sarig‘, yashil yamoqlarni osonlik bilan tikadilar. Navoiy bu g‘azalida faqrlikka to‘xtalib ularning kiyimlari haqida zohirona ma‘nolarni berar ekan, o‘zimizni fikrimizni boyitmoq uchun Abdurahmon Jomiyning faqrni ikki turga bo‘lgani haqidagi fikrlarini keltirib o‘tmoqchimiz. Buyuk mutafakkir shunday deydi: “Faqr ikki turga bo‘linadi: rasmiy va haqiqiy. Rasmiy faqr deb mol-dunyoga ega bo‘lmaslik va faqr yashashlikka aytiladi. Haqiqiy faqr esa har qancha davlati bo‘lsa ham, har qanday sharoitda ham mol-dunyoga berilmaslikka va nihoyat

oddiy yashashga intiladi. Bu baytdagi ranglar esa faqlarning hayotida har qanday kunlar, har qanday holatlar kuzatilishi va ular bunday sinovlarda faqat Olohga oshiqliqi va unga iymoni mustahkamligi sababli bunday og'ir kunlarni kechib o'tishlari tasvirlanadi.

Ey Navoiy, oltinu shingafu zangor istama,

Bo'ldi nazming rangidin devon qizil, sorig', yashil.

Bu baytdagi sifat leksemalarining semalari shundayki, Navoiyning g'azallari bilan uning tuzgan devonlari boyidi, ya'niki, turfa mavzudagi g'azalllar bu devondan o'rin oldi va unga ko'rk qo'shdi. Bu g'azaldagi ranglarni tahlil qilishimizdan maqsad ranglarning zohiriy ma'noda ham uslubiy ma'no tashish xususiyati borligiga bir ishoradir. Fikrimizni isbotlash maqsadida Najmiddin Komilovning "Najmiddin Kubro" nomli risolasidagi hazrat ta'limotini sharhlashini keltirib o'tmoqchimiz "... ranglar so'fiyning ruhiy holatlari, Oloh tomonidan safaridagi daraja bosqichlarini bildirib turadi. ...ruhning rangdan rangga ko'chishi rivojlanishdan nishonadir.... Chunonchi zangori rang solikning tavba qilib, tariqatga qadam qo'yganida ko'rinadi, bu holatda u shariat doirasida bo'ladi, mantiqiy – daliliy bilishdan hali qutilmagan, hali ko'nglida dunyoviy havaslar mayli hukmrondir. (ey Navoiy, oltinu, shingafu, zangor istama“..) bundan keyin tariqat boshlanadi, solik qalbida muhabbat qo'zg'aladi, u Oloh yodi (shishadek ko'nglumdadur gulzori xusning yodidin“) bilan yashaydi va bu sariq rangga to'g'ri keladi. Qizil rang solikning ruhi vujudan ajrala boshlagani, ma'rifatga yaqinlashgani, manaviy mohiyatlar olamini anglaganini ma'lum qiladi. Ammo bu bosqich hali hirs qutqusidan xalos bo'lmagan bir holatdir. So'ng oq rang ko'rinadiki, bu yurakning poklanishiga ishoradir va haqiqatni anglash boshlanadi. Haqiqat olamidan xabardor bo'lib, tavhid holatini boshdan kechiradi. Shundan keyin yashil rang keladi. Yashil rang valiylikdan nishona. U sirlarning siriga, g'aybga oshnolikni bildiradi va solikning asl mohiyatlariga yetishganini ham anglatishi mumkin”.

Va nihoyat oxirgi rang –qora rang. Demak, mazkur ranglar solikning Oллоh tomon va Oллоh bilan ruhiy safarini anglatadi. Va nihoyat, solik ruhi Oллоh huzurida paydo bo‘ladi. U qora rangdan qutulib rangsizlik holatiga kiradi. Zotti kull darajasini egallagan solik yakranglik holatida maqsadga erisharkan. Albatta, Alisher Navoiy hazratlari yetti rang mohiyatini yaxshi bilgan. Demak, ham dunyoviy, ham ilohiy ishqning rang-barangligini tarannum etuvchi ushbu g‘azal Alisher Navoiy hazratlarining valiyligidan dalolat emasmi?

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan kelib chiqqan holda shuni ta‘kidlash joizki, qora sifat leksemasi o‘zbek lug‘at fondining qadimiy va asosiy so‘zlaridan biri hisoblanadi. Qora so‘zining asl ma‘nosida rang-tus yotsa-da, bu so‘z ham ko‘pincha ko‘chma ma‘noda qo‘llanadi. Qora so‘zining qo‘llanilishi eng qadimiy yozma yodgorliklarda, O‘rxun-Enasoy bitiktoshlarida, “Devoni lug‘otit –turk”da uchraydi. Masalan, qora kun, ko‘ngli qaro, qora niyat kabilar shular jumlasidandir. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so‘zning yigirmaga yaqin ma‘nosi keltirilishi uning tilimizda faol qo‘llanilishidan dalolat beradi. Qora sifat leksemasi nutqda faqat predmetning rangini ko‘rsatish maqsadida qo‘llanganda emotsional-ekspressivlikdan holi bo‘ladi, bu vaqtda uning vazifasi rang to‘g‘risida xabar ma‘lumot berish bilan cheklanadi. Qora rangiga moyil to‘q ranglar ham jonli so‘zlashuvda qora deb aytiladi: qora non, qora gilos, qora tuproq, qora bulut va boshqalar.

Nimqorong‘uda ruxsoridaagi no‘xatdek qora xolini aniq ko‘rardi.
(S.Karamatov)

Is, qurum bosgan, qoraygan yoki oqlanmagan, pardoatlanmagan uy va xonaga nisbatan qora uy birikmasi qo‘llanadi. Do‘lonning o‘ng tarafdagi kichik qora hujrada Polvonning ota-onasi va bobolari umr kechirgan.(J.Sharipov)

Kishi xarakteridagi odob-axloq normalariga mos kelmaydigan munofiqlik, g‘alamislik, g‘iybatchilik, ochko‘zlik, berahmlik singari sifatlar ham qora leksemasi bilan qo‘llanilishi uchraydi: qora niyat, qora kuchlar. Kechirasiz, men shiringina bazmingizni qora xabar bilan muzlatib qo‘ydim. (Oybek)

Qora sifati ba'zi leksemalari bilan birga kelib, ular anglatgan narsaga xos belgi-holatning kuchli darajasini bildiradi: qora sovuq, qora qon yig'latmoq.

Qora qishda to'y qilmay, battar bo'lg'in nokas gov. (I.Sultonov)

Ichiqaro, yuragi qaro birikmalarida qaro so'zi o'z leksik ma'nosidan cheklanib, ko'chma ma'noda o'zganing muvaffaqiyatini ko'rolmaydigan kishilarga nisbatan aytiladi. Dili qaroning qilmishi-qiyiqlik.(maqol). Yuz jigirim ezilib qilurmen qora qon ila g'arora. (Furqat) bu misolda "qora" so'zi" kuygan, qora qon" ma'nosini ifodalaydi.

Ikkinchi bir g'azalda oshiq ma'shuqasi oldida ma'lum bir ayb ish qilib, yuzi qorayganini ifodalaydi.

Agar o'zgani yuziga nazar aylasam ko'z ochib,

Bu orada haq tonuqdur, kelu qil yuzimni qaro. (Furqat)

Boshqa bir g'azalda qora so'zi ko'zning epiteti bo'lib keladi. Bu rang bilan yorning nargis ko'zlari yanada yorqinroq ko'rinadi:

Chehib surma qaro nargizlarig'a ayladi oro,

Meni o'durdi oxir g'oza birla yuzg'a xol aylab. (Furqat)

Xullas, qora so'zining tilimizda uslubiy imkoniyatlari juda keng bo'lib, u fikrni aniq obrazli ifodalashda, poetik ta'sirchanlik, ohangdorlikni ta'minlashda o'ziga xos o'ringa ega.

Har bir rang badiiy mantda o'z qo'llanib kelayotgan birikma bilan birikkan holda yangi ma'no yuzaga keltiradi. Qora leksemasining xuddi ana shu xususiyatlarini ko'rib o'tdik. Endi ko'k sifat leksemasining badiiy matnda qanday uslubiy vazifa bajarishini tahlil qilib o'tsak.

Tiniq osmon rangidagi moviy, zangori, umman olganda, ko'k tusiga mos bir qancha o'xshash ranglar ham ko'k deyiladi. Jonli so'zlashuv tilida ba'zan kulrang rangini ham ko'k sifati bilan ishlatamiz. Ko'k bo'ri, ko'k kaptar.

Ko'k sifati quyidagi ma'no xususiyatlari va imkoniyatlariga ega:

1. Yashil, sabza, ko'k o't semasi: qarshimda tebranar ko'k burglar har on.
2. Maysa, ko'kat semasi: bahor kelib, yerda o't-o'lan una boshladi va hayvonlarning og'zi ko'kka tegdi.

3. Rezavor o‘simliklar: ko‘k solib qatqlangan mastavaning lazzati-hidi keldi. (A.Muxtor)

4. Dollar semasini: u bu jinoyatining ortidan bir pachka ko‘ki bilan qo‘lga tushibdi, ish chatoq.

Alisher Navoiy asarlarida ko‘k so‘zi belgilikdan tashqari osmon, daraxt, ildiz, tamg‘a, asos, ovoz, tayyor, tugal kabi bir qancha ma‘nolarda qo‘llanadi.

Badiiy matnda qizil sifati ranglilik xususiyatidan tashqari qon, qizg‘zladoq, cho‘g, lal kabi tushunchalarni beradi. Qizil so‘zi o‘zbek lug‘at boyligining qadimiy va asosiy so‘zlari fondidan o‘rin olgan. “Kultegin” obidasida ham bu so‘zni uchratish mumkin. Bu rang oddiy predmetlar sifatlovchisi bo‘lib qo‘llandi. Ta’sirchanlikni kuchaytirishda, emotsional-ekspressivlikni berishda predmetning rangi qizil bo‘lishiga qaramay, uning oldida yana qizil sifatlovchisi qo‘llanadi. Ba’zan bu so‘z qip-qizil shaklida shaklida kelib, ma‘no yanada bo‘rtiriladi.

Qirg‘og‘iy bir zamon qip-qizil qonga belangan, faryodlar o‘rlab osmonga. (G‘ayraty)

Shoirlar nazdida lola, yoqut, shafaq, qon kabi predmetlar ko‘pincha qizil so‘ziga bog‘liq holda ifoda etiladi. Ba’zan qizil sifatlovchi o‘rnida ana shu so‘zlar qo‘llanadi.

Qo‘limda sharob to‘la piyola,

Qip-qizildir go‘ya bahorgi lola.

Qip-qizildir botayotgan kun kabi,

Qip-qizildir go‘ya qizlarning labi. (H.Olimjon)

Qizil so‘zi turli so‘z birikmalar turg‘un birikmalar komponentlari bo‘lib, boshqa sifatlar kabi ot vazifasida kelib, juda ko‘p ko‘chma ma‘no va majoziy ma‘nolar kasb etadi. Qizil rangining ottenka ma‘nolari juda ko‘p. Tilda bu ottenkalar o‘ziga xos rang nomlariga ega. Qizil so‘zi o‘zining sinonimariga ega. Bulardan ko‘pi predmet ma‘nolarini ifodalovchi so‘zlardir: Lola, yoqut, qon, shafaq, lolaqizg‘aldoq. Bular ko‘proq badiiy asarlarda uchraydi. O‘zbek ijodkorlari asarlarida qizil tus va uning ottenka xillarini ifodalsh uchun gulgun,

gulrang, gulnor, gulnorgun, gulfom, shafaqqum, shingarf shingari ko‘plab rang nomlarini uchratish mumkin. Bulardan tashqari arab, fors tillaridan o‘tgan ahmar, humor, hamro, arg‘uvon, arg‘avon, shingarf, g‘o‘za kabi so‘zlar qizil ma’nosida qo‘llangan.

Badiiy matnda qizil va nutqda qizil so‘zi o‘rnida, ya’ni uning ma’nodosh sifati ol so‘zi ham keng qo‘llaniladi. Alvon leksemasi ham predmetning rangini ifodalashga xizmat qiladi. Avon so‘ziga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izoh beriladi:

1. Qizil tusli, qip-qizil, qirmizi. Masalan: Bunda gulning eng asllari, baxmal gilam, alvon poyandoz. (H.Olimjon)
2. Qizil rangli mato;
3. Xilma-xil , turli-tuman ma’nosini ifoda etishda: bir uyadan necha alvon qush uchadi. (N.Safarov)

Rang-barang, xilma-xil, turli-tuman ma’nosini ifoda etishda alvon-alvon so‘zi ishlatiladi. Ba’zida alvon leksemasi qizil rangni emas, balki qizg‘imtir, sariq tusdagi semasini berishi mumkin:

Dengiz qirg‘og‘ida yongan alanga

Kabi quyosh chiqib, alvon nur yoydi. (Shukrullo)

Ko‘rinadiki, qizil leksemasining tilimizdagi ma’no imkoniyatlari keng. Sochilgan sochingday sochilsa siring, Anor yuzlaringni kimga tutasan?! (Cho‘lpon)

Keltirilgan misolda *anor* leksemasining belgi ma’nosida qo‘llanilishi inson yuzi va anorning rangi o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslandi. Shuningdek, bu misolda *anor* leksemasi “rang” semasidan tashqari “go‘zal va suluv” semalarini ham anglatadi. Lekin negadir “o‘zbek tilining izohli lug‘ati”(1981)da *anor* leksemasining ana shunday okkazional semalarga ega bo‘lishi qayd etilmagan⁵⁶.

⁵⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati, ikki tomlik, I tom, M: 1981. 1-48-betlar

Yashil leksemasi uslubiy maqsadda qo'llanganda, turli xil ma'no imkoniyatlarini ifodalaydi. Masalan: Tinglangiz, har nafasda jonlandi, yosh tabiat, yashil ko'ngillar-la ... (H.Olimjon)

Mazkur misolda yashil semasi "yosh, navqiron" semasini ifodalashga xizmat qiladi. Shoir yashil leksemasini qo'llashda bir tomondan inson hayotining balog'at davri va yil fasllarning boshlanishi –bahor fasliga, bahor faslining esa yoshlikka belgisiga ega ekanligiga asoslangan bo'lsa, ikkinchi tomondan shu leksemani qo'llash bilan takrordan qochishga intilgan.

Zangori. bu so'z osmon rangi, sinka tusi kabi tushunchalarni beradi. Toshkentliklar bu so'zdan sinka ma'nosini anaglashsa, Farg'onalik sheva vakillari yashil rangni tushunishadi. Zangori so'zi osmonning rang-tusi belgisi sifatida ham ko'p qo'llaniladi. Zangori so'zi boshqa ko'pchilik rang ifodalaovchi so'zlar singari turli xil ko'chma va majoziy ma'nolar ifodalay olishi bilan xarakterlanadi. Bunday ma'nolar ko'pincha nutq jarayonida yuzaga keladi. Badiiy asarlarda zangori so'zidan shoir va yozuvchilar osmon, dengiz tasviri uchun ham foydalanishgan. O'zbek tili jonli so'zlashuvida ba'zan mubolag'a tarzida yoki ekspressiv holatlarda zangor so'zi qora ma'nosida ham ishlatiladi. Masalan; Oftobda qorayib naq zangor bo'lib ketibdi.

Fors tilida zangori-zengeri tarzida ishlatilib, sariq, pistoqi tusli hamda metal rangini anglatadi. Zangor rang ham turli-tuman ma'no ottenkalariga ega. Masalan: och zangori, to'q zangori, havorang, niliy va boshqalar. Zangori so'zi ko'k so'zi bilan ham o'rin almasha oladi.

Sariq so'zi kamalak nurining asosiy ranglaridan biri bo'lib, badiiy uslubda uning o'rnida ba'zan qahrabo, zar kabi ma'nodosh variantlar qo'llanadi. Mumtoz adabiyotda sariq ma'nosini ifodalovchi za'faron, somon, oltin, oltin rang, tilla rang, ko'hiy so'zlari ham qo'llanadi. Shu bilan birga quyosh, hayot, muqaddaslik kabi ramziy ma'nolarga ega. Alisher Navoiy lirik merosida sariq rang bilan tasvirlar miqyosida juda ham ko'p tasvirlarni ko'rishingiz mumkin.

Sarg'aribtur lolaruyim ranji to bo'lmish qatig' ,

Lola bu yil gulshani umrida ochilmish sarig' . (A. Navoiy)

Oltin ezib eribkuygan sori xolis bo'lur,

Ne ajab, sorg'orsa yuz etgan soyi emgak manga. (A. Navoiy)

Zafaron so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha ifodalanadi: zafaron – ziravor o'simlik, za'far. 1. Ingichka uzun bargli, to'q sariq gulli, piyozsimon ildizli o'simlik va uning gulidan tayyorlanadigan, ovqatni xushta'm va rangdor qiladigan ziravor. 2. Sap-sariq, somonrang yigitning olijanob qimmatidan ma'lum bo'lib, za'faron yuzlarimga andak tabassum chiqdi. (G'ayratiy)

Ko'rinadiki, rang ma'nosi birinchi ma'noda (to'q sariq gulli o'simlik) o'sib chiqqan. Somon, oltin rang, tillo rang kabilar ham rang semasi asosida yangicha ma'no ifoda etishga ixtisoslashgan.

Moviy rang bildiruvchi so'z sifatida o'zbek tiliga arab tilidan o'tgan. Faqat rang ma'nosida qo'llanuvchi bu so'z zangor tus, havorang tushunchasini anglatadi va tilda zangor so'zining sinonimi vazifasida ishlatiladi. Ko'pincha ko'z, suv, havoning tusi ma'nosini beradi:

1. O'yna, chayqal, moviy dengizim,

Qirg'oqlaring nurga burkangan. (X.Saloh)

2. Endi darmonoyning ham uyqusi uchdi, moviy ko'zlari chiroqday ochildi, Saodatga qarab yotdi. (N.Safarov)

Xalq qahramonlarini kuzatar ekanmiz, ularda yetti xil asosiy rangning aks etgani ayonlashadi. Ular: oq, sariq, qizil, ko'k, yashil, jigarrang, qora. Bu rang his-tuyg'uni ifodalovchi, holat bildiruvchi, joyni anglatuvchi xususiyatga ega. Xalqning qadimgi totemistik va animistik qarashlari asosida har bir rang o'ziga xos ma'no kasb etgan. Oq-ezgulik, qizil-quvonch, yashil-tiriklik, sariq-ayriliq va boshqalar. Ranglar u yoki bu xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odati, marosimi, qadimiy qarashlari bilan chambarchas bog'liq xalqning mifologik va diniy qarashlari ham ranglarda turlicha aks etadi. Bundan tashqari xalqning ijtimoiy hayoti, geografik muhiti ham ranglarga nisbatan munosabatning xilma-xilligiga olib keladi. Umuman, rang bildiruvchi sifatlar tilda, ayniqsa, badiiy

adabiyotda aktiv qo‘llanuvchi, o‘zining semantik va leksik xususiyatlari bilan alohida o‘rinni egallovchi so‘zlar hisoblanadi.

Ko‘p o‘zbek adabiyoti vakillari o‘z she‘rlarida ranglarga murojaat qilishgan. Xususan, Xurshid Davron, Muhammad Yusuf, Abduvali Qutbiddin, Mahmud Toir, Iqbol Mirzo kabi ijodkorlarimizning lirikasida ranglar jilosini ko‘rsihsimiz mumkin. Har bir ijodkior ranglardan o‘ziga xos uslubda foydalanadi. She‘rlarda “oq orzu”, “qora baxt”, “qora qosh” kabi birikmlaraini qo‘llash an’ana tusiga kirgan. Ranglar hamisha ijodkorlar uchun fikr quroli, asosiy o‘xshtish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Xurshid Davronning she‘rlarida beg‘ubor bolalikning oppoq xotiralarini ko‘rishimiz mumkin.

Oppoq edi boshda bu dunyo:

Ko‘cha oppoq, kechalar oppoq,

Qanday yaxshi ekan bolalik,

Oppoq ranglar bilan yashamoq.

Oq rang – poklik, beg‘uborlik ramzi. She‘rda bolalikning oppoq orzulari, dunyoni bolalarcha anglash, samimiylik, begunohlik, beg‘uborlik ufurib turibdi. Inson bolaligida hayotning faqat oq taraflarini, ezgulik, yaxshilik, mehr-muhabbatni ko‘radi. Ulg‘aygach ularning ziddi bilan to‘qnash kelarkan, xuddi shoirdek bolalikka qaytgisi, oppoq orzular bilan yashagisi keladi⁵⁷.

Mahmud Toir ijodida qora rangga juda ko‘p o‘rinlarda murojaat qilingan. Uning she‘rlarida qora rang- yoshlik, go‘zallik belgisi sifatida qo‘llanilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Qora-qora qoshlaring

Qaldirg‘och terganmidi?

Gulim, sadaf tishlaring

Marvarid berganmidi?

⁵⁷ Xurshid Davron. Qarddon quyosh. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1979. 5-bet.

Bu yerda qoshning qaroligi qaldirg'ochning qanotiga qiyoslangan va bu orqali yorning go'zalligi tasvirlangan⁵⁸.

She'riyatni rangsiz tasavvur etib bo'lmaydi, bu ayni haqiqat. Chunonchi, she'r rang majoz va badiiy ko'chimlar bilan jozibali, ular bilan tirik hamda navqirondir. Ular she'riyatga yangicha ma'no va mohiyat bag'ishlash bilan bir qatorda so'zning ham yasharishi, jilo topishi, yangi-yangi ma'nolar kasb etishi uchun imkon yaratadilar shu ma'noda o'zbek she'riyatiga nazar tashlasak, har bir ijodkor poeziya maydoniga yangi ranglarni ramz sifatida ishlatishiga guvoh bo'lasiz. Rang bilan bog'liq ramziy obrazlar yaratsih, ularda hayotimizning barcha talotumlarini, zamondoshlar qalbida, ongida charx urub yurgan nozik hamda ziddiyatli kechinmalarni, o'ylarni aniq, obrazlar sifatida shakllantirib she'riyatga taqdim etish, deyarli, barcha shoirlar va yozuvchilarimizga xos xususiyatdir.

Adabiyotning, xususan, she'riyatning yuksak parvozi ko'p hollarda jamiyat hayotida ulkan burulishlar, kishilar ruhiyatida dolg'ali onlarning kuchayish paytlariga to'g'ri keladi. O'tgan asrning 80- yillarining oxiri va 90-yillarning boshlariga nazar tashlansa, she'riyat uchun nafaqat she'riyat, balkim ummuman san'at uchun bitmas tunganmas ozuqa beruvchi ulkan voqealar, jamiyat hayotida mislsiz silkinishlar shu darajada ko'p yuz berdiki, ularni faqat poeziyagina o'z vaqtida to'laroq, nozik va totliroq aks ettirishi mumkin. Bunda esa ijodkor uchun ramzlar, majoz va ko'chimlar juda qo'l keladi. Chunki, asrimiz oxiri ulkan o'zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-axloqiy tub burulishlarga yuz tutdi.

Adabiyotshunoslikda rang ramziyligi nima? Adabiyotda ramziylik predmetlar, tasvirlar, shakllar va ranglar kabi ko'plab shakllarni o'z ichiga oladi. Ranglar yozma asarlarda katta ma'noga ega bo'lishi mumkin. Ular badiiy asarda ishlatilganda o'quvchining kayfiyatiga, g'oyalariga va tushunchalariga ta'sir qilish xususiyatiga ega. Madaniyat va jamiyatada ranglar o'ziga xos ma'noga

⁵⁸ M. Toir. –Toshkent. G'afur G'ulom. 2013. -22-bet

ega bo‘lib, rang ramziyligi madaniyat, vaqt va kontekstda talqin qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Yozuvchilarning simvolizmdan foydalanish sabablarini aniqlash uchun, eng avallo, ular mualliflariga qanday yordam berishi mumkinligini bilib olishimiz lozim. Adabiyotsunoslikda biror-bir harakat, predmet yoki ismga chuqurroq ma’no singdirish va ularni mazmunli qilish maqsadida timsollardan foydalaniladi. Ramz-bu boshqa bir narsaga ahamiyat qaratish uchun unga bog‘lab qo‘yiladigan aniq narsa. Yozuvchilar kitobxon bilan to‘g‘ridan-tog‘ri muloqot qilish o‘rniga ramzlardan foydalanib, nima demoqchi ekanligini unga uqtirmoachi bo‘lishadi. Ushbu bilvosita yondashuvlar mualliflarga murakkablik yaratishda yordam beradi, ammo ramzlarning ishonchli bo‘lishi uchun ular asarning qolgan qismida ham qo‘llanilishi kerak.

Ramziylik ijodkor va yozuvchilar, shoirlar uchun quyidagi jihatdan foydalidir:

1. Murakkab g‘oyalar va markaziy mavzuni tushunishga yordam beradi;
2. Yozuvchilarga katta va murakkab g‘oyalarni samarali, badiiy tarzda taqdim etish imkoniyatini beradi;
3. Muallif matnini o‘rganayotgan o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash jarayonini osonlashtiradi;
4. Matnga hissiy og‘irlik qo‘shadi;
5. Ochiq yondashish uchun juda munozarali mavzudan chalg‘itadi.

Adabiyotda rang ramziyligi keng tarqalgan qo‘llanilish holatlariga sahnani rang bilan bezash, hissiy munosabatlarni uyg‘otish, muhit va kayfiyatni ko‘rsatib berish kiradi.

Badiiy asarlarda xilma-xil ranglardan foydalanish orqali kitobxonlarda katta taassurot qoldiradi. Masalan, daraxtlar yashil va jigarrang, osmon oq bilan ko‘k, dengiz marvaridga o‘xshash yashil. Elementlar resipeyentga asarni yoki she’rni o‘qiyotganida ularning manzarasini tasavvur qilishiga yordam beradi.

Muallif ongidagi tasavvurlar badiiy asarda ranglar orqali yoritilsa, asar kitobxonini bilan o‘zaro tajriba almashinadi. Boshqacha aytganda, yozuvchi ranglardan foydalanish orqali o‘z kitobxonini bilan samarali muloqot olib boradi. Ranglar his-tuyg‘ularni mamoyon etish tufayli she‘rlarning hissiy ta‘sirini oshirishi mumkin. She‘riyatda shoir tomonidan inson kechinmalari, ta‘sirlanishlari, hayotiy tajribalarining ranglar bilan tasvirlanishi she‘rning o‘qimishlilikini ortiradi. Masalan, ko‘k rangni ishlatib, g‘azabni yetkazish qiyin bo‘lishi mumkin. Yaratilgan asar xoh u ertak, xoh u badiiy asar qanchalik yaxshi yozilgan bo‘lsa ham, o‘quvchining kayfiyatini tushurib yuborishi hamda yanada qayg‘uli javob qaytarishiga olib kelishi mumkin.

Adabiyotda atmosfera, atrof-muhit yoki kayfiyatni yaratish uchun ham rangdan foydalaniladi. Jahon adabiyotida rang ramziyligi turlicha talqin qilinadi, chunki butun dunyo adabiyotida turli xil ranglar va ularning ma‘nolari atroflicha o‘rganiladi. Jumladan, Fransuz adabiyotida rang ramziyligining o‘ziga xos xususiyatlari kuzatiladi. XII asrda fransuz yozuvchilari va shoirlari romantika, xarakter va hissiyotlarni ifodalash uchun faqat yetti rangdan foydalanishgan. Bular: oq, qizil, sariq, ko‘k, yashil, qora, jigarrang edi.

Rang ramziyligini o‘rganish uchun ertaklar eng muhim manba hisoblanadi. Qondek qizil, qordek oq, qarg‘adek qora va hokazolarni o‘z ichiga olgan elementlar bolalarda hissiy reaksiyalarni uyg‘otadi va hikoyani yanada yorqinroq qiladi.

Ma‘lumki, qora rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar qadimdan istifoda etiladi. Biroq ko‘pincha ijodkorlar ijodida bu rang daxshat, yovuzlik, yer osti dunyosi, ya‘ni o‘liklar dunyosi ramzini anglatadi. Tun ramzi ham ana shu an‘anananing metaforik ifodasidan iborat. Keyinchalik ma‘naviy ramzlar semantikasida ham kengayish yuz berdi. Masalan, mumtoz va hozirgi poeziyada qora rangi ma‘shuqaning qoshi, ko‘zi, sochiga nisbattan qo‘llanilgan ijobiy ma‘no ifodalasa, qismat, baxt, ro‘zg‘or, tun kabi leksemalar bilan ishlatilganda, an‘anaviy yovuzlik, daxshat kabi ramziylik anglashiladi. Shu bois tun bag‘riga yashiringan siru-sinoatlar hamisha she‘riyatning tasvir obyekti bo‘lib kelgan.

Abduvali Qutbiddinlarning tun haqidagi she'rlari, ta'bir joiz bo'lsa, bizga kamdan kam yuz ochadigan hayot halovati. Bu zavq-shavq, hayajon, mahliyo bo'lmoq, bu ehtiros farog'ati, tuyg'ular to'lqini va bo'roni, muhabbat toshqini, lazzat quvonchi, g'am nash'asi, istirob huzuri, ko'z yosh chanqoqligi⁵⁹.

Masaalan:

Tun. yulduzlar falakning yongan fig'oni,

Tun. Ertakka o'xshagan yo'lg'onchi umr.

Tun. Mushuk tutmagan qora kalamush,

Tun. Kuchuk quvmagan qora rang bo'ri.

Tun. Hovlilar o'ralab yurgan yalmog'iz,

Tun. Ko'ziga ajal tuprog'i ilg'amas.

Qo'shib bo'zlagan Ota!

Misralardagi har bir poetik ifoda sharhi ko'pgina sahifalarga yetadi. She'rning birinchi misrasida tasviriylik bilan birga chuqur ramziy ifoda bor. Chunki azaldan odamzot osmon yoritqichlarini muqaddaslashtirganlar. Ular osmondagi muqaddas yoritqichlar va ota-bobolarning ruhiga atalgan qurbonlik marosimini o'tkazib kelgan.

Osmon yoritqichlarining poetiklashtirish an'anasi ham ajdodlarning inonchlaridan kelib chiqqan. Misralardagi "qora kalamush", "qora rang bo'ri" hatto "yalmog'iz" ham muayyan toifa odamlarining ramziy obrazlaridir. She'rda eri urushga ketgan ayol (ona) xotiralari badiiy ifodalanar ekan, sirdan bu narsani anglash qiyin shoirning "onam xotiralari"dan degan iqtibosidan va birinchi qism so'ngida Tun. Urushga ketib qaytmagan ota. Tun. "oqpadar, bezori urush" ochqich misralari bor. Shunga ko'ra she'r urushning tirik qurboni-ona hasratnamosidir. "Qora kalamush", "qora rang bo'ri", "yalmog'iz" bari urushning ramziy suratlarri. Urush changal solgan xonadonda ro'y beruvchi kechmishlar shoir qalamida betakror ifodalangan va yana dom-daraksiz ketgan ota. Chunki, "ko'ziga ajal tupurgan"-o'lmas odam hasrati, sog'inchi va yana qancha dardu-iztiroblari – Tun (qora) ramziga muqoyassa qilinadi.

⁵⁹ Abduvali Qutbiddin. "Bor" kitobidan she'rlar. 2013

Shuning uchun rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar o‘zbek she‘riyatida inson ruhiy iqlimlarida yuz berayotgan turfa holatlarni, o‘zgarish evrilishlarni nisbatan to‘liq va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Bu narsa ayni istiqloq davri adabiyotida namoyon bo‘ladi. Bu davrdagi adabiyotlarda o‘tmish hodisalari badiiy taftishdan o‘tayotgan davrda tariximizning istilochilar zulmi davrini ramzlashtirishda an’anaviy qora rang emas, balki qizil rang ijodkorlarning g‘oyasi badiiy niyatiga, ifoda talabiga ketishda yorqin namoyon bo‘lgan. Dadil aytish mumkinki, bu tamoyil barqaror an’ana sifatida she‘riyat xazinasidan mustahkam o‘rin olgan:

Qip-qizil turnani ko‘rdim o‘ttiz yil,
Yechay dev bo‘ynidan billur halqani,
Otamga shifolar so‘rdim o‘ttiz yil,
Rahm qani?
Shafqat qani?

She‘rda lirik qahramonning kutgani “qip-qizil turna” –sotsiologik tuzum va‘da qilgan Jannat ramzi. Qizil rang bilan berilgan ramz ana shu jannatga yeta olmagan, sarobga ergashib adashgan insonning masalasini ta’sirchan va betakror ifodalashga imkon bergan.

Abduvali Qutbiddinning “Tadorik ko‘r jonim, savsanni choral” misralari bilan boshlanuvchi she‘rida esa nosoz zamonning turfa “o‘yinlaridan”, “to‘yib” “qo‘lini yuvgan “o‘ttiz yil kutgani”, “qiz-qizil turnalar kelmagan, qora bahorlarda yashashdan toliqqan lirik qahramon kayfiyati va uning Qora Vatanni diliga yaqin bulbul-u, qaldirg‘ochlar bilan tark etmoqlik” taraddudi ifoda qilingan.

Odatda, badiiy asarlarda “bahor–go‘zallik, yashillik-hayot” va obodonchilik bunyodkori sifatida gavdalanadi. Hazin qishdan sog‘inib chiqqan dov-daraxt-u butun mavjudot borliq iliq nurlar og‘ushida cho‘miladi. Quyoshning iliq taftini qo‘msagan pana-pastqamlikdagi maysalar sevgini “izhor aylab”, ” meni tanib ol” deya ko‘k sari nozik qo‘lchalarini cho‘zadi. Bahor butun borliqqa yorqinlik va turfa rang baxsh etadi.

Ammo negadir shoir qalamga olgan bahor shunday bir qora bahorki, unda bulbulning zori, qaldirg'ochlarning zog'larga qoldirgulik ma'yus o'chi bor, Vatan shunday qora Vatanki, unga egalik qiluvchilarning johil badanlarida zardoblar yuguradi, ular hamon eski qulflarga sig'inadilar, qadim urflarni tanishni tan olmaydi, do'stni bilmas qo'larida esa yana tosh:

Ey g'ilmon dasturxon yozma, qo'rqaman.

Ruhimni kufrga mengzar turqdaman.

Men axir she'r topdim qadim urflardan,

Men axir bosh torttim eski qulflardan

Bu qanday zalolat o'sha qo'llarga,

Bu eski kishanlar yangi yo'llarda,

Ey, jahon egasi, jahon kimlarda?

Tadorik ko'r jonim, savsanni chorla,

U kelsin biz tomon bulbulni zorla.

Yo'lga tushaylik biz ayni nahorda

Ortiq yasholmaymiz qora bahorda.

Qadimgi urflardan she'r, ezgulik topayotgan, bulbul yanglig' mo'jizaviy go'zallik oshig', qaldirg'och yanglig' kelajakni ko'z qorachig'ida asrovchi chin insoniylik tuyg'ulari jo'sh urgan lirik qahramon o'zida norozilik tug'dirgan holatlarni qora rang fonida muxtasargina ifoda qila olgan. Demakki, ro'y berayotgan voqea-hodisalar xoh ijobiy(dasturxon yozmoqlik) xoh salbiy xususiyatlari bilan boy ko'rimasin baribir, Qora Vatanda qor Bahordir. Bahorning Vatanning qoraligini payqab qolgan lirik qahramon "Ey, jahon egasi, jahon kimlarda?, -deya oh chekib, ayni nahorda o'ziga yaqin ishonchli do'stlari bilan g'amu-kulfatni tark etmoqlikni diliga tuggan.

O'tgan asrning 80-90- yillar she'riyatini kuzatar ekanmiz, bevosita bu davr shoirlari ijodida ranglarga bo'lgan munosabat keskin kuchayganini ko'ramiz. Abduvali Qutbiddin noan'anaviylik yo'lidan borib, yuqorida ko'rganimiz "qora bahor" ramziy obrazini qo'llaydi. She'rda an'anaviy tushunchani ifodalovchi qora rangning Vatan, bahor, sevinch kabi so'zlar bilan

noan'anaviy qo'llanilishi shoir fikrini umumlashtirishga, uni poetik ramz darajasiga ko'tarishga asos bo'lgan. Zero, ustoz shoir Rauf Parfining e'tiroficha, "Abduvali she'riyati dunyoni obrazli idrok etishning ajoyib namunasi. U borliqni yalong'och tasavvur qila olmaydi. Qalbida har bir lahzani, voqea va hodisani his qilib, kamalakdek jilo beradi.

Bundan tashqari Rauf Parfi umr adog'ida ma'naviyat darg'alari haqida quyidagi dil bitiklarini qoldirgan edi: " Ustozlar haqida gap ketganda talmovsirab, nima deyishni bilamay qolaman,- deb yozdi Rauf parfi. "Ko'z oldimga ularning purviqor siymolari gavdalanadi, men sho'rlik ularga shogirdlikka arzimligimni aniq his qilaman. Lekin ustozlar haqida gapirmaslik mumkin emasligini ham tushunaman. Men sayyohman, yo'lovchiman, g'avvosman . Siz anglagan, siz zabt etgan adabiyotga dahlim yo'q, juda borsa adabiy sayyohman,- deyman qaltirab, qaqshab. Xayolan tiz cho'kib, urz so'rayman. Bas, mening uchta pirim bor, ulardan ko'mak, madad tilanaman. Yassaviy pirim, Navoiy pirim, Thakur pirim. Menga qo'l uzatgan ustozlarim bor - Abdurahmon Vodiliy, Asqad Muxtor, Shukrullo".

Rauf Parfi adabiy shoirlari, ustozlari haqida hamisha yonib so'zlardi. Bir kuni tabiatdagi va she'riyatdagi ranglar xususida shuhbatlashib qoldik. "Tabiat ranglaridan ma'no o'qish uchun shoir bo'lish shart emas,- deydi Rauf Parfi . – Har kim o'z tasavvuridagi ranglarni anglaydi. Buning uchun shoirmi, rassommi yoki bastakormi, idroki va ehtiyojidan kelib chiqib ranglardan mazmun aniqlaydi. Menimcha, qanday ranglar bilan suhbatlashishi kerakligi har bir inson o'zi biladi.

Rang ifoda etuvchi sifat leksemalarining uslubiy vazifalari va uslubiy semalari shu qadar nihoyasizki, adabiyot va tilshunoslikka oid darsliklarda bunday birliklarda duch kelmay qolmaysiz. Hozirda biz rang leksemalarining badiiy matnda ramz ma'nolarini ifoda etishda foydalanishi haqida to'xtaldik. Ramz nima ekanligi haqida yana bir bor to'xtalib o'tsak, ramz nima ekanligini aniqlashtirib olsak, ramz atamasining tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak, qadimgi yunonlar "symbol" ayrim odamlarning o'zaro bir –birlarini tanish

uchun zarur bo'lgan shartli harakatlari, belgi va ishoralari, muayyan predmetlarni qo'llashlari ma'nosini anglatuvchi so'zdan foydalanganliklari ayon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaralsa, qadimgi ajdodlarimiz ikki xil asosdagi ramzlarga ko'proq murojaat etganliklarini anglab yetamiz. Birinchisi- narsa ramz, ikkinchisi-rang ramz.

Madaniyatni o'rganishda rang katta ahamiyatga ega. U ta'sirchanlikni oshiruvchi vosita bo'lib, til va ijtimoiy amaliyotda mustahkamlangan, turli omillar bilan boyitilgan vositadir.

Etnograf Viktor Terner rang-ramzlar ilg'ab olinish jihatidan ancha qadimiy ekanligini ko'rsatib bergan uning aniqlashicha, qadimgi inson uch: dastlab oq, qora qizil ranglari bilan bog'liq ramzlarni kashf etgan bo'lsa, keyinchalik u asta-sekin bu uchlikka yashil, sariq, ko'k va boshqa ranglar bilan aloqador ramzlarni kiritgan.

2.2. Rang- tus sifatlarining lingvomadaniy xususiyatlari.

Til–ma'naviy boyligi, qiyofasining bir bo'lagi va birdamligi timsolidir har bir millat milliy o'ziga xosligi hamda o'z madaniyati bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Bunda, shubhasiz, uning tili ham madaniyatning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, millat madaniyatining yuksalishi, uning tarixiy an'analari, qadryatlarini namoyon etishda tilning ahamiyati beqiyos. Til madaniyatning ahamiyatli bir bo'lagi sifatida muloqot jarayonida milliy madaniyatni aks ettiradi. Ma'lumki, til madaniyatning tarkibiy qismi, uning quroli bo'lishi mumkin. Til madaniyat ruhining ifodasi hamda madaniyat mavjudligining o'ziga xos usuli hamdir.

Shu o'rinda muhtaram prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning“ Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boyluk. Kimda kim o'zbek tilining bor latofatini jozibasi, ta'sir kuchini va cheksiz imkoniyatini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik

dostonlarimizni, o‘lmas maqolalarimizning eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin”, -deya aytgan fikrlari til va madaniyatning o‘zaro bir biri bilan uzviy bog‘liqligini yana bir karra isbotlaydi. Har bir millatning o‘z tabiati, turmush sharoiti, urf-odati, madaniyati va san‘ati va ,albatta, har bir millatning o‘z vatani, oilasi bo‘lgani kabi uning jondan aziz sevgan hamda faxr- g‘ururi Ona tili ham bo‘ladi. Til va madaniyatning o‘zaro munosabatini uzoq yillar davomida o‘rganish va tahlil qilish natijasida umumiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik, psixologiya, falsafa kabi fanlarning yangidan – yangi qirralari ochildi hamda ular lingvimaganiyatshunoslik, kommunikativ tilshunoslik, kognitiv tilshunoslik, interlingvistika, (bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish sinxron va diaxron lingvistika kabi zamonaviy fanlarning shakllanishi va rivojlanishiga asos bo‘lmoqda. Avvalgi va hozirgi tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, til va madaniyat ikkisi bir butunlikni tashkil etadi degan fikrni bildirib o‘tsak noto‘g‘ri bo‘lmaydi. O‘zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri, ma‘rifatparvar olim Abdulla Avloniy “Har bir millatning o‘zligini ko‘rsatadurg‘on oynai hayoti va adabiyotudur. Milliy tilni yuqotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”, -deb ta‘kidlaydi.

Bu ajib olamga hamma o‘z ko‘zi bilan qaraydi va o‘z nazdidan kelib chiqqan holda baholaydi. Hayotimizni serjilo va qiziqarli qiladigan asosiy vositalardan biri bu ranglardir. Ranglar inson hayotida muhim rol o‘ynaydi . Inson o‘z hissiyotini va ichki tuyg‘ularini ifoda etishda ranglardan ham foydalanadi va bu rang elementlar ba‘zida so‘zlardan ko‘ra o‘z fikrimizni aniqroq va ekspressivroq tarzda tinglovchiga yetkazib beradi. hayotdagi, turmushdagi, voqea-hodisalarning, urf-odatlarining rang-tus bilan bog‘liq tomonlari juda ko‘p. bu narsa, albatta, tilda ham o‘z aksini topadi⁶⁰.

Ranglar o‘zbek tiliga tojik tilidan kirib kelgan bo‘lib, tus, bo‘yoq, tur kabi ma‘nolarni anglatadi.

Ranglarni o‘rganish bilan ham alohida fan ham shug‘ullanadi. Bu fanning nomi koloristikadir. U rang madaniyati va til, rang garmoniyasini poydevoriga

⁶⁰ G‘oziyev T., Egamov A. Rang tasvir.,- Toshkent. 2003. -26-28-bet

va bir vaqtning o'zida jamiyatning rang madaniyati haqida tasavvuriga ham asoslanadi. Ranglar haqidagi fan qadimdan shakllangan bo'lgan. Qadimdan Sharq mamlakatlarida rang simbolistikasi paydo bo'lgan va bularning barchasi Yevropa va Osiyoning rang madaniyatiga katta ta'sir o'tkazgan. Ranglardan juda keng miqyosda foydalana boshladilar. Antik davrda esa rang estetika kategoriyasi sifatida qabul qilina boshladi⁶¹.

Eramizgacha bo'lgan IV asrdayoq qadimgi grek faylasufi Aristotel rang va rang hodisalarini aniqlashga harakat qilgan. O'rta sarlarda esa rangni diniy nuqtai nazaridan o'rganish boshlandi. Lenardo da Vinchi garmonil qarama-qarshilikni aniqladi. Bular: oq-qora, ko'k-sariq, qizil-yashil. Shunday qilib ranglar haqidagi fan paydo bo'ldi. Bu sohani F.Runge, A.Shopengauer, U.Ademe, E.Delakrue, Van Gon, V.Kandinskiy kabi olimlar rivojlantirdi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili rang mavzusini o'rganishda turli xil yo'nalish va yondashuvlar mavjud ekanligini ko'rsatdi. Ilmiy adabiyotlarda shu ma'lum bo'ldiki, rang tahlilini o'rganish ikki yo'nalishda olib borilgan(kultrologik va lingvokultrologik). Biz dissertatasiyamizning ushbu faslida ranglarning lingvokultrologik ahamiyatiga etibor qaratib, uni yoritishga harakat qilamiz. Ranglarning lingvokultrologik tahlili ham ikki yondashuvga bo'linadi. Lingvokultrologik yondashuvda rang qanday berilgan qanday berilgan, uning berilishi nima bilan bog'liq va asosiysi rang berilishida qanday g'oya ilgari surilgan degan savollarga javob topishga harakat qilinadi.

Birinchi yondashuvda rangga to'gridan to'g'ri emas, til orqali nisbiy qaraladi. Ranglarning tahlili umimiy tarzda til va adabiyot orqali ko'riladi. V.A.Maslova rang ifodalanishini madaniyat, tabiat va predmet bilan bog'liq degan fikrni ilgari surgan. V.A.Maslova yana shuni ta'kidlab o'tadiki, Shimol taraflarda asosiy tasavvurdagi rang oq va sariq. V.A.Maslova o'z ishini ochib berish jarayonida shunday ma'lumotlarni keltirib o'tadi: g'urbat qora rangda, tun ham shu rangda ifodalanishi, har xil xalq madaniyatidagi ranglar va ranglarni tasavvuri bilan bog'liq hodisa ekanligi haqidagi umumiy xulosalar berishgan.

⁶¹ Календарные обичаи и обряды народов Восточной Азии Новый годю –М.,Наукаб. 1985. С.-59.

Ikkinchi yondashuv lingvokultrologik yondashuvda rang muammosi matn nuqtai nazaridan o'rganilgan va ushbu yondashuvda uch xil qarashlar mavjud bo'lgan. A.V.Kurdina, B.G.Mesheryakov matnda ranglar tahlili abyektiv haqiqatlar bilan bog'liqligimi ko'rsatsa, E.A.Yushkina rang muammosiga badiiy asar orqali yondashishga, ya'ni ranglar ifodalanishi yorug'liqqa bog'liqligini aniqlaydi degan fikrni olg'a surishgan. Y.M.Lotman badiiy asaardagi ranglarni berishga emas, simvollarni badiiy asardagi to'lqiniga e'tiborini qaratgan⁶².

Ranglar psixologik, leksik, koloristik, semantik, lingvokultrologik etimologik, tomonlari ko'plab olomlar tomonidan o'rganilgan. V.I.Shersli o'zining "Названия цветов и символическое значение их" nomli maqolasida turli xalq va qabilalarning urf-odatlaridagi rang bilan bog'liq bo'lgan irim-chirimlarni mufassal yoritgan. "Afrika xalqlari, -deb yozadi u,-oq rangni doim yaxshilikka yo'yishadi, ya'ni oq- bu shodlik va begunohlik alomatlaridir, deb topadilar. Turli musobaqa o'yinlarida g'olib chiqqanlarga va hattoki ozod qilingan qulga oq kiyim kiydirishadi. Boshqa Afrika qabilalarida esa oqqa begunohlik, poklik, do'stlik simvoli deb qaraydilar. Mo'g'ullar oq rangni muqaddas deb biladilar. Shuning uchun ular muqaddas deb biladilar. Shuning uchun ular muqaddas deb bilgan bu rangni bu tusga ega eshak yoki shu turdagi hayvonlarga nisbatan ishlatmasdan, bu hayvonlarga "qizil" tusli deb aytishgan. Olim o'z maqolasida boshqa ranglarga ham to'xtalib o'tgan.

Kultrologik yondashuvning ikkinchi yo'nalishiga A.Vejbitskaya olg'a surgan fikrlar asos bo'lgan. O'z tadqiqotlarida u yapon tilidagi koloristik leksemalarning farqlarini tushuntirib, qaysini qachon ishlatilishini ko'rsatib bergan. Har bir rang har bir millatning madaniyatida o'ziga xos lingvokultrologik vazifani bajaradi. jumladan, yashil rang musulmon olamida o'z xos ramziy rangdir. U yangilanish, yosharish, yashash kabi semalarni beradi. Qizil esa tanimizda oqib turgan qonni o'ziga tortuvchanlikni, qiziqqonlikni ifodalaydi. Sariq rang esa ayrim o'rinlarda oltinni, ayrim o'rinlarda esa kasallikni ifodalaydi.

⁶² Миранова З.Цветоведение. –с.90.

Millatimizda zaldan qolgan ayrim urflar borki bu urflarni ranglarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu urf-odatlardagi rang elementlari ancha ma'no anglatadi. Masalan, azaldan dunyoga tanish bo'lgan sariq kasalligini(gepatit) shu rangdagi (sariq rangdagi) giyohlardan tayyorlangan damlamalar bilan davolash odat tusiga kirgan. Tunda shomdan keyin ko'chaga chiqarilayotgan chaqolaqlarning peshona qismiga qora kuya yoki qora rangli bo'yoqlar vositasida uni ziyon-zahmatlardan himoya qilishga harakat qilingan. Inson badaniga qizil toshma toshganida esa unga qizil rangdagi surtmalardan foydalanish, yoki bemor yotgan xonaning derazalariga qizil pardalarni ilib qo'yish. O'yinlarda ham jarima ma'nosini qizil rang bilan ifodalash barcha mamlakatlarda ham oddat tusiga kirgan. Hattoki, test yechish jarayonida ham noto'g'ri javob qizil rang bilan belgilanadi. Yana bir urf bu- chaqaloqni hiqqichoq tutsa, undagi bu holni to'xtatish maqsadida chaqaloqning burun soha qismiga yoki peshonasiga ko'k rangdagi ipning yoki qo'g'ozning qo'yil bilan voqealanadi.

Rangga munosabat madaniy me'yor bilan bog'liqdir. Ranglarning ham o'ziga xos ramzi mavjud: yevropaliklarda qora rang motam ramzidirki, holbuki, yaponlarda motam ramzi oqdir. O'z millatimizda ham e'tibor qaratadigan bo'lsak, ayrim hududlarda bu motam ma'nosini oq rang, ayrim hududlarda esa bu ma'noni ko'k, qora ranglar ham ifodalaydi. Azaldan qardosh bo'lib kelgan tojik va o'zbek millatining ham motam ramzi oqdir.

Qizil rang zo'ravonlik, urushqoqlik bilan bog'liq. Bu rang Xitoyda gullab -yashnash va baxtiyorlik ramzidir. Shuningdek boylarning, zodagonlarning kiyimlari va darvozalari qizil rangda bo'lgan. Biroq bu rang Janubiy Afrikada motam va aza ma'nosini anglatadi.

Ayrim lingvomadaniyatlarda bu rang jug'rofiy belgini ifodalagan. Masalan, Mayya qabilasida qizil rang Sharqni, qadimgi Meksikada tog'li xalqlarida Janubni ifodalagan. Qora rang turli lingvomadaniyatlarda yovuzlikni, o'lim, qayg'uni ifodalaydi. Ko'plab G'arb mamlakatlarida bu rang an'anaviy motam ramzi sanaladi. Qadimgi Sharqda bu rang buyuklik ma'nosini ham

bergan. Tariximiz sahifalariga nazar tashlasak, ko‘plab xonliklar va davlatlar o‘z nomlariga qora leksemasini qo‘shib ishlatishgan. Masalan: Qoraxoniylar, Qoraxitoylar. Bu leksemalar ushbu nom ostidagi davlatlarning buyukligiga ishora qilgan. Bundan tashqari bu xonliklar yoki davlatlarning rahbari, xonlari o‘z noimlari qora leksemasi bilan qo‘shib aytishgan va shu tarzda tarixga muhrlashgan. Qora Koreya tarixida o‘lim ma’nosini bildirgani uchun, ular bu rangdan saroy devorlarini bo‘yashda foydalanishmagan. Biroq sudyalar halollik va poklikni ifodalash maqsadida bu rangdagi libosni kiyishgan. Bundan tashqari tariximiz sarvaraqlariga nazar tashlasak, jahon urushi davrida urushda halok bo‘lgan askarning oilasiga qora maktub jo‘natilgan. Bu esa o‘sha davrlarda ham bu rangning motam, ayriliq ramzi ekanligini bildirgan.

Oq rang deyarli barcha xalqlar madaniyatida soflik, ezgulik, rostgo‘ylik timsoli sifatida ifodalangan. O‘zbek lingvomadaniyatida bu rang pokizalik, musaffolik, ezgulik kabi semalarni ifoda etadi. Shuning uchun otobobolarimizdan urf bo‘lib kelayotgan an’analar bu rang bilan bog‘liq. Masalan, oqlik, oq o‘rar, ona sutidek oq, kelinning libosi, otaning qizning boshini oq paxta bilan silashi. O‘z o‘rnida shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, o‘zbek madaniyatida ham kelinning kiyimlarini tanlash uchun bozorga chiqqan quda tomondagilar, kiyimning, avvalo, bosh kiyimdan va uning oq rangda bo‘lishi inobatga olingan holda xarid qilingan. Bu esa poklik, baxtlilik ma’nosini ifodalashga yoki umid qilishga nishonadir. Rus xalqi ijodida oq rang motam ma’nosida keladi. Ba’zi lingvomadaniyatlarda bu rang qo‘rqoqlik ramzidir. Masalan, 1-jahon urushida harbiy xizmatdan qochib ketgan fransuz askari yoki zobitiga qo‘rqoqlik ramzi sifatida oq patlar yuborilgan. Bundan tashqari ko‘plab lingvomadaniyatlarda bu rang mag‘lubiyatni ham ifodalagan. E’tibor berganmisiz, urush jarayonida mag‘lubiyatga uchragan tarafning oq bayroq ko‘tarilishi mag‘lublikni ifodalagan. Sport maydonida yengilayotgan tarafning oq ro‘molcha yoki oq sochiqning davraga tashlashinishi mag‘lublikning tan olinishini ifodalagan. Xitoy va Koreys madaniyatida esa oq boshqa holatdan farqli o‘laroq yomonlik timsoli, o‘lim va motamni ifodalaydi. Hattoki, bizning

madaniyatimizdagi leksikonimizda tez-tez qo'llaniluvchi "oq yo'l" birikmasi ham ularga juda erish tuyulishi mumkin. Koreyslar oq rangni muhim deb hisoblashgan. Choson davrida Konfutsiyga ergashgan olimlar oq libos, qora astar kiyib, olimning aksitizmini vizual tarzda ifoda etishgan.

Ranglardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Har bir rang bir olam ma'no anglatasa, boshqa lingvomadaniyatlarda bu rang aksini ifodalashi yoki yana qo'shimcha ma'no anglatishi mumkin. Ranglarsiz hayotni tasavvur qilib bo'lmaganidek, badiiy adabiyotda ham ranglar o'z o'rniga egadir. Azal-azaldan o'z ijod mahoratlarini namoyon etmoq uchun g'azalnavislar, shoirlar, yozuvchilar bu ranglardan ko'p marotaba murojat qilishgan. Ularning bir qator yozgan asarlarida olam-olam ma'no jamlangan bo'lib, har bir inson bu ranglardan o'ziga yana bir boshqa ma'no , tushunchani yaratadi, bu esa kitobxonning ichki dunyosi va psixologiyasi bilan bog'loq bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, koloristika psixologiya bilan bog'liqdir.

Bob bo'yicha xulosa.

Ushbu faslimizda biz sifatlarning badiiy matndagi o'rnini va uning uslubiy xususiyatlarini yoritishga harakat qildik. Namuna sifatida esa nazm va nasrdan asarlardan foydalandik. Ijodkorlarning bu ranglar orqali nimani kitobxonga yetkazishga harakat qilayotgani, qaysi ranglardan ko'p foydalanishi, salbiy va ijobiy ranglar, aksincha biz salbiy hisoblagan ranglar semasi, nazmda ijobiy ma'noda kelishi haqida tanishib chiqdik. Nazmdagi asarlarda esa bu ranglar qahramonlarning ichki tuyg'ularini ifodlashda ishlatilganliklarini isbotlashga harakat qildik. Navoiy, Mashrab, bobur singari g'azalnavis shoirlarning asarlaridagi ranglarning ijobiy baholari, bu ranglar ortida esa olam-olam ma'no turishini, har qaysi o'quvchi esa bu asarlarni o'qish jarayonida o'z psixologiyasidan kelib chiqqan holda tahlil qilishini tushuntirib o'tdik. Rang – tus sifatlarning ramziy ma'nolari, azal –azaldan bizga ma'lum yoki no'malum bo'lib kelgan semalari bilan tanishib chiqdik.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, madaniyatlararo munosabatlarda ranglarning ahamiyati katta bo'lib, turlicha farqlarga ega. Bir madaniyatdagi rangning lingvokulturologik ma'nosi boshqa madaniyatlarda umuman boshqacha ramziy ma'noni ifodalaydi. Masalan, birgina aza marosimlarida turli millat vakillari turli xil rangni qabul qilganlarini ko'rishimiz mumkin. Mana shuning o'ziyoq madaniyatdagi farqni ko'rsatadi. Bu farqlar millatning urf-odati, tarixi va milliy mentalitetidan kelib chiqadi. Lingvokulturologiyada rang konseptini "insonni o'rab turgan olamni anglashida muhim kognetiv kategoriyalardan biri sifatida ko'p narsa –hodisalarni o'zida aks ettiradigan "madaniy kod", ya'ni "turli xalqlarning o'zaro munosabatlari natijasida" madaniy daltonizm" ni bartaraf etishga imkon beradigan bilimdir" deya ta'kidlaydi. Tilshunos olim A. Belov. Ranglar har bir millatning o'ziga xos ifoda (konsept)ga ega bo'lib, u nolisoniy omillar, xususan, millatning dunyoni bilish bilan bog'liq holda tilda namoyon bo'ladi.

UMUMIY XULOSALAR

Ushbu magistrlik dissertatsiyamizni so'ngida boblar bo'yicha fikrlarimizni umumlashtirib quyidagi jamlovchi xulosani havola qilishimiz mumkin.

1. Tilshunosligimiz tarixida sifat so'z turkumi haqidagi ilk tadqiqotlar juda qadim davrlarga borib tarqaladi. Chunonchi Ko'shg'ariydan boshlangan bu zanjir halqalari Navoiy davri va undan keyin XX asrning birinchi choragida kelib, o'z takomilining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Bunda Abdurauf Fitratning keyinchalik rus sharqshunos olimlarning xizmatlari katta bo'ldi.

2. O'zbek tilshunosligida sifat so'z turkumiga oid ilk ilmiy tadqiqot 40-yillarning ikkinchi yarmida vujudga kelgan. Z. Ma'rufov 1947-yilda Sankt-Peterburgda "O'zbek tilida sifat darajalari", 1957-yilga kelib G'. Abdurahmonov Samarqandda "Hozirgi o'zbek tili sifatlarining substantivatsiyasi (otlashishi)", 1955-yilda O. Madrahimov "Hozirgi o'zbek tilida yangi yasalgan sifatlar" mavzusida nomzodlik ishlarini himoya qilgan edi. 1957-yilda O. Madrahimovning "O'zbek tilida sifat va yangi yasalgan sifatlar masalasiga doir" nomli maqolasi e'lon qilingan edi.

3. Sifat so'z turkumining uslubiy jihatdan o'rganilishi va bu so'z turkumining badiiy uslubda qo'llanilishi, Zulfiya, Maqsud Shayxzoda, Oybek, Rauf Parfi, Xurshid Davron, Muhammad Yusuf kabi shoirlar ijodidan foydalangan holda sifatning uslubiy ma'no ottenkalari, uslubiy-bo'yoqdorligi, emotsional-ekspressivlikni ta'minlaydi.

4. Poetik nutqda rang bildiruvchi sifat leksemalarining uslubiy maqsadlarda qo'llanilishi ma'lum darajada muallif yashab turgan davrda qaysi tuzumning hukmron bo'lganligi, uning dunyoqarashi qaysi siyosat tarafdorligi ekanligi bilan ham bog'liq.

5. Sifat asosida shakllangan stilistik vositalarning badiiy matnda ma'no ko'lamining boyitishidagi o'rni, uslubiy vazifasi. Oksyumaron, antiteza va epitet kabi stilistik figura va troplarni yuzaga keltirishda sifatning roli.

6. Badiiy matndagi rang-tus sifatlarining ko'chma ma'noda salbiy yoki ijobiy ma'no ottenkalarini berishni ta'minlashi. Ularni urf-odat, kayfiyat, umr yo'llaridagi hayot kechirish darajalari, yor vasfini ta'riflash, diniy tushunchalarni tez ilg'ab olishga yordam berish kabi tomonlarini ochib berish.

7. Rang-tus sifatlarini lingvomadaniyatlar bilan birga o'rganish, ularni o'zga va qardosh xalqlarning bilan qiyos usuli orqali tushuntirib berish, har bir rang boshqa millat vakillari uchun yoki salbiy, yoki ijobiy ma'no anglatishini aniqlab berishdan iborat. Bundan tashqari rang ottenkalarini o'yin, to'y, aza, bayram, kasalliklar, qadimiy va hozirgi urf-odatlar bilan qiyoslab, turli madaniyatlararo o'rganishni qayd etildi.

Umuman olganda, sifat leksemalardan nutq jarayonida, jumladan badiiy matnlarda o'rinli va oqilona foydalanish uslubiy ta'sirchanlikni oshirish, ma'noni kuchaytirishning muhim vositalardan biri sanaladi. Davrlar o'tishi bilan til vositalarning nutqda qo'llanish imkoniyatlari kengayib borganidek, sifat leksemalar ham yangi okkazonal semalari bilan nutqiy ta'sirchanlik doirasini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Normativ huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. “Ўзбекистон Республикаси давлат тили ҳақида”ги Қонуни. –Тошкент: Ўзбекистон, 1989.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “ Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сон “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 4 октябрдаги ПҚ-4479-сон “ Ўзбекистон Республикаси “Давлат тили ҳақида”ги Қонуни қабул қилинганлигининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида”ги Қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги ПФ -6084-сон “Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони

II. Monografiya, ilmiy maqola, ilmiy to'plamlar

1. Abdurahmonov H., Shodmonqulova D., Rafiyev A. O'zbek tilining amaliy grammatikasi. –Toshkent: O'qtuvchi, 1992. 142-bet
2. Абдурахмонов А. Қизил, оқ ва қора сўзларининг лексик-семантик хусусиятлари// Ўзбек тили стилистикаси нутқ маъданияти масалалари. (илмий мақолалар тўплами), Самарқанд: СамДУ асарлари, янги серия , 346-чиқиши, Самарқанд: 1978. 110-бетлар.
3. Abduvali Qutbiddin. “Vor” kitobidan she'rlar. 2013

4. A.J.Omonturdiyev, SH.I.Abduraimova., O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyati.-Toshkent. 2016. -34-35-betlar. 233-b.
5. Арнолид И.В. стилистика современного английского языка. –Л., 1973; Долинин К. А. Стилистика французского языка. –Л., 1978
Арнолид И.В. стилистика С 212.
6. Boltaboyev N. Sharq mumtoz poetikasi. “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. –Toshkent. -2008. 168-bet.
7. Botirova M. Badiiy sifatlashlar (epitet)larning lingvistik xususiyatlari. – FTAI. Jild:03. Nashr:08. Oct 2022. 3-4-bet.
8. Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. –М., 1961; Стилистика русского языкаю –МЮБ 1969.Кожина М. И. Стилистика русского языка. –С. 97. С 228.
9. Фитрат А. Ўзбек тили қоидалари тўғрисида бир тажриба, Сарф, 1-китоб. Тошкент.-Самарқанд: 1930.- 56-бет. 189-bet.
10. Григорьев В. П. Поэтика слова. –М.,1979. –С. 162.Хамитов А. Туркий тилларда сўз маъносининг аналитик йўл билан кучайтирилиши. –Тошкент: Фан, 1984, -104 б.
11. Ҳожиёв А. Сифат //шоабдурахмонов Ш, Асқфров М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили, 1-қисм. – Тошкент: Ўқтувчи, 1980, 251-258-Бет.
12. Ҳолийоров М. От негизларидан сўз ясовчи кўшимчалар// ўзбек тили ва адабийоти, 1973, 1-сон, Б-82. 156-Б.
13. Ibrohim Naqqul. Qora rang- muborak rang.// Ibrohim Naqqul. Zanjirband sher qoshida (Navoiy saboqlari). –Toshkent: Yulduzcha , 1989, 36-45-betlar. 98-b.
14. Ж. Лапасов .бадий матн ва лисоний таҳлил. –Тошкент: Ўқтувчи, 1995. 42-б. 167-bet
15. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari . –Samarqand. 1994.47-bet. 145-bet.

16. Календарные обичам и обряди народов Восточной Азиию Новый годю –М.,Наукаб. 1985. -.59. С 234
17. Nazarov K., Sayfullayeva R., Ubaydullayeva M. O'zbek tili (ixtisoslik grammatikasi). –Toshkent: O'qituvchi, 1993. -30-bet 267-B
18. Мадрахимов О. Ўзбек тилида сифат ва янги ясалган сифатлар масаласига доир//ЎзФА ахбороти, ижтимоий фанларсерияси, Тошкент, 1957, 41-47-бетлар.213-Б
19. Мақсуда Содиқова. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти. –Тошкент-1974. -47-48-бет. 156-Б
20. Mirtojiev M. Ko'rsatilgan asar. –B -77. 219-Б
21. Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatish. –B. 15-16. 136-b.
22. Миранова З.Цветоведение. –с.90. С 300
23. M. Toir. –Toshkent. G'afur G'ulom. 2013. -22-bet. 76-B. 246-b.
24. Nazarov K., Sayfullayeva R., Ubaydullayeva M. O'zbek tili (ixtisoslik grammatikasi). –Toshkent: O'qituvchi, 1993. -30-bet. 198-b
25. Pardayev Z. O'zbek tilida sifatlarning semantik-uslubiy xususiyatlari.- Samarqand: SamDU nashri, 2007. 26-44 betlar. 122-b.
- 26.¹Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. –Toshkent: O'qtuvchi, 1978. -408 b
27. Qalandar Sapayev. Hozirgi o'zbek tili.// o'quv qo'llanma. –Toshkent-2009. -135-bet
28. Қўнғиров Р. Сифат ситилистикаси// Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маъданияти ыасалалари(илмий мақолалар тўплами), Самарқанд: СамДУ нашри, 1982, 3-10-бетлар. 213-б
29. Qo'ng'urov R. Sifat sitilistikasi // Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. –Toshkent: O'qtuvchi, 1983, 113-betlar; Qilichbekov E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi (grammatika). –Toshkent: O'qtuvchi, 1992. -160-bet
30. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. –B.27. 178-b

31. Рубайло А. Т. Художественные средства языка. –М.Б., 1961. С. 146.
32. S. Rahimov., V. Umurqulov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. // -Toshkent. – O'qtuvchi. 2003. 112-bet
33. Содиқова М. Сифат// Ўзбек тили грамматикаси, икки томлик, 1-том. Тошкент: Фан, 1976, 301-б
34. Турсунов У. Мухторов Ж. Сифат// Турсунов У, Мухторов Ж., Рахматуллаев Ш. ҳозирги ўзбек адабий тили. Қайта ишланган, тўлдирилган учинчи нашри. –Тошкент: Ўзбекистон, 1992. 287-бет.
35. Yandashova Tursunoy. “Badiiy matnda sifatlarning uslubiy qo'llanilishi. dissertatsiya–Toshkent. 2014. 28-bet. 111-b.
36. Ёрийев Б. Сифатларнинг стилистик хусусиятлари (Мақсуд Шайхзода шеърини мисолида) // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маъданияти масалалари. (илмий мақолалар тўплами), Самарқанд: СамДУ нашри, 1980. -56-59-бет. 169-б
37. Йўлдошев Б. Саид Аҳмад асарларида ранг билдирувчи сифатлар ва уларнинг функциялари ҳақида// Ўзбек тили грамматикаси, диалектологияси ва лексикологияси масалалари, (илмий мақолалар тўплами), Самарқанд: СамДУ асарлари, янги серия, 319-чиқиши, Самарқанд: СамДУ нашри, 1977. 76-81-бетлар. 201-б
38. Xurshid Davron. Qadrdon quyosh. –Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1979. 5-bet. 56-b.
39. Зулфия поэзияси тилида эпитетлар // Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маъданияти масалалари. (илмий мақолалар тўплами), Самарқанд: СамДУ асарлари, янги серия, 346-чиқиши, Самарқанд: 1978, 58-66-бетлар. 188-б
40. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: 1963. –С.593
41. Ўрибоев Б., Ўринбоева Д. Ҳозирги ўзбек тилининг сўзлашув услуби. –Тошкент: Фан, 1991, -160-бет.

42. G'oziyev T., Egamov A. Rang tasvir.,- Toshkent. 2003. -26-28-bet. 177-b.
43. ¹Ғийосов С. Ўзбек тилида аслий сифатларнинг кўчма баҳолаш маъноси ҳақида// Ўзбек тили ва адабийоти, 1982, 4-сон, 51-54-бетлар. 145-б
44. Ғуломов А. Стилистика//Ғуломов А., шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. Ўзбек тили дарслиги, 9-синф учун. –Тошкент: Ўқтувчи, 1977, 28-79-бетлар. 208-б.

III. DISSERTATSIYALAR VA DISSERTATSIYA AVTOREFERATLARI

1. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. Фан. Д-ридиссю- Тошкент . 1993.
2. Muqimova G. Hozirgi o'zbek adabiy tilida sifatlarning semantic-funksional xususiyatlari. Magistrlik dissertatsiyasi. -Buxoro. 2019.
3. Turdiyeva G. O'zbek tilida sifatning pragmatic xususiyati. Magistirlik dissertatsiyasi. –Navoiy. 2012.
4. Умурқулов Б. Ўзбек бадиий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари. Филология фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тақдим етилган диссертатсия.-Тошкент-2022. -117-б
5. Умурқулов Б. Бадиий матнда қийос ва унинг лингвопоетик қиммати . –филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш таййорлаган диссертатсия. –Қарши-2020. -115
6. Yandashova Tursunoy. “Badiiy matnda sifatlarning uslubiy qo'llanilishi. dissertattsiya–Toshkent. 2014. 28-bet.

IV. LUG'ATLAR

1. O'zbek tilining izohli lug'ati, ikki tomlik, I tom, M: 1981. 1-48-betlar

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент. ЎзМУ Давлат нашриёти. 2006.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 1-том. –М.:Русский язык, 1981. -134 б
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, иккинчи жилд. – Тошкент. ЎзМУ Давлат нашриёти. 2007.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, учинчи жилд. – Тошкент. ЎзМУ Давлат нашриёти. 2008.

INTERNET MANBALARI

1. <https://diss.natlib.uz>
2. <https://natlib.uz>
3. <http://en.wikipedia.org/wiki>
4. <http://www.lib.vsu.ru/elib/texts/217.pdf>.